**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**

RUSTAM SHARIPOV

E’TIQOD VA IJOD UYG‘UNLIGI

(TURKISTON JADIDLARINING SIYOSIY-HUQUQIY QARASHLARIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR)

Monografiya

Toshkent – 2024

UO‘K: 821.512.133
KBK: 83.3 (5 Uzb)
Sh - 54

Rustam Sharipov. E’tiqod va ijod uyg‘unligi. Monografiya. – Toshkent, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2024. – 118 bet.

Mazkur monografiyada jadid adabiyoti namoyandalarining badiiy asarlari va siyosiy-huquqiy hujjatlari tahlili misolida ularning badiiy-estetik, ijtimoiy-siyosiy, huquqiy va ma’rifiy qarashlari XX asr boslarida Turkistonda vujudga kelgan tarixiy sharoit, ma’rifatparvarlik va istiqlolchilik harakati sifatida maydonga kelishida manba bo‘lib xizmat qilgan omillar bilan uzviy bog‘liqlikda tadqiq etilgan.

Mas’ul muharrir:

Durbek SAYFULLAYEV
tarix fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

Xayrulla HAMIDOV
filologiya fanlari doktori, professor

Hulkar XAMRAYEVA
filologiya fanlari doktori, dotsent

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Kengashining 2024-yil 5-oktyabrdagi 2-sonli
qarori bilan nashrga tavsiya etilgan

ISBN 978-9910-9352-8-2

© R.X.Sharipov, 2024.
© “Legal Team” nashriyoti, 2024.

KIRISH

Jadid adabiyotining vujudga kelishi va shakllanishi bilan bog‘liq masalalarni o‘rganish o‘zbek adabiyotshunosligi oldida turgan vazifalardan biri ekan, jadid adiblarining adabiy-estetik qarashlari bilan bir qatorda ularning falsafiy, axloqiy, siyosiy va huquqiy qarashlariga ham nazar tashlash va bu murakkab ilmiy muammolarni adabiyotshunoslik fanining muhim masalalari bilan bog‘liq holda o‘rganish ham bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Zotan, jadid adiblaring adabiy-estetik ta’limoti ham, falsafiy-axloqiy, hatto siyosiy-huquqiy qarashlari ularning ayrim ma’rifiy risolalarida aks etganki, tahlil jarayonida faqat adabiy manbalarni saralab, bir necha fan ravnaqiga xizmat qilgan tadqiqot va risolalarini e’tibordan chetda qoldirib bo‘lmaydi.

Jadidchilik harakati va adabiyotining tug‘ilishi, shakllanishi tarixi, shuningdek, bu harakat va adabiyotning bugungi kun uchun ahamiyatli tomonlari o‘tgan asrning 80-yillari oxiridan izchil o‘rganila boshlandi. O‘zbekiston mustaqil davlat maqomiga erishgandan so‘ng bu jarayon yanada izchillashib, ilmiy xolis yondashuv shaklini oldi hamda jadidchilikni o‘rganish birgina adabiyotshunoslikning emas, balki boshqa ijtimoiy fanlarning muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. O.Sharafiddinov, N.Karimov, B.Nazarov, B.Qosimov, E.Karimov, H.Boltaboyev, B.Do‘stqorayev, Sh.Turdiyev, A.Aliyev, U.Dolimov, A.Jalolov, Sh.Rizaev, B.Karimov, D.Quronov, I.G‘aniyev kabi adabiyotshunoslarning, H.Ziyoyev, D.Alimova, D.Ziyoyeva, S.A’zamxo‘jayev, S.Xolboyev, Q.Rajabov kabi tarixchi olimlarning tadqiqot va risolalari maydonga keldi.

Bu kitob va risolalarning maydonga kelishi bilan jadidchilikning ummon singari keng va chuqur hodisa ekanligi yanada oydinlashdi. Masalaga yangicha tafakkur bilan qarash imkoniyati tug‘ildi. Jadidchilik ulkan ijtimoiy-siyosiy, adabiy-ilmiy, ma’rifiy-pedagogik global hodisa ekanligi oyday ravshan bo‘ldi. Shuning uchun ham

jadidchilik harakati va jadid adabiyoti muammolarini o‘rganishda adabiyotshunos, tarixchi, faylasuf, huquqshunos olimlardan iborat ilmiy jamoaning faoliyati keng qamrovli bo‘lishi lozim.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda jadidchilikka bag‘ishlangan bir qator ilmiy anjumanlar ham bo‘lib o‘tdi va bu anjumanlarning materiallari aksar hollarda to‘plam shaklida nashr etildi. 1999-yil 16-18-sentabr kunlari Toshkentda o‘tkazilgan «Markaziy Osiyo XX asr boshida: islohotlar, yangilanish, taraqqiyot va mustaqillik uchun kurash (jadidchilik, muxtoriyatchilik, istiqlolchilik)» mavzusidagi xalqaro ilmiy anjuman materiallarida ham ushbu ilmiy muammoning yechim yo‘llari, nafaqat o‘zbek adabiyotshunoslari, balki xorijiy tadqiqotchilar Adib Xolid (AQSh), Shantal Lemarse Kelkeje (Fransiya), Ingeborg Baldauf (Germaniya) tomonidan ham ta’kidlangan edi.

Jadidchilik tarixi va jadidlarning adabiy va ijtimoiy merosini o‘rganish jarayonida dunyoga kelgan B.Qosimovning «Milliy uyg‘onish: jasorat, ma’rifat, fidoyilik» (2002), N.Karimovning «Cho‘lpon» ma’rifiy romani (2004) hamda mualliflar jamoasi tomonidan yaratilgan «Milliy istiqlol davri o‘zbek adabiyoti» darsligini alohida qayd etish lozim.

O‘z navbatida mazkur monografiya jadid adabiyotining shakllanish manbalari, o‘tgan asr boshlarida yuz bergan muhim ijtimoiy-siyosiy voqealar va ularning jadid adabiyotidagi in’ikosi, jadid adabiyotida e’tiqod va ijod uyg‘unligi, yozuvchilarning oila madaniyatiga munosabati masalalari, shuningdek, ularning qalamiga mansub bo‘lgan bir qator siyosiy-huquqiy hujjatlar tadqiqiga bag‘ishlangan.

TURKISTON JADIDLARINING IJTIMOIY-SIYOSIY VOQELIKKA MUNOSABATI

Turkistonda jadidchilik harakatining vujudga kelishi uchun ma’lum bir ob’ektiv sharoit va sabablar mavjud edi. XIX asr o‘rtalari va XX asr boshlarida jamiyatda yangilanish zarurati tug‘ildi. Bir qator ijtimoiy, siyosiy, huquqiy va ma’naviy muammolar paydo bo‘ldi. Ularni hal etish uchun bel bog‘lagan bir guruh ziyolilar xalq orasida «jadidlar» nomini oldi. Ushbu so‘zning lug‘aviy va istilohiy ma’nolarini izohlagan prof. B.Qosimov shunday yozadi: «Jadid»ning ma’nosi yangi demakdir. U shunchaki yangi yo bo‘lmasa «yangilik tarafdori» degani emas. Balki «yangi tafakkur», «yangi inson», «yangi avlod» singari keng ma’nolarni o‘zida mujassam etgan»[1]. So‘zning ma’no qamrovidan ham seziladiki, jadidchilikka birgina Turkistonda kechgan ma’rifiy oqim yoki ijtimoiy-siyosiy harakat doirasida qarab bo‘lmaydi. Balki X1X asrning oxiri - XX asrning boshlarida umumjahon miqyosida kechgan siyosiy-iqtisodiy va madaniy-ma’naviy yangilanishlar bizning yurtimizda «jadidchilik» nomi bilan tarixga kirgan global bir hodisa bilan bog‘liqdir. Chunki 1868-yili Angliyada, 1871-yili Fransiyada, X1X asrning butun 70-80-yillari davomida Germaniyada kechgan yangilanishlar, islohot va qayta qurishga bo‘lgan intilish ham Turkiston jadidlarining yangilik sari qilgan harakatlariga sabab bo‘lgan bo‘lsa ajab emas. Agar birgina adabiyot sohasida ham olib qaraganda yuqoridagi sanalardan so‘ng milliy adabiyotlar «yangi fransuz adabiyoti», «yangi ingliz adabiyoti» singari istilohlar bilan ham atalgani sir emas. Hatto Rossiyada «yangi adabiyot» X1X asrning 90-yillaridan boshlanganini e’tirof etgan nazariy ishlar ham talaygina.

Kishilik jamiyatining ko‘p asrlik tarixida xilma-xil harakatlar, ta’limot va siyosiy oqimlar mavjud bo‘lgan. Bularning zamirida adolatli, fuqarolarning tengligi asosiga qurilgan, insonparvar jamiyatni

[1] Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. – Т.: Маънавият, 2002. – Б. 5.

yuzaga keltirish uchun, zulm va zo‘ravonlikdan, qullik va istibdoddan, tengsizlik va jaholatdan qutulish uchun tinimsiz izlanish istagi yotgan.

Bir tomondan, XVI-XIX asrlarda Turkistonda hukm surgan ijtimoiy tuzum – feodal davlatning inqirozga yuz tutishi, jamiyat taraqqiyotida turg‘unlik holatining yuzaga kelishi, ikkinchi tomondan, Turkistonning Chor qo‘shinlari tomonidan bosib olinishi va mustamlakaga aylantirilishi natijasida o‘lkada shunday bir mudhish sharoit vujudga kelgan ediki, muayyan ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va ma’rifiy zaminsiz xalqni uyg‘otuvchi, jamiyatni silkitib, larzaga keltiruvchi biron-bir harakatning paydo bo‘lishi mahol edi.

Shuning uchun ham Turkiston jadidchilik harakatining maydonga kelishini uning manbalarini aniqlamay va bu manbalarning Turkistondagi jadidchilik harakatining tug‘ilishi bilan bog‘liq bo‘lgan nuqtalarini belgilamay turib o‘rganib bo‘lmaydi. Agar jadidchilik harakatining yuzaga kelishi uchun Turkistonning o‘zida zarur ijtimoiy va madaniy zamin (ichki sharoit) bo‘lmaganida o‘zbek jadidchilik harakatining paydo bo‘lish va shakllanish jarayoni bu qadar intensiv tus olmagan bo‘lardi. Bunday zamin esa, birinchi navbatda, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho‘lpon singari shoir va yozuvchilarning ijodiy faoliyatlari bilan bog‘liq.

Turkistondagi og‘ir ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sharoit taqozosi bilan XIX asrning oxiri – XX asrning boshlarida o‘lkada jadidchilik harakati vujudga keldi.Turkistondagi jadidchilik harakati tarixini quyidagi davrlardan iborat bo‘lgan, deb aytish mumkin:

a) XIX asrning 90-yillaridan 1905-yilgacha bo‘lgan davr – o‘zbek jadidchilik harakatining tug‘ilishi;

b) 1906-yildan 1917-yilgacha bo‘lgan davr – jadidchilik harakatining shakllanishi va taraqqiyoti;

v) 1918-yildan 1930-yilgacha, ya’ni Turkiston Muxtoriyat hukumatining tugatilishidan «Milliy ittihod» tashkiloti a’zolarining

mahv etilishigacha bo‘lgan davr – jadidchilik harakatining bolsheviklar tomonidan nazorat qilinishi va tugatilishi.

Jadidchilik harakatining vujudga kelishi, taraqqiyoti va tanazzuli sabablarini jiddiy kuzatgan olimlarning deyarli hammasi tomonidan bu tartibdagi davrlashtirish qabul qilingan. Shu bilan birga, Turkiston jadidchilik harakatining tug‘ilishini Rossiya istilosi davridan emas, balki XX asr boshlaridan deb belgilagan olimlar ham yo‘q emas. Davrlashtirish talqinidagi bunday turlifikrlilikdan qat’iy nazar Markaziy Osiyoda kechgan ulkan global hodisa jadidchilikning xalqimiz tarixi oldida bajargan tarixiy vazifasini tan olmaslik mumkin emas.

Turkistonda jadidchilik harakatining yuzaga kelishiga xizmat qilgan yana bir qator omillarni yoddan chiqarmaslik lozim. Bir tomondan, o‘zbek jadidchilik harakatiga oziq bergan kuchlar millatning o‘tmishida yashab o‘tgan buyuk alloma va mutafakkirlar bo‘lib, ularning ma’naviy-ilmiy merosini o‘rganish orqali xalqimiz qanchalik yuksaklikka erishgan ekan, jadidlar ham o‘tmish ma’naviyatini bilish va uning ayrim muammoli o‘rinlarini isloh qilish yo‘lidan borganlari ma’lum haqiqat. Isloh qilish uchun esa har bir ma’naviy merosning o‘z davri va shu kundagi ahamiyatini belgilash, uning kelajakka dahldorlik darajasini aniqlash hamda ularni xalqning milliy yuksalishi uchun o‘ziga xos shakllarda yetkazib berish zarur edi. Bu haqda taniqli fitratshunos olim yozadi: «Turkiston tarixiga olamshumul o‘zgarishlarning muallifi sifatida kirgan jadidchilik nafaqat Markaziy Osiyoda, balki Yevroosiyoda ham ahamiyatli iz qoldirgani uchun u jahon afkori ilmiyasi tomonidan e’tibor bilan o‘rganilmoqda... Jadidchilik o‘z xalqini ozod va yurtini obod ko‘rish shiorini o‘rtaga qo‘yish barobarida uning oliy pirovard niyati xalqning o‘z shonli tarixi, madaniyati bilan jahon afkori umumiyasiga tanitishni istadi. Shuning uchun ham jahonni titratgan Temur qilichining zarblari va jahon adabiyotida yangi sahifa yaratgan Navoiy qalami jadidchilar uchun zamon timsoliga aylandi. O‘tmishni ideallashtirish orqasida

yangi va yuksak jamiyat yaratib bo‘lmasligini yaxshi anglagan jadidchilar o‘tmish merosini o‘zlashtirish barobarida jahonning eng taraqqiy etgan millatlari sifatida o‘zini ko‘rishni istadi. Biroq bu ildizlardan yaralgan daraxt quyoshga bo‘y cho‘zib, Iymon, Milliy shuur va Istiqlol kurtaklarini chiqargunga qadar mashaqqatli yo‘lni bosib o‘tdi va ko‘p qurbonlar berdi...»

Jadidchilik harakati Turkistonga Rusiya istilosi tufayli kirib kelgan temir yo‘l, matbaa va matbuot imkoniyatlaridan ham foydalanishga harakat qildi. Garchi rus oxrankasi jiddiy qarshilik ko‘rsatganiga qaramay, «Туркистанские ведомости»ning turkcha (N.Ostroumov ta’biricha, «sartcha») ilovasi bo‘lgan «Turkiston viloyatining gazeti»da Furqat, Sattorxon kabi o‘zbek shoir va ziyolilarining maqolalari ham e’lon qilinib turdi.

Sattorxonning bir qator asarlarida sud va davlat tuzilishi, poraxo‘rlik, mahalliychilik, ichki nizolarni yo‘qotish kabi xilma-xil masalalar yuzasidan bildirgan fikrlari hanuzga qadar o‘z qimmatini yo‘qotmagan. Sattorxon rus fani va madaniyatining dastlabki targ‘ibotchilaridan biri sifatida maydonga chiqdi. U «Turkiston viloyatining gazeti»da e’lon qilgan maqolalarining birida (1890-yil 14-may sonida) bunday deb yozgan edi: «Biz rus xalqi yordamida Ovro‘pa xalqlari bilan aloqa o‘rnatishimiz mumkin, buning natijasida biz umumbashariy hayot va ilmiy taraqqiyotning ishtirokchilariga aylanamiz».

«Turkiston viloyatining gazeti»ga o‘ttiz besh yil davomida muharrirlik qilgan N.Ostroumov o‘z navbatida Rossiya va Yevropa madaniyati hamda hayot tarzini targ‘ib qilishga katta e’tibor qaratdi. Uning gazetasida Rossiya va Yevropaga sayohat qilgan bir qator o‘zbek tujjorlari va ziyolilarining sayohatnomalari muntazam ravishda e’lon qilindi. Masalan, 1887-yilda Xarkovda bo‘lib o‘tgan qishloq xo‘jaligi ko‘rgazmasida ishtirok etgan samarqandlik savdogar Mirza Buxarinning Boku, Xarkov, Moskva va Peterburg taassurotlari (1888, 4-7 sonlar), toshkentlik savdogar Tojimuhammad Isamuha-

medovning 1900-yilda Boku-Istanbul yo‘li orqali Parijga qilgan sayohati (1900, 44-45 sonlar), gazeta muharrirlaridan Sattorxon Abdug‘afforov (1893), shoir Zokirjon Furqat (1891, 22-28, 32-sonlar), Xudoyorxonning kichik o‘g‘li Ibn Yaminbek (1893, 20-son), toshkentlik savdogar Orifxo‘janing (1894, 28-son) sayohatnoma va xotiralari gazeta sahifalarida e’lon qilindi.[2]

1906-yil 27-iyunda Turkistonda birinchi jadid matbuotining qaldirg‘ochi bo‘lgan «Taraqqiy» (Ismoil Obidiy muharirligida) gazetasi, 6-sentyabrdan esa Munavvar qori Abdurashidxonov boshchiligidagi bir guruh jadidlar «Xurshid» gazetasini chiqara boshlaydilar. Gazetaning 10-soni dunyo yuzini ko‘rganidan keyin u hukumat tarafidan yopildi. 1907-yildan Abdulla Avloniyning «Shuhrat» gazetasi chiqa boshladi. 1912-yildan Buxoroda «Buxoroi sharif» nashr qilina boshladi. Fors tilida chiqa boshlagan bu gazetaning Markaziy Osiyoning tubjoy aholisi bo‘lgan turklar tilida emas, Navoiy sart tili deb atagan forsiyda chiqishi nafaqat turkiston-liklarni, balki xorijdagi ayrim turkshunoslarni o‘ylatib qo‘ydi. «Turk yurdi» jaridasi bu holdan ajablanib maxsus maqola bag‘ishlagani yapon olimi professor Xisao Ko‘matsuning tadqiqotlaridan ma’lum. Ehtimol, ushbu tanqidlar sabab bo‘lib gazetaga o‘zbek tilida xaftalik «Turon» ilovasining nashr etilishi yo‘lga qo‘yildi.

1913-yilning aprel oyida chiqa boshlagan «Samarqand» gazetasiga mufti Mahmudxo‘ja Behbudiy mas’ul muharrir etib tayinlanadi. O‘zbek, fors va rus tillaridagi maqolalar e’lon qilingan bu gazeta sahifalarida Mirzohid Miroqilov, Akobir Mansur, Hoji Muin kabi jadid ziyolilarning asarlari ham o‘rin egallagan edi. Olti yuzga yaqin nusxada tarqalgan bu gazetaning 45-soni chiqqanidan keyin mablag‘ tanqisligi sababli yopiladi. 1913-yil 20-avgustdan e’tiboran esa Behbudiy o‘zining «Oyina» jurnalini chiqara boshlaydi. Uning sahifalarida Munavvar qori, Mahmud Sattor, Akobir Mansurlarning bir qator maqolalari o‘rin egallagan bo‘lib, jurnal «Millat, islomiyai

[2] Togan Zeki Velidi. Bugünkü Türkeli (Türküstan) ve yakın tarixi. – Istanbul, 1981 (2-baski). - S.502.

saodat» shiorini ko‘targan edi. Ammo, «Oyina» jurnali ham 136 soni e’lon qilinganidan keyin 1915-yil 15-iyunda yopiladi.

1914-yildan nashr etila boshlagan «Sadoi Turkiston» jadidchilik tarixida chuqur iz qoldirgan nashrlardan biri edi. Uning bosh muharriri Ubaylullaxo‘ja Asatillaxo‘jaev bo‘lib, gazeta ishlariga Munavvar qori va Abduraufzodalar yaqindan yordam berishgan. «Sadoi Turkiston» bilan deyarli ketma-ket nashrga chiqqan «Sadoi Farg‘ona» gazetasining ishiga Obidjon Mahmudiy muharrirlik qilgan. Prof. B.Qosimov 1917-yil fevral voqealaridan so‘ng nashrdan chiqqan gazetalar haqida fikr bildirib, chunonchi shunday yozadi: 1917-yilning fevralidan keyin «Najot» (Munavvar qori), «Sho‘roi islom» (A.Battol), «Turon» (Avloniy), «Hurriyat» (Fitrat), «Kengash» (Zaki Validiy), «El bayrog‘i» (B.Soliev, A.Zohiriy), «Ulug‘ Turkiston» (K.Bakir) kabi ko‘plab gazetalar chiqdi»[3]. Bular orasida Samarqandda nashr etilgan «Hurriyat» gazetasi sahifalarida yuzlab, minglab maqola va xabarlar, she’r va hikoyalar chop etildiki, bu hol jadid adabiyotining taraqqiyotiga xizmat qilgan asosiy omillardan biri jadid matbuoti degan da’voni tasdiqlaydi. Turkiston jadid matbuoti tarixi haqida ham maqola va tadqiqotlar paydo bo‘ldi. Dastlab Cho‘lpon «Turkistonda matbuot» maqolasi bilan chiqdi[4]. So‘ngra Abdulla Avloniy 1905-1917-yillarda chop qilingan nashrlarni umumlashtirib, «Burungi o‘zbek vaqtli matbuotining tarixi» maqolasini yozdi[5]. Oradan o‘n yil o‘tgandan keyin Ziyo Saidning «O‘zbek vaqtli matbuoti tarixiga materiallar (1870-1927)» nomli mashhur kitobi nashrdan chiqdi[6]. Jadid matbuoti tarixiga nazar tashlaganda, shunga amin bo‘lamizki, haqiqatan ham jadidchilar tomonidan amalga oshirilgan nashrlar millatning uyg‘onishiga sabab bo‘ldi. Ikkinchidan, deyarli barcha jadidchilik harakatining rahbarlari matbuotchilik ishiga

[3] Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. –Т.: Маънавият, 2002. – Б. 63.
[4] Чўлпон. Туркистонда матбуот (нашрга тайёрловчи Т.Тоғаев). // Жамият ва бошқарув. -1998. -2-сон.
[5] Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. –Т.: Маънавият, 2002. – Б. 58.
[6] Саид Зиё. Танланган асарлар. –Т.: 1974. –Б. 13-116.

faol qatnashib, o‘zlarining maqola va badiiy asarlarining ommaga yetib borishi uchun qulay bo‘lgan usul va yo‘l topdi.

1920-yilda Bokuda nashr etilgan «Fuqaro fuyuzato» jurnalida e’lon qilingan yuqorida tilga olingan «Turkistonda matbuot» nomli maqolasida Cho‘lpon mahalliy matbuot faoliyati, uning xalq hayoti va siyosiy voqelikda tutgan o‘rniga shunday baho bergan edi: «Eski vaqtlarda: «Matbuot yettinchi davlatdir», derlar edi. Bu so‘z, bu da’vo endi-da ahamiyatini yitirmabdir. Bu kunda-da matbuotning ahamiyati buyukdir. Xususan, Sharq xalqi bu kun matbuotning ahamiyatini tushunmishdir. Buyuk inqilob olamining ketishidan bexabar yotgan sharqliklarni uyg‘otmish, qonsiz tomirlariga qon, «yashamak uchun muboraza edajak» muqaddas qon savk etmishdir. Qamoqda matbuotni ajnabiylarga - xorijliklarga maxsus bir «shay» bilan sharqlilar bukun uni izlar, topar, uning ustida mulohaza yuritarlar. Olamning tugul, hatto shaharning hayotiga-da ko‘zining ichi bilan boqqan ko‘yli, kandli bu kun ko‘yning tashqarisida, yiroqlarda tantanali, muborazali va o‘ziga ham taalluqli bo‘lgan hayotni bilmoq va o‘rganmoq istab ta’qib etadilar».

Cho‘lponning mazkur maqolasi bilan bir qatorda «Sharq isyoni» she’rining ham Ozarbayjon matbuotida e’lon qilinishi 1920-yilning sentyabr oyi boshlarida Bokuda bo‘lib o‘tgan Sharq xalqlarining tarixiy qurultoyi bilan bog‘liqdir. Ma’lumki, Cho‘lpon ham bu qurultoyda Turkistondan borgan bir guruh vakillar qatorida qatnashgan edi. Cho‘lponning «Turkistonda matbuot» maqolasi esa, yozilish sanasiga ko‘ra, bu mavzudagi dastlabki ish bo‘lishi bilan birga, o‘zbek vaqtli matbuoti tarixida nashr etilgan gazeta va jurnallarning o‘z davrida millatimizga qay darajada xizmat qilganini Sovet hokimiyati sharoitida haqqoniy va xolisona baholagan ish sifatida ham qimmatlidir.

Toshkent va Buxoroda bu vaqtga kelib musulmon matbaa (bosmaxona)lari ham faoliyat ko‘rsata boshlaydi. Toshkentlik boylardan Fulom Hasan Orifjonov matbaasida bir qator fors va o‘zbek

tillaridagi asarlar litografiya usulida chop etila boshlandi. Toshkentdagi Borzov va Buxorodagi Livnin matbaalari tarix va adabiyotga oid bir qator asarlarni, jumladan, Alisher Navoiyning «Xamsa» asarini, Ahmad Yassaviyning «Devon»ini, «Abo Muslim rivoyatlari», «Temurnoma», «Shohnoma» kabi asarlarni chop etdi. Toshkentda yangi asarlarni nashr etish maqsadida «Turkiston» nomli nashriyot shirkati ham tashkil etildi.

Turkiston jadidchilik harakatining madaniy-adabiy sohada qo‘lga kiritgan eng katta natijalaridan biri milliy dramaturgiyaning shakllanishi edi. Jadid dramaturglari, birinchidan, o‘z oldilariga millatni ma’rifatga, ilmga yetaklash va buning barobarida jaholatga qarshi kurash vazifasini o‘z oldilariga qo‘ydilar. Buning uchun o‘z asarlarida ma’rifatparvarlik g‘oyalarini ilgari surdilar.

O‘zbek milliy dramaturgiyasi hamda milliy teatri Mahmudxo‘ja Behbudiyning «Padarkush yoxud o‘qimagan bolaning holi» nomli dramasi bilan boshlanadi. Drama birinchi marta 1914-yil 15-yanvarda Samarqandda namoyish etilib, «Oyina» jurnalida bu haqda maqola e’lon qilinadi. 1914-yil 27-fevralda Abdulla Avloniy va Munavvar qori Abdurashidxonov boshchiligidagi «Turon» teatri guruhi Toshkent shahrining o‘sha vaqtlardagi eng katta teatr-konsert binosi o‘z ichiga ikki ming kishini sig‘dira oladigan «Kolizey»da spektaklni namoyish etadi. Bu esa madaniyatimiz tarixida ulkan voqea bo‘lib, zamonaviy milliy teatrning tug‘ilishidan darak beradi. Ushbu qutlug‘ kunda o‘zbek milliy teatri sahnasini ochishdek vazifa Munavvar qori Abdurashidxonov zimmasiga tushdi. Asarga nisbatan salbiy fikrlar, havaskorlarga jismoniy tahdidlar, keskin munozaralar davom etib turgan bir paytda Munavvar qori ikki ming kishilik zalda teatr san’atining ma’naviyatimiz taraqqiyotida tutgan o‘rni haqida ma’ruza qildi.

Har qanday yangilik xalq hayotiga osonlikcha singib ketmaganidek, teatr ham Turkiston hududlarida katta qarshilik va to‘siqlarga, hatto hujumlarga duch keldi. Adabiyotshunos olim

Shuhrat Rizaev o‘zining «Jadid dramasi»[7] kitobida bu haqda to‘xtaladi. Olimning fikricha, bunday to‘siqlarning eng kattasi mustamlakachi ma’murlar bo‘lib, dramatik asar bosmadan chiqib, to sahna yuzini ko‘rgunga qadar senzuraning ming chig‘irig‘idan o‘tishi kerak edi. Bu jarayonda har bir so‘z va jumlaga alohida e’tibor berilar, nogahon odamlarning ongini uyg‘otib yuborishi yoki ularni harakatga undovchi o‘rinlar esa asardan olib tashlanardi.

Ma’lumki, Turkistonning hamma yirik shaharlarida drama to‘garagi qatnashchilari ijrosida kichik-kichik sahna asarlari o‘ynalgan va bu spektakllar o‘z davrining madaniy hayotiga ham ta’sir o‘tkazgan. To‘dalar qoshidagi orkestrlar esa turli siyosiy va madaniy tadbirlarning yuqori saviyada o‘tishiga xizmat qilgan. Sobiq turk zobiti xotiralarida Hamzaning teatrchilik faoliyati bilan bog‘liq maroqli faktlar ham uchraydi: «Farg‘ona vodiysida Musajon va Hamza Hakimzoda Niyoziy tomonidan tashkil etilgan musiqali teatr truppasi bizning «Turk kuchi» to‘dasi bilan birlashish istagini bildirdi. Biz ham bunga rozi bo‘ldik. Bu vaqtda truppa Toshkentga kelib, yozuvchi Hamza Hakimzodaning «Loshmon fojeasi» nomli pesasini qo‘yayotgan edi. Unda chor Rossiyasining Birinchi jahon urushi davrida turkistonliklarga o‘tkazgan zulmi haqida hikoya qilinardi. Ruslar qozoq, qirg‘iz, o‘zbek va turkmanlarni front orqasida xizmat qilish uchun majburiy ravishda mardikorlikka olish ishlarini boshlab yuboradilar. Yerli aholi bunga qarshi chiqqach, askarlar qurol ishlatadilar. Natijada, 1916-yili Turkistonda umumxalq qo‘zg‘oloni boshlanadi. Asarda ana shu qonli voqealar haqida hikoya qilingan edi.

Hamza Hakimzoda rahbarlik qilgan ushbu sayyor truppadagi erkak san’atkorlarning aksariyati o‘zbeklar edi. Ular orasida birgina tatar ayoli bor edi. Bizning to‘damiz bilan birlashganidan keyin truppaga Fotima tutash degan yana bir tatar qizi kelib qo‘shildi. «Tutash» so‘zi tatarchada «erga tegmagan qiz, bokira» degan ma’noni bildiradi. O‘zbeklar u vaqtlarda qizlarining teatrga kirib ishlashlariga

[7] Ризаев Ш. Жадид драмаси. - Т.: Шарқ, 1997.

ruxsat bermas edilar. Shuning uchun ham teatrning ayol san'atkorlarga bo‘lgan ehtiyoji tatar, arman va yahudiy xonimlarni sahnaga jalb etish yo‘li bilan qondirilar edi… Guruhlarimizning birlashishi tantanali bir marosimda amalga oshirildi. Hamzaning teatr truppasi musiqa sadolari ostida Toshkentning Yangi shahar qismidan, bizning «Turon kuchi» guruhimiz esa maxsus tikilgan liboslarda va orkestr sadolari ostida Eski shahardan yo‘lga chiqdik. Bir ozdan keyin guruhlar O‘rda og‘zi degan yerda uchrashib, birgalikda «Turon» maktabiga tomon yo‘l oldilar. Teatrlashtirilgan yurish davomida har ikkala guruh musiqachilari «Eski do‘st» (aslida olmonlarning «Alte Kamarat») nomli marshini chalib bordilar. «Turon» maktabi hovlisida Muhiddin qori (so‘z qori Yoqubov haqida bormoqda – R.Sh.) tomonidan mavlud o‘qildi va dasturxonlarga osh tortildi.

Yozuvchi Hamza Hakimzodaga maktabdagi bo‘sh xonalardan biri ajratib berildi. U har safar Toshkentga kelganida shu yerda istiqomat qiladigan bo‘ldi. Birlashgan teatr truppasiga ham Hamzaning o‘zi rahbarlik qila boshladi»[8].

Behbudiy, Hamza, Hoji Muyin, G‘ozi Yunus, G‘ulom Zafariy kabi jadid dramaturglarining Turkiston madaniy turmushi uchun nihoyatda zarur bo‘lgan bu soha rivoji uchun qilgan mehnatlarini e'tirof etish bilan birga Fitrat dramaturgiyasining o‘zbek dramasining shakllanishidagi o‘rnini qayd etmaslik mumkin emas[9]. Bu haqda fitratshunos olim H.Boltaboev shunday yozadi: «Fitratning dramatik asarlari, asosan, 1918-26-yillarda yozilgan bo‘lsa ham olis Hind o‘lkasi voqealariga («Hind ixtilolchilari», «Chin sevish») asoslanadimi, Buxoro tarixining qorong‘u qatlamlaridan bahs yuritadimi («Abulfayzxon», «Arslon»), turli rishtalar bilan o‘lka tarixiga bog‘lanadimi («Temur sag‘anasi», «Qon») yurt kelajagiga dildan qayg‘uruvchi vatanparast shoirning iste'dodi ko‘lamidan dalolat beradi... Fitrat dramaturgiyasi faqat mazmun va shakl

[8] Рожи Чакирўз. Юрагимга яқин гушалар (туркчадан Р.Шарипов таржимаси). // Жаҳон адабиёти. – 1997. 5-сон. - Б. 197-198.

[9] Бу ҳақда қаранг: Ғаниев И. Фитратнинг трагедия яратиш маҳорати. – Т., 1994; ўша муаллиф. Фитрат: эътиқод, ижод. – Т., 1994.

jihatdangina emas, janrlar nuqtai nazaridan ham rango rangdir. Unda tarixiy fojea, drama («teatru» deb nomlangan) hatto zamonaviy operalar librettosini uchratish mumkin»[10].

Jadid dramasi va teatri millatning uyg‘onishiga sabab bo‘lib, butun Markaziy Osiyo bo‘ylab keng tarqalgan bo‘lsa, badiiy adabiyotning boshqa tur va janrlari ham borki, jadid shoir va yozuvchilari ularning taraqqiyotiga ham mislsiz xizmat qilganlar. Ma’lumki, sharqda mumtoz nasr o‘z an’analari bilan yashagan, og‘zaki adabiyotdagi qissaxonlik tajribasi, kitobiy (Qur’oniy syujetdagi) nasriy dostonlar, hikoyatlar va jangnoma tipidagi nasriy asarlar, yuksak axloqiy ruhdagi qissalar va memuar tipidagi «noma»lar XX asr boshlarigacha o‘zbek mumtoz nasrining ifoda shakli va vositalari sifatida yashab kelgan. Biroq har sohada yangilanish tarafdori bo‘lgan jadidlar uchun bu kabi janr va vositalar kamlik qilardi. Shuning uchun ham Cho‘lpon «Ulug‘ hindi» nomli mashhur maqolasida «ko‘ngil yangilik oxtaradir» deb yozganida, birinchi navbatda, Rabindranat Tagor, Jo‘rji Zaydon singari buyuk sharq romannavislarining ijodini havas qilgan edi. Bu Yevropa andozalariga mos keladigan, voqealar tartibi realistik asosga qurilgan zamonaviy nasr edi. Bunday yangi nasr yaratishga urinish Qodiriyning dastlabki hikoyalarida («Uloqda»), Cho‘lponning «Doktor Muhammadiyor», «Qurboni jaholot» singari asarlarida Hamzaning «roman» unvoni bilan tavsiya qilgan «Yangi saodat yoki milliy roman», «Haqiqat kimda?» kabi hikoyalarida kurtak yoza boshlagan edi. Cho‘lponning «Doktor Muhammadiyor» hikoyasida bu jihatdan xarakterli bir lavha uchraydi. Hikoya qahramoni Muhammadiyor ilm toliblari haqida «Umrlik shogirdlar» degan roman yozadi: «Ro‘mon o‘n ikki juz bo‘lib, Turkistonda hanuz shundog‘ milliy maishatdan oling‘an ro‘mon chiqmag‘an edi». Mana bu so‘zlarda Cho‘lponning yangi milliy roman orzusini uqish mumkin.

[10] Болтабоев Ҳ. Абдурауф Фитрат. Олий ва махсус ўқув юртлари учун қўлланма. – Т., 1992. - Б. 30, 34.

Abdulla Qodiriy zakosi bilan o‘zbek romanini dastlabki asari bilan maktab yaratishlik darajasiga olib chiqqan «O‘tgan kunlar» mutaxassislarning aniqlashicha, jadid adabiyoti rivojlanish davriga kirgan 10-yillarning so‘nggida yozilgan edi. Uning dastlabki jurnal varianti 20-yillarning boshidayoq har bir o‘zbek xonadoniga kirib keldi va yangi tipdagi realistik roman qanday bo‘lishini Yevropa romannavislariga ham anglatib ulgurdi.

Jadid shoirlarining she’riyatda yaratgan eng katta yangiligi vazn islohoti bo‘ldi. An’anaviy aruzning qoliplari keng ijtimoiy mazmunni aks ettirishga torlik qilib qoldi, qolaversa, aruzning murakkab sir-sinoatini bilishlik har kimga ham nasib qilavermagani uchun mazmunan sayoz, faqat vaznga tushgan so‘zlar yig‘indisini she’r deb tavsiya qilish odatdagi holga aylandi. Ushbu davr voqealarining shohidi bo‘lgan Laziz Azizzodaning ushbu so‘zlari masalani oydinlashtirishga yordam beradi: «Cho‘lpon til va uslubni (she’riyatda – R.Sh.) soddalashtirdi. Lekin aruz vaznining yiqilishida Fitratning xizmati jiddiy bo‘ldi. Mana shu adabiy inqilobning ilk davrida she’rda qofiyasizlik, vaznsizlik, bir qadar ozodlik vujudga kelish bilan bir vaqtda anarxistlik ham maydonga chiqa boshladi»[11]. Shunda yangi milliy fonetik zaminga asoslangan vaznni og‘zaki she’riyatdan yozma adabiyotga olib kirish ehtiyoji tug‘ildi. Shu vaqtda Fitrat: «Barmoq vaznida she’rni boshlab Cho‘lpon yozdimi?.. men yozdimmi, esimda yo‘q. Faqat shunisi aniqki, barmoq vaznini nazariy jihatdan yoqlab chiqqan birinchi o‘zbek millatchisi men edim»,[12] deb yozgani ma’lum. Ulkan olimning mana bu dalolati jadidlar nafaqat yangi vazn tarafdori bo‘lib chiqdilar yoki u vaznda birinchilardan bo‘lib she’rlar yozdilar, balki yangi milliy vazn bo‘lgan barmoq vaznini nazariy jihatdan asoslab bergan olimlar ham jadidlar orasidan yetishib chiqqan edilar.

Jadidchilik adabiy-badiiy yangiliklar, maorif tizimidagi islohotlar, matbuotning vujudga kelishi kabi madaniy hayotda bir qancha yangiliklar berish bilan birga jadidchilar ko‘proq mustamlakachilik

[11] Азиззода Л. Чўлпон ким эди? // Ёшлик. . – 1988. 10-сон. –Б.68-70.
[12] Фитрат. Аруз ҳақида. –Т.: Ўзбекистон Фанлар комитети нашриёти, 1936.

siyosatiga keskin zarba berish uchun kurashni o‘z zimmalariga olgan fidoyi vatanparvar edilar. Birgina 1916-yil voqealari jadidchilik harakatining yuksalishida juda katta tayyorgarlik nuqtasi bo‘lganini unutmaylik. Shu yilning fevral oyida Turkistondagi rus axborot vositalari, jumladan, «Туркестанские ведомости» nashri O‘rta Osiyo hududlarida safarbarlik e’lon qilish haqidagi chor hukumatining qarori borligini bildiradi. Haqiqatan ham, 1916-yil 25-iyunda Nikolay Ikkinchi Jahon urushi frontlari ortida xizmat qilish uchun Turkistondan 250 ming kishi jalb qilinishi haqidagi farmonga imzo chekadi. «Туркестанские ведомости»da bildirilgan xabardan keyin, 1916-yilning may oyida bir guruh jadid ziyolilari Mahmudxo‘ja Behbudiyning Samarqanddagi uyida yashirincha to‘planadilar. Ular ichida Munavvar qori, Pahlavon Niyoz, Usmon Xo‘ja, Komil qori va Obidjon Mahmud kabi siymolar bor edi. Yig‘ilishdan asosiy maqsad Turkistonda safarbarlik e’lon qilinganidan keyin xalqni isyonga da’vat etish va shu yo‘l bilan Turkiston istiqlolini qo‘lga kiritish edi. Buning uchun qozoqlarning «Alash O‘rda» firqasi bilan hamjihatlikda faoliyat olib borishga qaror qilinadi.

Mashhur sharqshunos olim Zaki Validiy To‘g‘on o‘zining «Bugungi Turk eli (Turkiston) va yaqin tarixi» kitobida 1917-yil aprel oyida Toshkentda bo‘lib o‘tgan «Turkiston musulmonlarining birinchi kongressi» haqida shunday ma’lumot beradi: «Kongressda ziyolilarning bir qismi (bilxossa Cho‘qaev va Shahiahmedov), Qozondan kelgan vakillar (Orenburgda chiqayotgan «Vaqt» gazetasi muharriri Kabir Bakir va hukumat a’zosi sifatida Toshkentga kelgan Sadri Maqsudiylar)ning ta’siri ostida Turkistonning boshqaruv usuli masalasida federatsion qurilish fikriga muxolif bo‘ldilar. Munavvar qori va uning ayrim do‘stlari ham taraddudda qoldilar. Faqat Mahmudxo‘ja Behbudiy bilan men avtonomiya va federatsiya fikrini yoqlab, oxirigacha bu ishonchimizda mustaqil qoldik. Shuni ham ta’kidlab o‘tmoqchimanki, anjumandagi eng go‘zal nutq

Mahmudxo‘ja Behbudiyning ma’ruzasi bo‘ldi (turkchadan tarjima – R.Sh.)».[13]

XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasining turli burchaklarida ochilayotgan va faoliyat ko‘rsatayotgan «usuli savtiya tadrijiya» («usuli jadid») maktablari uchun mablag‘ ishlab, «Jamiyati xayriya» yoki «Vaqflar» orqali shu maktab va maorif maskanlari uchun darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari yaratish, maktablarni o‘quv jihozlari bilan ta’minlash, iqtidorli yoshlarni taraqqiy etgan mamlakatlarga (ko‘proq Turkiya, Olmoniya va Markaziy Rossiyaga) o‘qishga yuborish vazifasini qo‘ydilar. «Sadoi Turkiston», «Sadoi Farg‘ona» gazetalari hamda «Oyina» jurnallaridagi ushbu masalaga bag‘ishlangan maqolalarni ko‘zdan kechirar ekanmiz, teatr tomoshalaridan tushgan mablag‘ning qanday maqsadlarga sarf etilgani haqida to‘liq ma’lumotga ega bo‘lamiz. «Oyina» jurnalining 21-sonida samarqandlik teatr havaskorlarining Qo‘qon shahrida «usuli jadid» maktabi foydasiga «Padarkush» dramasini namoyish etgani haqida ma’lumot beriladi va teatr mudiri Akobir Mansuriyning ushbu namoyishdan tushgan mablag‘ haqidagi hisoboti bosiladi. Ma’lum bo‘lishicha, tomoshadan jam’i 1331 so‘m 50 tiyin tushgan bo‘lib, shundan 727 so‘m 10 tiyin turli xil xarajatlarga (ro‘yxati jurnalda ilova qilingan) sarflanadi. 604 so‘m 40 tiyin esa «usuli jadid» maktabi foydasiga o‘tkaziladi.

Ikkinchidan, «qadimchi» va «jadidlar» o‘rtasidagi nizo teatr munosabati bilan yanada keskin tus oldi. O‘z davrining ko‘zga ko‘ringan ziyolilaridan biri, chuqur zamonaviy va diniy bilimga ega bo‘lgan ulug‘ zot Saidahmad Vasliy bilan Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘rtasida bo‘lib o‘tgan katta munozarani misol tariqasida keltirish mumkin. Ma’lumki, Vasliyni «qadimchi» yoki «mutaassib ulamo», deyish qiyin. Chunki o‘tgan asr boshlarida hech bir zot madrasalar, maktablar islohoti haqida uningchalik ilg‘or fikrlarni aytgan emas edi. Hamza Saidahmad Vasliyni «Taraqqiyot gulshanida millat andalibi»,

[13] Togan Zeki Velidi. Bugünkü Türkeli (Türküstan) ve yakın tarixi. – Istanbul, 1981 (2-baski). - S.357.

deb bejiz atamagan. Darhaqiqat, XX asr boshlarida Turkistonda ijtimoiy-siyosiy, falsafiy fikr taraqqiyotida Vasliyning alohida o‘rni bor. Saidahmad Vasliyning «Sadoi Farg‘ona» gazetasida e’lon qilingan «Shariati islomiya» maqolasiga nisbatan ilmiy asosli fikrni faqat Mahmudxo‘ja Behbudiygina aytishi mumkin edi. O‘rni kelganida Behbudiyning o‘z millatining rivoji yo‘lida amalga oshirgan boshqa ijtimoiy-siyosiy ishlarini ham eslab o‘tish joizdir.

XIX asr oxirlari - XX asr boshlarida Turkistondagi boshqaruvchi kuch chor Rossiyasi chinovniklari va ular boshida turgan general-gubernator bo‘lib, mavjud xonliklar ularga tobe edi. Mahalliy ziyolilardan tarkib topgan bir guruh jadidlar Turkiston maorif tizimida islohotlar o‘tkazish, amirlik va xonlik tuzumi o‘rniga milliy xalq jumhuriyatlarini barpo etish g‘oyasi yo‘lida faoliyat ko‘rsatmoqda edilar. Qadimchilar esa mavjud tuzumni saqlab qolish tarafdori bo‘lishiga qaramay, ularning harakati ommaviy tus olmaydi, aksincha, saroy a’yonlari va yaqinlari doirasida qolib ketadi. Buxoro amiri va Xiva xoni jadidlarga qarshi ochiq kurash e’lon qilib, ular faoliyatiga barham berish yo‘lida zobitlardan yordam so‘rashdan ham toymasdilar.

1898-yilda Qo‘qonda Salohiddin Majidiy, Samarqandda Mahmudxo‘ja Behbudiy, 1904-yilda esa Toshkentda Munavvar qori Abdurashidxonovlar tomonidan yangi «usuli jadid» maktablari tashkil etiladi. 1900-yilda Buxoroda Mulla Jo‘raboy asos solgan maktabning ochilishi uchun amir Abdulahadxon dastlab ruxsat bergan bo‘lsa-da, lekin oradan uch oy o‘tgandan so‘ng uning faoliyati to‘xtatiladi, muallimlari esa quvg‘inga uchraydilar. 1908-yili Buxoroda Mirza Abduvohid tomonidan «Ta’lim o‘chog‘i» nomli yana bir maktab ochiladi. Unga ham dastlab ruxsat berilgan bo‘lsa-da, bir oy o‘tar-o‘tmas ta’qiqlanib, o‘qituvchilari qamoqqa olinadi. O‘qituvchilar-ning qutulishga muvaffaq bo‘lgan bir qismigina Toshkent va Samarqandga qochib, jon saqlab qoladi. Buxoro amiri Olimxon Qrim va Turkiyadan keladigan davriy nashr va adabiyotlarni man’ etadi,

jadidchilik g‘oyalarini ilgari surgan mahalliy matbuot faoliyatini ta’qiqlaydi.

Darhaqiqat, Ismoilbek Gasprali va uning hayotbaxsh g‘oyalari mustamlaka mafkurasi yo‘lidagi g‘ov edi. U masalaning jiddiy va ko‘p qirrali ekanligini e’tirof etgan holda, «turkiy qavmlar, umuman, musulmonlar birlashib, katta kuchga aylanishgandagina Rossiya imperiyasidek qudratli va makkor saltanat changalidan qutulish mumkinligi, buning uchun asriy jaholatdan, feodal qoloqlikdan qutulib, dunyoviy ilmlarni, zamonaviy fan va texnikani egallab, taraqqiy topgan millatlar darajasiga ko‘tarilish lozimligi g‘oyasini ilgari surdi. Shu bois harakatni, eng avvalo, kishilar dunyoqarashini, saviyasini shakllantiradigan ta’lim-tarbiya tizimini isloh etishdan boshlash kerak, degan qat’iy qarorga keldi. Natijada, musulmon olamida yangi bo‘lgan «usuli savtiya tadrijiya»ni joriy etishga kirishdi va kutilgan natijalarga erishdi. Bu usulni u Kavkazdagina emas, Turkistonda, Volga bo‘yida ham joriy etishni tashviq qildi. Mazkur o‘lkalarda uning tarafdorlari, izdoshlari paydo bo‘ldi. Turkistonda Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdulqodir Shakuriy, Abdulla Avloniy va boshqalar uning hammaslaklari edilar…

XX asrning 10-yillariga kelib, Turkiston jadidchilik harakati har tomonlama shakllandi. «Usuli savtiya» maktablari qanot yozib, jadid matbuoti, adabiyoti va teatri maydonga keldi. Ammo bu hali jadidchilikning barcha jabha va mintaqalarda to‘la g‘alaba qozonganini anglatmasdi. Islom dinining Turkistondagi markazlaridan biri - Buxoroi sharifdagi vaziyat va jadidlarning bu yerdagi harakat doirasi nafaqat Buxoro amirligining, balki har qanday taraqqiyotga va yangilikka qarshi qaratilgan siyosati, shuningdek, din arboblarining qarshiligi tufayli ham murakkab bir holda edi.

XX asr boshlarida butun musulmon olami bo‘ylab esa boshlangan yangi shabadalar go‘yo Buxoroni chetlab o‘tgandek edi. Holbuki, bu vaqtda Hindiston (Kalkutta), Misr (Qohira), Ozarbayjon (Boku),

Gruziya (Tiflis), Tatariston (Qozon, Orenburg) va Boshqirdiston (Ufa)da nashr etilgan gazeta va jurnallar Turkiston yoshlarini junbushga keltiradi. Chunonchi, Hamza 1909-yilda otasini hajga jo‘natish munosabati bilan Namangonda bo‘lgani va Jome masjidi qoshidagi madrasada jadid gazetalarini katta bir havas bilan o‘qiganini aytgan.

Yangilanish harakati maorif sohasidagi islohotlar bilangina cheklanib qolmay, balki adabiyot, ilm-fan, matbuot va matbaachilikda ham bir qator yutuqlarni qo‘lga kiritdi. Bu yerda Mahmudxo‘ja Behbudiy, Cho‘lpon, Fitrat, Sadriddin Ayniy, Sayyid Ahmad Vasliy, Hoji Muin kabi shoir va yozuvchilarning hammaga ma’lum va mashhur asarlarini sanab o‘tishga hojat yo‘q.

O‘z vaqtida Qozonda tahsil olgan ziyolilar, shu jumladan, Ahmadjon Bektemirov, Shokir Muxtoriy, Shokir Sulaymon, Muxtor Bakir, Qori Abdurahmon Toji, Ismoil Obidov, Fozi Yunus ham Turkistonda katta ishlarni amalga oshirdilar. Shokir Sulaymonning to‘rt qismdan iborat bo‘lgan «Islom tarixi» va Muxtor Bakirning (u bir vaqtlar Xiva xoni Isfandiyorxon huzurida muallimlik qilgan) «Mufassal Turkiston jug‘rofiyasi» kitoblarini, Abdurahmon Toji (adabiy taxallusi «Tikan»)ning qator go‘zal she’rlarini eslab o‘tish kifoyadir.

Agar jadidchilik tarjimai holiga kengroq va chuqurroq nazar tashlaydigan bo‘lsak, jadidlar o‘z yurtlarini yangi ufqlar sari olib o‘tmoqchi yo‘lni ayni o‘sha davrda ro‘y bergan dunyo voqealari, xususan Yevropa va Rossiya voqealari ko‘zgusida aks ettira bilsak, ma’rifatchi ajdodlarimizning yana bir fazilati yorqin namoyon bo‘ladi.

O‘rta Osiyo Rossiya tomonidan istilo etilishi bilan Turkiston ijtimoiy va madaniy turmushiga yangi shabbodalar kirib keldi: avvalroq aytganimizdek, yangi me’moriy uslubda uylar qurilishi, taxta pol paydo bo‘lishi, teatrlar gastrolga kelishi hamon o‘rta asrchilik og‘ushida yashayotgan o‘lka uchun sezilarli voqea edi, albatta. Ayni vaqtda Rossiya osmonida ham begona bulutlar quyuqlashayotgan

ediki, ularning biri – narodniklar harakatini eslatib o‘tishning o‘ziyoq fikrimizga ravshanlik kirita oladi.

XIX asr o‘rtalarida yuzaga kelgan bu harakat mamlakatning asosiy aholisi bo‘lmish dehqonlarni isyonga chorlash bilan o‘zini ko‘rsatdi. O‘z faoliyatiga asos sifatida endigina bosh ko‘tarib kelayotgan kapitalizm yo‘liga g‘ov solish, chorizmni ag‘darib tashlash g‘oyasini olg‘a surdi. Bu maqsad yo‘lida ular qotillikdan ham hazar qilmaydilar. Oradan o‘ttiz-qirq yil o‘tmay, hatto Rossiya imperatorining o‘zi, qurollangan narodniklar hujumidan qo‘rqib, Sankt-Peterburgdagi o‘z mahkamasiga kela olmay qoldi. Lekin ehtiyotkorlik hayf ketadi. 1881-yil martida u poytaxtning markazida, narodniklar bombasidan halok bo‘ladi. Jazo choralari beayov bo‘lishiga qaramay, terrorchilar xuruji avjlanaveradi. Qisqa muddat ichida bir necha maorif va ichki ishlar vazirlari o‘ldirildi. 1901-yilda tashkil topgan sotsialist-inqilobchi (eser)lar partiyasi narodniklar qo‘lidagi qurolni olib, ularning qonli izini davom ettirdi. Ko‘p o‘tmay, Vazirlar kengashi raisi Stolipin, hech hayiqmay, opera teatrida, shundoqqina podshoh ko‘z o‘ngida otib ketiladi.

Jadidchilik harakati yuqorida g‘oyat qisqa tasvirlab o‘tganimiz alg‘ov-dalg‘ovli muhitda ko‘z ochgan edi. Lekin u qo‘lini ko‘ziga birinchi ko‘ringan qon to‘kuvchi qurolga cho‘zgani yo‘q. Shuni nazarda tutib, dadil aytishimiz mumkinki, bizning jadid ajdodlarimiz jahon bilan muloqot imkoniyatlari g‘oyat cheklangan davrlarda ham, hech yanglishmay, jamiyat rivojining bosh yo‘li – ma’naviyat va ma’rifat yo‘lini tanlash orqali o‘zlarining yaratuvchilik niyatlarini tarixan halol namoyon eta olganlar.

Ko‘rib o‘tganimizdek, XIX asrning ikkinchi yarmi - XX asr boshlarida Turkiston ancha og‘ir va ziddiyatli, ammo shu bilan birga umidbaxsh bosqichni boshdan kechirdi. Turkiston, Kavkaz (Ozarbayjon), Idil-Ural kabi hududlarda vujudga kelgan yangilanish harakati keskin mafkuraviy kurash to‘lqinlarida kechdi. Bu jarayonda ishtirok etgan har bir mo‘tabar siymo hayoti umuminsoniy qadriyatlar,

o‘z xalqi manfaatlari uchun ongli ravishda olib borilgan kurashdan iborat bo‘ldi.

Shunday qilib, XIX asrning so‘nggi yillarida Turkistonda maydonga kelgan tarixiy-ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy vaziyat bu hududda yashovchi xalqlar hayotini tubdan o‘zgartirish, o‘lkaning ijtimoiy va madaniy hayotida islohotlar o‘tkazishni taqozo etdi. Xalqning ilg‘or qismi bo‘lgan ziyolilar bu tarixiy zaruratni o‘z vaqtida tushunib yetdilar. Ular dunyoqarashining shakllanishi, mamlakatni qaysi bir yo‘nalishda olg‘a yetaklash lozimligini tushunishlari uchun, birinchi navbatda, Ismoilbek Gaspralining Boqchasaroyda chop etgan «Tarjimon» gazetasi, shuningdek, Tatariston, Ozarbayjon, Misr, Hindiston singari o‘lka va mamlakatlardan keltirilgan davriy nashrlar katta rol o‘ynadi. Ikkinchidan, tatar ma’rifatparvarlarining Turkistonga kelib, o‘zbek hamkasblari bilan yonma-yon turib, usuli jadid maktablarini ochishlari, uchinchidan, iste’dodli yoshlarning xorijga, birinchi navbatda, Turkiyaga o‘qishga yuborilishi yangicha fikrli kadrlarning vujudga kelishi uchun zarur shart-sharoitlar tayyorladi. To‘rtinchidan, Turkistonda milliy matbuotning maydonga kelishi, jadid yozuvchilari qalamiga mansub asarlarning paydo bo‘lishi jadidchilik g‘oyalarining keng xalq ommasi orasiga kirib borishiga imkoniyat yaratdi. Nihoyat, beshinchidan, rus, tatar, ozarbayjon teatrlari ta’sirida milliy o‘zbek teatri tug‘ilib, bu g‘oyalarni bevosita sahna orqali xalqqa yetkazish iloji tug‘ildi. Ana shu tilga olingan holatlar Turkistonda jadidchilik harakatining yuzaga kelishi va shakllanishida hal qiluvchi omillar bo‘lib qoldi.

JADID ADABIYOTIDA E’TIQOD VA IJOD UYG‘UNLIGI MASALASIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR

Chinakam ijodkor inson sifatida avvalo fidoyi bo‘ladi. Uning hayotda qo‘ygan qadami ham, qo‘lidagi qalami ham shu maqsadga xizmat qiladi. Shoir va yozuvchilarning ko‘pchiligi bu jabhaga juda yoshligidan o‘zini urgani sababli nutq va satrlarida oilaga fidoyilikdan

ham ilgariroq Vatanga, xalqqa fidoyilik tuyg‘ulari o‘zini namoyon etadi. Eng muhimi – hayotda keyincha qanday voqealar ro‘y berishiga qaramasdan, ijodkor o‘z iste’dodiga xiyonat qilmasa, ana shu yashash uslubi shoir yoki yozuvchi xarakterining o‘zagi bo‘lib qolaveradi.

XIX asr oxiri - XX asr boshlarida maydonga kelib, xalqimiz tarixida o‘zining o‘chmas izini qoldirgan jadidchilik harakatining ko‘zga ko‘ringan namoyandalari, xalqimizning sevimli shoir, adib va olimlari hayot va ijod yo‘li fikrimizni davom ettirishga manba bo‘ladi.

Tarixni bilmay yoki o‘rganmay turib kelajak to‘g‘risida o‘ylash va olg‘a dadil qadam tashlash mumkin emas. O‘z o‘tmishini bilgan xalq hayotda uchrashi mumkin bo‘lgan xatolarning oldini oladi, boshqalar uchun Istiqlol uchun kurashda namuna bo‘la oladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev ushbu hodisa haqida shunday degan edilar: «Jadid bobolarimiz butun umrlarini milliy uyg‘onish g‘oyasiga bag‘ishlab, o‘lkani jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, millatimizni g‘aflat botqog‘idan qutqarish uchun bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etdilar. Shu yo‘lda ular o‘zlarining aziz jonlarini ham qurbon qildilar. Ular «Ilmdan boshqa najot yo‘q va bo‘lishi ham mumkin emas» degan hadisi sharifni hayotiy e’tiqod deb bildilar. Milliy istiqlol, taraqqiyot va farovonlikka, avvalo, ma’rifat orqali, dunyoviy va diniy bilim, zamonaviy ilm-hunarlarni chuqur egallash orqali erishish mumkin, deb hisobladilar. Bu davrda Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Ubaydulla Xo‘jaev, Abdurauf Fitrat, Ibrat domla, Abdulhamid Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy, Ashurali Zohiriy, Hoji Muin va boshqa yana yuzlab ulug‘ insonlar milliy uyg‘onish va millatparvarlik harakatining oldingi saflarida turdilar. Ular yangi usul maktablari bilan bir qatorda, odamlarning dunyoqarashi va turmush tarzini o‘zgartirishga qaratilgan gazeta-jurnallar, nashriyot va kutubxonalar, teatrlar tashkil etdilar. Ming afsuski, jadid bobolarimiz o‘z oldiga qo‘ygan ezgu maqsadlarni amalga oshirishga mavjud vaziyat, ijtimoiy tuzum yo‘l bermadi. Ma’rifat fidoyilari o‘sha davrning turli johil

kimsalarining tuhmat-malomatlariga duchor bo‘ldilar. Avval chor hukumati, keyinchalik sovet hukumati ularni ayovsiz quvg‘in va qatag‘on qildi. Shu tariqa milliy uyg‘onish va taraqqiyot harakati el-yurtimiz uchun armon bo‘lib qoldi»[14].

Darhaqiqat, jadid ma’rifatparvarlarining qiziqish va faoliyati doirasi g‘oyat keng bo‘lib, ularning asosiy maqsadi xalqni ma’rifat yo‘li orqali mustaqillikka olib chiqish edi. Chunki, ma’rifatsiz, o‘z tarixi va insoniy haq-huquqlari haqida hech narsa bilmay, mustamlakachilik sharoitida yashash – xalqning irodasini bukib tashlagan edi. Shuning uchun ham ular yangi usuldagi maktablar ochib, tez sur’atlarda xalq ommasining savodini chiqarish choralarini ko‘rdilar; ilk bor matbuotga asos solib, gazeta va jurnallar chop etishdi; yangi davr g‘oyalarini targ‘ib etuvchi, xalqning yopiq ko‘zini ochuvchi asarlar yaratdilar. Natijada, jadid adabiyoti maydonga keldi va teatr truppalari paydo bo‘ldi. «Padarkush», «To‘y», «Eski maktab, yangi maktab», «Juvonboz», «Ko‘knori» singari asarlarning sahnaga qo‘yilishi bilan milliy teatr san’ati o‘z tarixini boshladi. Jadidlar o‘zlarining taraqqiyparvar g‘oyalarini maktab-ma’rifat, adabiyot va teatr yordamida xalq ommasiga yetakaza boshladilar. Ammo, ular nazarida, bu mafkura va ma’naviyat maydonlari, mamlakatning mustaqillikka erishishi yo‘lida bir vosita edi, xolos. Shu bilan birga, jadid ma’rifatparvarlarining badiiy asar va publitsistik maqolalari diqqat bilan o‘qilsa, ularda jadidlarning davlat qurilishi haqidagi muhim siyosiy va huquqiy qarashlari mujassamlanganini ham ko‘ramiz.

Nafaqat Turkiston, balki umuman Markaziy Osiyo, Qrim, Kavkaz va Volga bo‘ylarida joylashgan turkiy xalqlarning XX asrdagi tarixida jadidchilik harakati katta va g‘oyat muhim bir davrni tashkil etadi. Ismoilbey Gaspiralining «Tarjimon» gazetasi orqali bu o‘lkalarga yetib borgan jadidchilik g‘oyalari ilg‘or yoshlarning basir ko‘zlarini

[14] Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг Ўқитувчи ва мураббийлар кунига бағишланган 2020 йил 30 сентябрдаги тантанали маросимдаги нутқи. - Янги Ўзбекистон. – 2020 йил 30 сентябрь.

ochibgina qolmay, hayotning ich-ichiga kirib, amaliy natijalar ham berdi: usuli jadid maktablari paydo bo‘ldi; jadid matbuoti, adabiyoti va teatri vujudga keldi. Jadidchilik harakatining bu minbarlari orqali ma’rifatparvarlik g‘oyalari jamiyat hayotidan muhim o‘rinni egallay boshladi.

Darhaqiqat, jadidchilik ruhiyati tug‘ilgan XIX asrning ikkinchi yarmi Turkiston o‘lkasi eng alg‘ov-dalg‘ov bo‘lib turgan davr hisoblanadi. Amir Nasrullo Qo‘qonni zabt etib, xalqimizning otashnafas shoirasi Nodirabegimni qatl etgani sir emas: bu fojia bir necha zamonaviy dramatik dostonlarda hikoya qilingan. Tarixchilar o‘sha paytda bo‘lib o‘tgan qipchoqlar qirg‘ini, keyincha yuz bergan qozoqlar isyoni, Abdurahmon oftobachi «g‘azavoti»ni hamon tilga olib turadilar. Mana, adabiyotshunos Sharif Yusupovning «Xudoyorxon va Furqat» kitobidan muxtasargina ko‘chirma: «Xudoyorxonning ikkinchi o‘g‘li Muhammad Aminbek keyinchalik «Turkiston viloyatining gazeti»da yozishicha: «...Taxti saltanatda muddati uch yil barqaror bo‘lib, tarixi bir ming ikki yuz yetmish sakkizinchi sanayi hijriyda (melodiy hisobida 1861-62 yillar – Sh.Yu.) mazkur xonni (Mallaxon nazarda tutilmoqda) qipchoqiya va qirg‘iziya qatl ayladilar». O‘sha manbada ko‘rsatilishicha, Mallaxondan so‘ng Shohmurodxon Sarimsoqxon o‘g‘li «muddati bir yil taxti hukumatda barqaror bo‘ldi. Andin so‘ng mazkur Shohmurodxonni Alimquli o‘ldirib, o‘rniga Sulton Sayidxon Mallaxon o‘g‘lini xon qildi». Oradan sal o‘tmay, Buxoro amiri Muzaffar «Xudoyorxonni yetaklab kelib Qo‘qon taxtiga o‘tqazadi, Sulton Sayidxonni esa Xudoyorxonning o‘rniga Buxoroga jo‘natadi (garovband sifatida)» (8-9 - betlar). Endi xuddi shunday muhitda tug‘ilib o‘sgan boshqa bir guvoh – Is’hoqxon Junaydulla o‘g‘li Ibratning «Farg‘ona tarixi» asaridan bir lavha keltiramiz: «Muhammad Alixon fuqarolarga beparvo bo‘lib, musohiblari ulamo va fuzalolardan bo‘lmay, pandu nasihat eshitmay, eshitsa ham quloqqa olmay, xusus, keyingi asrida lavhu la’ab ilan o‘lub, ulamoyu fuzalo va a’yonlardan pandu nasihat

qilsalar ba’zilarini o‘ldurub va ba’zilarini Farg‘onadan chiqarib, Buxoroga badarg‘a qilib, nasihat olmay qolgan edi.

Chunonchi, bulardan julusini uchinchi yili Umarxonning hamshirasi Oysuchuk oyimni eri To‘raqo‘rg‘onni hokimi Is’hoqxon to‘rani Farg‘onadan ixroj qilgan. To‘rtinchi yili Umarxon hamshirasi Oftob oyimni eri Ma’sumxon to‘rani mamlakatdan ixroj qilibdur. Beshinchi yili Yormazor Marg‘ilon hokimi Yusuf mingboshini Yormazordan ixroj qilib, Hajga yuborgan ekan. Yettinchi yili Ernazarbek devonbegini va Xushvaqt Qushbegi yuzni o‘ldirubdur. Sakkizinchi yili Buzrugxon to‘rani taba’alari ilan, to‘qqizinchi yili Jahongirxon to‘rani qancha odamlari ilan xo‘kandlik va qoshg‘arliklarga qo‘shulub Qoshg‘arga qochubdurlar...»

Ko‘rib turganimizdek, misollar taxtga yaqin kishilarning ham, xalq orasida umri o‘tgan kishilarning ham qalamiga mansub. Ularda oddiy mehnat ahlining kayfiyati ham, oliy tabaqaga mansub arboblarning holati ham, mamlakatda tug‘ilib-o‘sayotgan turli millat vakillarining intilishlari ham aks etib turibdi. Bunday manzara XIX asrga kelib to‘satdan tug‘ilib qolgani yo‘q, albatta. Sharqona turmush tarzi yuzaga keltirgan muhitda mavjud islom qonunlari va istibdod tig‘lari o‘rtasida shunday muvozanat yuzaga kelgan bo‘lsa kerakki, vaqti-vaqti bilan shayining holati buzilib, goh qon yuqi qurol o‘z qudratini namoyish etgan, goh qonun o‘zining borligini eslata olgan. Ikki o‘rtada insonning issiq joni ovora edi. Afsus, bunday qontalash hayotning ildizi, yuqorida aytganimizdek, necha asrlar nariga, olis tariximizga borib taqaladi. Bunday misollarni Buxoro amirligi va Xorazm xonligi hududidan ham ko‘plab keltirish mumkin. Bu fikrning dalili sifatida ko‘pchilikka ma’lum hodisa: shahzoda Abdullatifning o‘z odamlari qo‘li bilan ukasi Abdulazizni, oradan ikki kun o‘tgach esa otasi Mirzo Ulug‘bekni o‘ldirganini, yana yarim yil o‘tar-o‘tmasdan o‘zi ham qurbonlarning tarafdorlari tomonidan qatl etilganini esga olishingiz mumkin.

Xullas, vaqt oqimini his etadigan kishi bir muhim narsani – ham mahalliy istibdod, ham zobit Rossiyaning zo‘ravonligi, ba’zi ziddiyatlardan qat’iy nazar, bir-birini quvvatlab, bir-birini to‘ldirib, xalqni yupunlashtirish, zamonni omonatlashtirish sari yetaklayotganini sezib olishi qiyin emas.

Jadidlar ana shu xatarning yo‘lini to‘sish uchun bel bog‘lab chiqqan zahmatkashlardir. Ular mamlakatni bilimdon insonlar o‘z zamonlariga munosib adolatli Qonunlarga tayanib boshqarishlarini, yosh ham, keksa ham shu Qonunlarga birday hurmat ko‘rgizib umrguzaronlik qilishini, Qonun oldida hamma teng bo‘lishini davr talabi deb bilganlar. Bu esa, o‘z navbatida, keyingi yillardagi ijtimoiy fanlar tili bilan aytganda, Turkiston o‘lkasini feodalizm botqog‘idan olib chiqib, taraqqiyotning yangi pog‘onasiga qon to‘kmasdan ko‘tarish demakdir.

Agar jadidchilik harakatining yuzaga kelishi uchun Turkistonning o‘zida zarur ijtimoiy va madaniy zamin (ichki sharoit) bo‘lmaganida o‘zbek jadidchilik harakatining paydo bo‘lish va shakllanish jarayoni bu qadar intensiv tus olmagan bo‘lardi. Bunday zamin bo‘lib esa Sattorxon Abdug‘afforovning ma’rifatparvarlik faoliyati, Muqimiy, Furqat, Dilshod Barno, Ahmad Donish singari shoir va yozuvchilarning ijodlari xizmat qildi.

Yuqorida qayd etilgan manbalar tufayli va Turkistondagi og‘ir ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sharoit taqozosi bilan XIX asrning oxiri – XX asrning boshlarida o‘lkada jadidchilik harakati vujudga keldi.

Jadidlar XIX asrning ikkinchi yarmida Turkistonning Chor mustamlakasiga aylanishi va Turkiston xalqlari achinarli ahvolining ijtimoiy ildizlarini tahlil etib, birinchi navbatda ta’lim tizimini isloh etish va xalq ommasini ma’rifatlashtirish lozim, degan qarorga keldilar. Ular nazarida, Turkistondagi mavjud tarixiy sharoitni o‘zgartirishning birdan-bir yo‘li ma’rifat o‘choqlarini barpo etish va xalq ommasining ko‘zini ma’rifat nurlari bilan yuvish edi.

Agar ma’rifat o‘zbek xalqi va madaniyati tarixining avvalgi davrlarida xalq ommasini bilimli qilish vositasi bo‘lib xizmat qilgan bo‘lsa, jadidlar ma’rifatdan ijtimoiy qurol sifatida ham foydalanmoqchi bo‘ldilar. Ularning fikriga ko‘ra, ma’rifatlashgan xalq yaqin kelajakda o‘z haq-huquqlari uchun, Vatan hurligi va mustaqilligi uchun kurashishi ham lozim edi. Binobarin, jadidlar ma’rifatning xalq va vatan taqdiridagi rolini mumkin qadar oshirishni lozim, deb topdilar.

Ular shu maqsadda usuli jadid maktablarini ochishga katta e’tibor berdilar. Usuli jadid maktablari, ular nazarida, bir tomondan, davr talablariga javob bermay qolgan eski maktab va madrasalarning, ikkinchi tomondan, mahalliy yoshlarni ruslashtirish vazifasini o‘z oldiga qo‘ygan rus-tuzem maktablarining o‘rnini sekin-asta egallashi va yoshlarni o‘z bag‘riga mumkin qadar ko‘proq tortishi lozim edi.

Darhaqiqat, O‘rta Osiyoning yirik shaharlariga savdo va temir yo‘llar vositasi orqali yangi ta’lim uslubi kirib kelganidan keyin shuncha asrlar mamlakatimiz o‘troq aholisining eng zukko farzandlariga jahon darvozalarini ochib bergan eski maktab, vaqt-soati yetib, zamon talablariga javob bera olmay qolgani aniq. Avvalo ular berayotgan bilim hajmi g‘oyat kichik edi: chunki o‘quv va yozuv – savodning ibtidosi xolos. Qolaversa, kitob kamyob, undagi ma’lumotlar ko‘lami chegaralangan edi. Qo‘qonlik shoir Charxiyning bizgacha yetib kelgan shahodatiga qaraganda, kotibga biror bayoz buyurtma berish uchun kelgan iltimoschi odamning xizmat haqi uchun aravada bir qopdan un-guruch, qo‘yi ham bo‘lishi kerak ekan. Bu esa xalqning ko‘pchilik qismi yupun yashayotgan zamonlarda hammaning ham qo‘lidan kelavermasdi.

Endi o‘quv-tarbiya ishlari olib boriladigan maskanning ahvoliga kelsak, bizning umumiy gaplarimizdan ko‘ra, Sadriddin Ayniyning o‘z «Eski maktab»ida keltirgan lavhasi yuz baravar yorqinroqdir. Mana u: «Maktab bizning uyimiz kabi keng, to‘rt eshikli, yorug‘ va tinch bo‘lmay, torgina birxonadan (hujradan) iborat edi. Uning ikki

eshigi bor bo‘lib, buning biri bir tavaqali va bu eshik ko‘pincha yopiq turar edi. Ikkinchi eshigi darcha bo‘lib, uch gaz bo‘yi va yarim gaz eni bor. Bu darchaning oldi domla(maktabdor)ning o‘tiradigan joyi edi. Darchalarga esa parda qilingan (derazasi qog‘oz bilan qoplangan) va qog‘ozga esa qor-yomg‘irning ho‘llab-yirtib yubormasligi uchun zig‘ir moyi surtilgan, bu moyli qog‘oz ko‘chaning chang va tuprog‘ini o‘ziga ola berib, qozon chochiq kabi qop-qora kirlanib ketgan edi. Agar yanglishmasam, domlaning tug‘ilganidan beri sovun yuzini ko‘rmagan, benihoya kirlanib bitgan basharasiga o‘xshar edi. Shuningdek, maktabning haligi aytganim derazasidan darsxonaga hech bir yorug‘lik kirmas edi. Hujraning shipi tagidan devorning shipga yaqinlashtirgan joyida ikki tomondan ham bir-biriga ro‘parama-ro‘para qilib ochilgan ikki tuynukcha bo‘lsa ham, bulardan kiradigan yorug‘lik pastga tushmasdan, hujraning devorlarida qolardi.

Bu hujraning kengligi o‘n olti murabba (kvadrat) edi, uning ichida bir-birining ustidan o‘tkazilib, to‘rtta sinch tortilgan va bu bilan hujra to‘qqiz bo‘lakka bo‘lingan, go‘yo maktabxonaning ichida to‘qqiz oxur paydo bo‘lgan edi».

Bu «xo‘ja qishloq»dagi namunali maktabning tasviri. Maktabdorning o‘zi harakatda ko‘rsatilgan bo‘lmasa-da, uning kishida sovuq taassurot uyg‘otadigan qiyofasi va bilim saviyasi, bir ishora bilan, mohirona chizib o‘tiladi. Buning ustiga eski maktablarda qonunlashtirib qo‘yilgan tan jazosi, qizlar uchun esa savodni faqat harf tanish bilan chegaralanganini eslang. Bularning hammasi esa, oqibat natijada, o‘quvchilardan kelajakda zamonaviy ilg‘or tuyg‘ular bilan sug‘orilgan yetuk grajdanlar yetishib chiqishiga yo‘l ochib berishi mushkul edi.

Endi yuqoriroq ko‘tariladigan bo‘lsak, madrasa ta’lim tizimi maktabdagiga qaraganda albatta anchagina maromiga yetganini e’tirof etmay ilojimiz yo‘q. Undan, darhaqiqat, dunyoga dong‘i taralgan benazir olimlar yetishib chiqqani bilan haqli suratda faxrlanamiz. Vatanimiz qiyofasini rassomlar ko‘pincha madrasaviy arxitektura

ziynatlari orqali ifoda etadilar. Zamonlar aylanar, insonlar o‘zgarar, lekin ming yillardan omon o‘tgan tabarruk g‘ishtlar xalqimizning, qo‘li gul ustalarning me’morchilik san’atini hali necha-necha asrlar ko‘z-ko‘z qilib turaveradi. Endi turmushning o‘sha oddiy kunlarini, mullavachchalarning kundalik tashvishlarini ko‘z oldimizga keltiradigan bo‘lsak, yodga eng avvalo «riyozat» degan so‘z keladi. «Riyozat»ni esa lug‘atda «qiyinchilik, mashaqqat, zahmat» deb izohlabdilar. Bu o‘rinda gap faqat bilim xarsanglarini kemirish murakkab ish ekani ustida ketayotgani yo‘q: u zamonlarda ana shu muhtasham imoratlarda muntazam talabalik tartib-sharoitlariga bo‘ysunib yashashning o‘zi ham anchagina matonat talab etardi.

Biz bu o‘rinda ham masalaga ozgina ravshanlik kiritish maqsadida qalamkash zamondoshimizning dalolatiga murojaat etamiz. Bundan ellik yillar avval O‘zbekistonga bir guruh odessalik shoirlar mehmon bo‘lib kelishgan ekan. Toshkentdagi mushoaralar muvaf-faqiyatli o‘tgach, mehmonlarning istagini hisobga olib, bir o‘zbek ijodkori yetagida Samarqandga jo‘natishibdi. Bu yerdagi uchrashuv-lardan so‘ng ular bir yo‘la Buxoroga ham o‘tishibdi. Pedagogika institutida qarsaklar olishibdi. Arkni tomosha qilishibdi. Dasturxon atrofida suhbat qurishibdi. Keyin, sayohatchilar ko‘p bo‘lgani sababli shahar mehmonxonasidan joy tegmagani uchun, Labihovuz bo‘yidagi Ko‘kaldosh madrasasiga yo‘l olishibdi: dolzarb pallalarda buxoroliklar undan ham mehmonxona sifatida foydalanishayotgan ekan.

«Ertasiga trikotaj fabrikasidagi uchrashuv barvaqt boshlanishi sababli ertaroq yotishga qaror qildik, - deb hikoya qiladi mehmonlarga yetakchilik qilgan qalamkash yurtdoshimiz. – Hammamiz bir takyaga joylashgan edik. Bir oz hangomalashgandan keyin asta-asta mehmonlarning nafasi so‘na boshladi. Keyin kimdir Shevchenko she’rlaridan yod o‘qiy boshladi: zavqi toshib ketganidan emas, xayolini chalg‘itish uchun. Chunki takya devorlaridan, g‘ishtlar orasidan quyuq, qo‘l bilan ushlab ko‘rsa bo‘ladigan darajada sovuq

havo ohista sizib chiqayotganday edi. U xuddi asrlar bo‘yi devor qatida qatlanib yotgan, tirik jonni sog‘inib qolgan, mana endi orzusi ushalib, mehmonni bag‘riga bosmoqchiday tuyulardi. Men chidayolmay, tashqariga chiqib, Labihovuz atrofini aylanib keldim. Qaytib kirganimda Valentin Moroz boshlab, Vladimir Getman bilan Izmail Gordon unga jo‘r bo‘lib, o‘zlarining «O, Dnipro, Dnipro» degan katta ashulalarini xirgoyi qilishayotgan ekan. Ular chamamda qo‘shiq bilan isinishardi...»

Albatta bu muhtasham, ming yillar san’atini o‘zida jam etgan imoratlar hammamizning faxrimiz. Hozir esa biz faqat ularda yashash uchun yaratilgan qulayliklar haqida so‘z yuritdik: bu taxlit turmushni darhaqiqat «riyozat» deb atab, ajdodlarimiz xato qilishmagan. Biz bu dargohlarda qancha va qanday buyuk siymolar tarbiya ko‘rganini bilamiz, ularni o‘rganamiz. Lekin riyozat chekish jarayonida ularning qanchadan qanchasi o‘z salomatligini yo‘qotgani hech qachon va hech qaerda hisobga olingan emas. Xolbuki «mullavachcha» degan atamadan bizga hanuzgacha jismoniy zaiflik, dardmanlik hidi kelib turadi.

O‘tmishga qisqagina nazar tashlashdan murod o‘sha davrlardan bizning hozirgi kunimizga umid va ishonch bilan tashlangan nigohlarni yana bir bora eslashdir. Bugun maktab deyilsa, ko‘z o‘ngimizda avvalo mahalladagi eng shinam, charog‘on, gavjum bino keladi; ko‘z o‘ngimizda sport zallari va stadionlar, o‘quvchilar saroylari va kutubxonalar, madaniyatli, o‘z fanini puxta bilgan erkak va ayol muallimlar namoyon bo‘ladi. Madrasalarning ko‘pchiligi muzey sifatida xizmat qilayotir. Universitet va institutlarimizni bitirganlardan hatto chet el oliy o‘quv yurtlarida mudarrislik qilayotlganlar oz emas. Jadid allomalarimiz ana shunday kunlarni orzu qilib, harakat boshlagan edilar. Ularga o‘z mehnatlari mevasining faqat nishonasini ko‘rish nasib etdi, mevasini biz tatib turibmiz.

Shuning uchun jadidchilik, eng avvalo, yangi tipdagi maktablarni ochish, ta’lim tizimini isloh etish ishlariga jiddiy e’tibor qaratganini alohida qayd etib o‘tmoqchimiz.

Usuli jadid maktablari uchun o‘quv dasturlari, darslik va qo‘llanmalarni tuzishda mualliflar o‘quvchilarni qisqa muddatda savodli qilishdan tashqari, sharqona axloq va odob ruhida tarbiyalash, fanning turli sohalari, jumladan, tabiiy fanlar bo‘yicha bilim berish, ayniqsa, yer yuzidagi boshqa mamlakatlarning tabiati, davlat qurilishi, madaniyati, shuningdek, bu mamlakatlarda yashovchi xalqlar to‘g‘risida tasavvur berishni o‘z oldilariga maqsad qilib qo‘ydilar.

Shubhasiz, bu maktablar o‘quvchi yoshlarga faqat dastlabki bilimnigina bergan. Ularning bu maktablarda olgan bilimlarini mustahkamlash va yanada boyitishning, shuningdek, xalqning boshqa qatlamlarini ma’rifatlashtirishning birdan-bir yo‘li zamonaviy madaniyatning muhim tarmoqlari – jadid matbuoti, adabiyoti va teatr san’atini yaratish edi. Jadidlar ana shu uch minbar orqali o‘z g‘oyalarini tarqatishga harakat qildilar. Turkiston (Toshkent, Samarqand, Farg‘ona)da nashr etilgan gazeta va jurnallar o‘lka hayotiga oid maqolalardan tashqari, xorijiy mamlakatlardagi davlat tuzumi, siyosiy partiya va tashkilotlar, maktab va maorif ishlari, adabiyot va san’at yangiliklari to‘g‘risida, xalq hayotining turli jabhalari to‘g‘risida hikoya qiluvchi materiallarni e’lon qildilar. Matbuot, adabiyot va teatr san’ati xalqning maishiy, iqtisodiy va madaniy hayotidagi qoloqliklarni shafqatsiz ravishda ochib tashlab, ularni Yevropa va Osiyodagi taraqqiy etgan xalqlar darajasiga ko‘tarishni o‘zining murakkab va muqaddas vazifasi, deb bildi.

Ismoilbey Gaspiralining «Tarjimon» gazetasida olg‘a surilgan quyidagi g‘oyalar Turkiston jadidlari maktab va maorif sohasidagi faoliyatlarining ham asosiy yo‘nalishini tashkil etdi:

- milliy maorif tizimini isloh etish:

- yangi maorif tizimini moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash va iste’dodli yoshlarni ilg‘or xorijiy mamlakatlarga o‘qishga yuborish uchun «Jamiyati xayriya»larni tashkil etish;

- milliy ziyolilarni yetishtirish, fan, sanoat va xalq xo‘jaligining turli sohalari bo‘yicha, shuningdek, davlat ishlarini yurituvchi mutaxassislarni tayyorlash;

- qizlar uchun alohida maktablar ochish.

M.Behbudiy «Tarjimon» gazetasida ifodalangan bunday g‘oyalarni Turkistondagi mahalliy sharoitdan kelib chiqib, quyidagi «moddalar» bilan boyitdi:

- bolalarni musulmon maktablari bilan birga rus-tuzem maktablari va gimnaziyalarida ham o‘qitish; buning uchun har bir bolani ikki yil davomida ruscha o‘qitish va tarbiya qilish; shu ikki yil uchun to‘lanajak 600 so‘m miqdoridagi pulni to‘y-ma’rakalar uchun jamlangan mablag‘dan olish;

- bolalarni tarbiyalaydigan pansionatlar ochish va bolalarni hukumat maktablariga tayyorlash uchun «Nashri maorif» yoxud «Jamiyati xayriya», yoki «Jamiyati atfol» singari jamiyatlarni ochish;

- bu jamiyatlar yordamida yuqori malakali o‘quv yurtlarida o‘qitish orqali noyob sohalar bo‘yicha mutaxassislar bilan birga Davlat Dumasiga deputat bo‘la oladigan, banklarda ishlay biladigan har taraflama iste’dodli mutaxassislarni yetishtirish va h.k.

Chor hokimiyatining rus-tuzem maktablarini tashkil etishdan ko‘zda tutgan maqsadlaridan biri Islom dinini buzish, mahalliy yoshlarni islom ta’limotining ta’sir doirasidan ajratib olish va shu yo‘l bilan ruslashtirish edi. Jadidlar Islom dinining xalqni birlashtiruvchi va uning o‘zligini saqlab qoluvchi muhim omil ekanini inobatga olgan holda yoshlarni islomiy ruhda tarbiyalashga ham katta e’tibor berdilar.

Turkiston jadidchilik harakatining shakllanishida xalqaro aloqalar muhim ahamiyatga molik bo‘ldi. Behbudiyning Yaqin Sharq mamlakatlariga qilgan safari, Qozon, Nijniy Novgorod, Moskva, Peterburg singari Rossiyaning markaziy shaharlariga borishi,

Fitratning Turkiyada bir necha yil bo‘lishi nafaqat bu yozuvchilar, balki umuman o‘zbek jadidlari ijtimoiy-siyosiy va ma’rifiy qarashlarining shakllanishiga katta ta’sir o‘tkazdi. Ayniqsa, Fitratning Turkiyada yozgan «Munozara» va «Hind sayyohi bayonoti» asarlari o‘zbek jadidlari uchun bir necha yillar mobaynida g‘oyaviy dastur vazifasini bajardi.

Jadidlarning turkistonlik yoshlarni chet elga o‘qish uchun yuborish bo‘yicha olib borgan faoliyati ham alohida ahamiyatga molikdir. O‘zbek yoshlarini chet ellarga bilim olish uchun yo‘llash g‘oyasi, bir jihatdan, Turkiston o‘lkasining o‘sha paytlardagi chuqur ilmli, jahonni ko‘rgan faylasuf, diplomat va siyosatchi kadrlarga ehtiyojidan tug‘ilgan desak xato bo‘lmaydi. Buni jadidlar hushyorlik bilan sezib, idrok etib olgan edilar va, eng muhimi, ana shu muammoni hal etish bo‘yicha amaliy choralar ko‘rishga kirishgan edilar. Falsafa ilmi sharq mamlakatlarida asosan diniy poydevorga qurilgani sababli yangi mullavachchalarning yo‘li Turk – Fors – Arab davlatlari orqali o‘tishga majbur edi.

Uzoq va yaqin Yevropa mamlakatlariga talaba jo‘natish zaruratini esa O‘rta Osiyoga temir yo‘l kelishi munosabati bilan mahalliy xalq hayotida ro‘y bergan yangi burilish yuzaga keltirib chiqardi. O‘zbekistonda paxta ekiladigan maydonlar tobora kengayib, uning tolasi Rusiya bozorini ham o‘rab-chirmab olayotgan, «Maskovchi boy» kabi iqtisodga oid atamalar tug‘ilayotgan davr ayni o‘sha yillarga to‘g‘ri keladi. Mirishkor yurtimizning yirik shaharlarida esa, iqtisodiy aloqalarning yangi pog‘onasi sifatida, katta-kichik paxta tozalash zavodlari qad tiklay boshladi.

Bundan ancha yillar avval, Navro‘z bayramini nishonlash uchun yig‘ilgan ijodkorlar davrasida shoir Hodi Toqtoshning o‘g‘li, taniqli san’atshunos Rafael Toqtosh so‘zga chiqib, o‘tgan asr boshlarida Namangon shahri markazida ishga tushirilgan paxta tozalash zavodi qurilishiga o‘z ota-onasi bosh-qosh bo‘lganini faxr bilan hikoya qilgan edi. Keksa mutaxassislarning shahodat berishicha, XX asr qirqinchi

yillarining ikkinchi yarmida ham, ya’ni o‘z yengil sanoat mashinasozligimiz yuzaga kelguncha, bu zavod sexlarida Germaniya-dan keltirilgan «Linter», «Jin» markali mashinalar ishlab turgan ekan. Fikrimizcha, o‘lkadagi boshqa sanoat korxonalarida ham manzara xuddi shunday bo‘lishi ehtimoldan yiroq emas. Jadid arboblarimiz chet elga bilim olish uchun otlanayotgan yoshlar safarining yo‘nalishini belgilayotganda, o‘z yurtlarini tezroq mashinalashgan mamlakatga aylantirishni, bu maqsad esa yuqorida tilga olingan yoshlar qo‘li bilan amaliyotga aylanajagini nazarda tutganlar, albatta. Xulosa qilib aytish mumkinki, ularning faoliyati faqat siyosiy-ijtimoiy-huquqiy dasturlar yaratish bilan chegaralanmagan: ular xalq xo‘jaligini zamonaviy usulda tashkil etish va yuritishga, qonun va bilim asosida qayta qurilgan davlatni boshqarib ketishga ham qobil insonlar edi. Darvoqe, qahramonlarimizning ko‘pchiligi qalamkash ekani ularning tashkilotchilik qobiliyatlariga nisbatan shubha uyg‘otmasligi kerak. Tarixdan bilamiz: Husayn Boyqaro, Nodirabegim, keyinroq Muhammad Rahimxon Feruz, qolaversa, o‘z davrdoshimiz Sharof Rashidov kabi arboblar bir qo‘llari bilan qalam tebratgan bo‘lsalar, yana bir qo‘llari bilan yurtni tebratganlar, xalq dilida shunday muhrlanib qolganlar.

Agar o‘zbek jadidchiligi o‘z tarixining birinchi bosqichida asosan ma’rifiy oqim sifatida namoyon bo‘lgan va bu davrda jadidlarning ta’lim islohoti bilan bog‘liq qarashlari to‘la shakllangan bo‘lsa, keyingi davrda ularning ma’rifiy g‘oyalari milliy taraqqiyotning boshqa muhim va dolzarb masalalari bilan boyidi.

Jadidlar o‘lkaning milliy taraqqiyot yo‘lidan dadil borishi uchun faqat ma’rifatning o‘zi kamlik qilishini sezdilar. «Turkiston Eski dunyoning Amerakasidur. Paxta, ma’dan, g‘alla, xulosa, har nimarsa bor. Turkiston oltindur». M.Behbudiyning bu so‘zlari tagida katta ma’no bor edi. Turkistonning milliy boyligidan foydalanish - yer osti boyliklarini ilm-fan yordamida qazib olish, qayta ishlash va uni mahsulot sifatida sotish, bir tomondan, tijoratning rivojlanishiga,

milliy sarmoyadorlarning ko‘payishiga imko¬niyat tug‘dirsa, ikkinchi tomondan, o‘lkaning milliy taraqqiyot yo‘lidan borishiga keng yo‘l ochgan, shart-sharoitlarni yaratgan bo‘lardi.

Ana shu tarzda ma’rifat milliy taraqqiyotning o‘zak masalalarini ham o‘z qamroviga ola boshladi.

Birinchi jahon urushi arafasida Turkistonda yangi temir yo‘llarining qurila boshlashi bilan yerning narxi ko‘tarildi. O‘rtahol dehqonlar arzon-garovga yerlarini sota boshladilar. Shunday vaqtda «Sadoi Turkiston» gazetasi Ubaydulla Xo‘jaev va Cho‘lponning maqolalari yordamida xalqqa yerning qadr-qimmatini tushuntiruvchi maqolalar bilan chiqdi. Pul o‘tkinchi, yer esa abadiy qadriyat ekanini isbotlab berdi. Ularning bunday chiqishlari xalq ommasini ona Vatanga, Vatan va avlodlar oldidagi burch masalalariga hushyorlik bilan qarashga o‘rgatdi.

Jadidlar usuli jadid maktablari va umuman ma’rifatni targ‘ib etar ekanlar, xalqning badavlat qismini ortiqcha sarf-harajat qilmaslikka, agar ortiqcha mablag‘lari bo‘lsa, bu mablag‘ni maktab va madrasa tizimini yaxshilashga, yoshlarni xorijga o‘qishga yuborishga, dorulsanoat singari o‘quv yurtlarini tashkil etib, injener, geolog va boshqa mutaxassislarni yetishtirish yo‘lida sarflashga chaqirdilar. Bu ham ularning milliy taraqqiyot yo‘lidagi sa’y-harakatlari edi. M.Behbudiy singari ilg‘or jadidlar ayrim xorijiy mamlakatlarning konstitutsiyalarini, davlat idoralari va siyosiy partiyalar faoliyatini o‘rganib, jadidchilik harakatini yangi bosqichga olib chiqdilar. 1905 yil rus inqilobi, shuningdek, Turkiya va Erondagi inqilobiy harakatlardan so‘ng jadidlar o‘z oldilariga siyosiy vazifalarni ham qo‘ya boshladilar. Ayniqsa, Birinchi jahon urushi yillaridagi Chor Rossiyasining tashqi va ichki ahvoli jadidlarda mustaqil yashash umidini uyg‘otdi. 1917 yil Fevral inqilobi esa bu umidni yanada mustahkamladi.

Jadidlarning siyosiy-huquqiy qarashlarini o‘rganishda M.Behbudiy tomonidan Davlat Dumasining Musulmon fraksiyasiga

yo‘llagan «Turkiston madaniy muxtoriyati loyihasi» g‘oyat katta ahamiyatga ega. Mazkur loyiha Turkiston jadidlarining 1907 yildayoq muxtoriyatga erishish uchun harakat boshlaganlarini va bu harakat tepasida M.Behbudiyning turganini ko‘rsatadi. Loyihada olg‘a surilgan g‘oyalarning asosiy qismi bir narsaga – Turkistonda Idorai ruhoniya va doxiliya degan tuzilmani tuzish va o‘lkani boshqarish bilan bog‘liq barcha ishlarni shu idora zimmasiga yuklashga qaratilgan. Boshqaruv tizimining mahalliy ma’murlari ixtiyorida bo‘lgan bir qator vakolatlarning Idorai ruhoniya va doxiliyaga olib berilishi Chor Rossiyasi tarkibida Turkiston Muxtoriyat hukumatini barpo etish bilan baravar edi. Boshqacha qilib aytganda, M.Behbudiyning mazkur loyihasida o‘z ifodasini topgan ayrim siyosiy va huquqiy qarashlari 1917-yil oktabrida Qo‘qonda Turkiston Muxtoriyatining e’lon qilinishida poydevor vazifasini o‘tadi.

M.Behbudiy yuqorida tilga olingan loyiha ostiga «Ittifoqi muslimin idora markaziyasi a’zolaridan muftiyi dorulqazo Samarqandiy Mahmudxo‘ja Behbudxo‘ja o‘g‘li» , deb imzo chekkan. Bu so‘zlardan ma’lum bo‘lishicha, u ushbu loyihani o‘sha yillarda yarim oshkora va yarim yashirin faoliyat olib borgan «Ittifoqi muslimin» tashkiloti markaziy idorasining a’zosi sifatida tuzgan. Ma’lumki, 1917-yil oktabr to‘ntarilishidan keyin Turkistonning mustaqilligiga erishish maqsadida bir necha siyosiy tashkilotlar tuzilgan. Tarix fanlari doktori R.M.Abdullaev bergan ma’lumotga ko‘ra , «Ittifoqi muslimin» tashkiloti 1905-yil 15-avgustda Nijniy Novgorodda o‘z ishini boshlagan Butunrossiya musulmonlari¬ning birinchi qurultoyida tuzilgan. Tashkilotning «Kaspiy» va «Hayot» gazetalari muharriri Alimardonbek To‘pchiboshev tomonidan tuzilgan 23 moddadan iborat Nizomi esa Butunrossiya musulmonlarining ikkinchi qurultoyida tasdiqlangan (Sankt-Peterburg, 1906 yil, yanvar). Nihoyat, 1906-yil 16-21-avgust kunlari Davlat Dumasi musulmonlar fraksiyasi tashabbusi bilan Nijniy Novgorodda o‘tgan uchinchi qurultoyda «Ittifoq»ning dasturi ishlab chiqilgan va qabul qilingan.

Dasturda partiyaning asosiy vazifasi mamlakatdagi ichki va siyosiy hayotni hurriyat, haqiqat va insonparvarlik qonunlari asosida yangilashga intiladi, deb belgilangan.

Jadid ma’rifatparvarlariga uzoqmi-yaqinmi davrdosh bo‘lgan bir qancha olamshumul allomalar faoliyatiga murojaat etsak, hikoyamiz vatanga muhabbat, jamiyat taraqqiyoti yo‘lida jonbozlik ko‘rsatish, ijod va amaliyot uyg‘unligi, ijodkor e’tiqodining amaliy faoliyati bilan yakdilligi haqidagi fikrlarni tasdiqlovchi juda ko‘p va asosli misollar bilan boyishi mumkin.

Zamonaviy rus adabiyotining asoschisi, hassos shoir Aleksandr Sergeevich Pushkin she’rlari, dostonlari, «Yevgeniy Onegin» she’riy romani, nasriy asarlari xalqimizga, xususan adabiyotshunoslarimizga yaxshi tanish. Bu asarlarning ko‘pchiligi o‘tgan asrda eng munosib ijodkorlarimiz tomonidan o‘zbekchaga tarjima qilingan. Biz hozir shoir hayotining Turkistonda jadidchilik harakatiga ohangdosh bo‘lgan boshqa bir qirrasi – dekabristlar bilan hamkorligi haqida so‘z yuritmoqchimiz xolos.

Ma’lumki, rus armiyasi Napoleon askarlarini quvlay borib, Parijni zabt etadi. Shu jang-jadalli safar vaqtida yevropaliklarning turmush tarzi bilan tanishgan eng ilg‘or rus harbiylari o‘z vatanlariga Rossiyada ham mamlakatni xalqning hamma qatlamlari teng boshqaradigan davlat tizimi yaratish zarurati borligini his etib qaytadilar. Keyin, xuddi bizning jadidlarimizga o‘xshab, shu g‘oyalar atrofiga jipslashgan Jamiyat tuzadilar. Jamiyatning faol a’zosi bo‘lmish Nikita Muravyov boshchiligida o‘sha istaklarni o‘zida ifoda etgan Konstitutsiya matni yaratiladi. Bu hujjatni ko‘paytirib, muhokama uchun tarqatuvchilardan biri shoir Konstantin Rileev edi. Dekabr voqealariga Pushkin ishtiroki masalasiga kelsak, atoqli tarixchi M.V.Nechkina bir necha bor e’tirof etganidek, shoirning litseydosh do‘sti Ivan Pushchin uni hatto o‘sha keskin kunlar guvohi bo‘lish uchun Peterburgga maktub orqali taklif etgan edi. Pushkinning dekabristlar mavzuida chizgan suratlari ham anchagina: bu haqda

san’atshunos A.Efros tadqiqotlarida atroflicha hikoya qilingan. «Sibirga maktub» she’ri esa ko‘pchilikka maktab darsliklaridan tanish. Shuning uchun bu boradagi bayonni qisqaroq qiladigan bo‘lsak, xulosa sifatida aytish mumkinki, otashin shoirning hammaslak do‘stlari e’tiqodan har bir inson o‘z mamlakatining teng huquqli farzandi bo‘lishiga tarafdor edilar. Faqat og‘izda emas, amalda ham: masalan, I.Pushchinning o‘zi bironta krepostnoy dehqonga ega emasdi, birgina xizmatkorini esa xodim sifatida tutardi. Dekabr voqealaridan keyin Sibirga surgun qilingach, o‘sha yerda ham mahalliy kambag‘al aholi farzandlari uchun maktab tashkil qildi, do‘sti I.Yakushkin bilan birgalikda hunarmandlar arteli ishini yuritishga ko‘maklashdi.

Bunday ruh faqat ayrim hududlar uchungina xos bo‘lib qolmay, hayot yangilanishiga tashna insonlar o‘z intilishlarini namoyon eta olguvchi barcha o‘lkalar osmonida kezib yurardi. Masalan, xuddi Pushkinday faqatgina 36 yil yashab, davr to‘lqinlarida entikib hayot kechirgan inson – ingliz shoiri Jorj Gordon Bayronning tarjimai holini ham fidoyilikning go‘zal timsoli deb aytishimiz mumkin. «Chayld Garoldning ziyorati», «Kofir», «Lara», «Dengiz qaroqchisi», «Don Juan» dostonlari, «Manfred» dramatik dostoni uning nomini romantizmning yorqin vakili sifatida dunyoga tanitdi. Biz hozir, mavzu taqozosi bilan, uning ingliz xalqi tarixida yorqin sahifa bo‘lib turgan ijtimoiy faoliyati haqida so‘z yuritamiz.

U yashagan davr kapitalizm dadil bosh ko‘tarib, ishlab chiqarishga dastgohlar joriy etilayotgan, buning oqibatida ko‘pminglik hunarmand ahli ishsiz qolayotgan yillarga to‘g‘ri keladi. Hunarmandlar o‘z tirikchiliklarini o‘ylab, dastgohlarni sindira boshlaydilar. Ularga Ludda ismli shogird yigit bosh bo‘ladi va namuna ko‘rsatadi. Bayron esa, yoshligiga qaramay, hech ikkilanmasdan, yo‘qsul luddiylar himoyasiga o‘z ovozini ko‘taradi. Keyinroq u Angliyani tark etib, Italiyada milliy ozodlik va konstitutsiyaviy tuzum uchun kurash olib borayotgan ko‘mirchilar

harakatiga qo‘shiladi. Bu bilan ham qanoatlanmay, o‘z qahramonlari singari romantik ruhdan qanotlangan shoir, sal nafas rostlagach, milliy ozodlik uchun jon olib-jon berayotgan Gresiya vatanparvarlari safidan joy oldi. Bu yo‘lda mehnatini ham, mablag‘ini ham ayamaydi. Gresiya hukumati unga hatto okrug qo‘mondoni lavozimini taklif etadi. Bayronga bu murakkab bahslar maydonida Valter Skott, Tomas Mur, Persi Bish Shelli singari taniqli, fikrdosh ijodkorlar madad berib turdilar.

Bu kishilarning barchasi o‘sha davr jamiyatining yuqori pog‘onalariga mansub, zodagon oilalarning vakili bo‘lganliklari sababli faoliyatda katta erkinlikka ega edilar, ularning intilishlarini xalqning barcha tabaqalari uchun tipik deb aytish qiyin, degan fikr tug‘ilishi ehtimol. Bu tahminga ravshanlik kiritish maqsadida ukrain xalqining ulug‘ shoiri Taras Shevchenko tarjimai holiga murojaat etamiz. U serfarzand krepostnoy dehqon oilasida dunyoga kelgani uchun ko‘z ochiboq ozodlik qadrini his etib o‘sdi. Yoshligi yugurdaklikda, navqiron yillari Kaspiy va Orolbo‘yi sahrolarida soldatlik bahonasi bilan quvg‘inda, tahkirlanib o‘tdi. She’riyat va tasviriy san’at unga ikki qanot bo‘lib, turmushning eng tubanliklaridan hayotning yuksak cho‘qqilariga ko‘tardi. K.Bryullov, M.Shchepkin singari otashin san’atkorlar bilan do‘st-ulfat qildi. Ayni vaqtda o‘z taqdirdosh xalqining mashaqqatli turmushi, erkak va ayol zamondoshlarining istibdod va madaniyatsizlik yuki ostida ezilib o‘tayotgan hayoti shoir ijodining mag‘zi bo‘lib qolaveradi. Ona Ukrainaning mustaqil va nurli kunlarga yetishini orzu qilar ekan, u hatto Rossiya imperiyasining eng yorqin timsoli bo‘lmish Pyotr I ga qarshi qalamini qurol qilib ko‘taradi. Shu bilan birga shoir «Kirill-Mefodiy birodarlari» jamiyati atrofiga yig‘ilgan yozuvchi, olim, o‘qituvchilar bilan do‘stlashadi. San’atshunos Kravchenkoning yozishicha, «Birodarlik» nizomining bir moddasi – «qullikka va yo‘qsullarni oyoq osti qilishning har qanday ko‘rinishlariga barham

berish, shu bilan bir qatorda keng ko‘lamda savod tarqatish» haqida talab qo‘yilgan modda Shevchenkoni ayniqsa maftun etgan edi».

Jamiyat siri ochilib qolganidan keyin shoir uning faollari bilan bir qatorda jazoga tortiladi. Lekin surgun yillarida ham, jazoni o‘tab, avval Nijniy Novgorod, keyincha Peterburgga qaytganidan keyin ham e’tiqodidan zarracha qaytmaydi. U hamon adolatli zamon haqidagi o‘z orzusiga ko‘p qurbon bermasdan yetishga intilardi. U hatto surgundalik paytida ham faollikni qo‘ldan bermay, o‘z davrining N.Ya.Danilevskiy, A.F.Pisemskiy singari doim yangilikka intilgan, ilg‘or kishilari bilan tanishlik orttirdi. Surgundan qaytgach esa, uni N.G.Chernishevskiy, I.S.Turgenev, N.S.Leskov, A.K.Tolstoy o‘z qatorlariga oladilar.

Tarixda bunday misollar ko‘p. Ammo tilga olganlarimiz orqali aytmoqchimizki, ijodkor hayoti faqat yozuv-chizuvlardan iborat emas, uni faqatgina estetik mushohada va go‘zallik izlash tashkil etmaydi. Chinakam yozuvchi turmushning achchiq-chuchuklarini o‘zi tatib ko‘radi, qanchalik rohatbaxsh yoki ozorbaxsh ekanini o‘zi baholaydi, o‘sha azoblarni bartaraf etish yo‘lini izlaydi, bu yo‘lda o‘z xalqining, hech bo‘lmasa bir zamondoshining yukini yengillatish, uni yorug‘likka olib chiqish uchun harakat qiladi.

Fikrimizning tasdig‘i sifatida rus dehqonining hormas kuychisi, mehnatkash xalq jonkuyari, shoir va noshir Nikolay Alekseevich Nekrasovni eslasak o‘rinli bo‘ladi. Nekrasov tabiatan bir-biriga hech o‘xshamagan, lekin keyincha va hozir ham jahon adabiyotining eng yorqin siymolaridan bo‘lib qolgan ikki ijodkorga dastlabki qadamlaridanoq yordam qo‘lini cho‘zib, adabiyot ostonasidan olib o‘tdi. Ularning biri – inson badiiy ruhiyatining teran tadqiqotchisi, ayni vaqtda Rossiyada siyosiy tuzumni demokratlashtirish va dehqonlarni yer bilan ta’minlangan holda ozodlikka chiqarishni orzu qilgan, Petrashevskiy jamiyatiga a’zo bo‘lgani uchun umrining o‘n yilini katorga va askarlikda o‘tkazgan Fyodor Dostoevskiy edi. Ulug‘ yozuvchining «G‘ariblar» deb atalgan dastlabki romani Nekrasov

tomonidan hayajon bilan kutib olindi va dunyo yuzini ko‘rdi. Oradan yetti yil o‘tgach, nomi hali kitobxonga ma’lum bo‘lmagan yana bir muallif – Lev Tolstoyning «Bolalik» qissasi Nekrasovning «Современник» jurnalida og‘alarcha quvonch bilan e’lon qilinib, muallifni uzoq yillar davom etgan ijodiy zahmat va shuhrat sahnasiga olib chiqdi.

Jahon madaniyati xazinasida o‘z nomini qoldirgan ijodkorlarni tilga olib, yuqorida yaqin va uzoq o‘tmishni xayolan bir aylanib chiqishimizdan maqsad bitta: ularning durdona sifatida tan olingan badiiy asarlari asrlar davomida yuzlab va minglab ilmiy tadqiqotlarda mahoratning eng yuksak cho‘qqisi sifatida tahlil etilib, o‘z munosib bahosini olgan bo‘lsa, o‘sha asarlar mualliflarining bir inson sifatida, faol yaratuvchi va adolat jangchisi sifatida, ijtimoiy hayotga yo‘nalish beruvchi kuch sifatidagi xizmatlari ham hamma vaqt adabiyotshunoslik fanining bosh mavzularidan biri bo‘lib kelgan.

Endi yuqorida keltirilgan misollardan bir oz chekinib, o‘z adabiyotimiz hududiga qaytadigan bo‘lsak, bemalol aytishimiz mumkinki, o‘zbek she’riyatining yorqin yulduzlari deb haqli suratda ulug‘langan, o‘zbek adabiy tilining beshigini tebratgan hazrat Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Boburga bag‘ishlangan tadqiqotlarning qariyb hammasida, qolaversa, ularning hayotiga bag‘ishlab yaratilgan katta yoki kichik she’riy va nasriy badiiy asarlarning barchasida ulug‘ salaflarimizning qiyofasi davlat arbobi, o‘z xalqini yorug‘ kunlarga boshlagan amaliyotchi sifatida ham o‘z yorqin ifodasini topgan.

Biz shu o‘rinda hech ikkilanmay ayta olamiz: inson va jamiyat taqdiri uchun qayg‘urish, arboblarcha fikr yuritishday fazilatlar biz faoliyatlari haqida hikoya qilayotgan o‘zbek jadidlariga o‘sha, o‘zimizning ustozlardan meros bo‘lib o‘tgandir. Xuddi shu boisdan ularning hayoti, xususan ijodiy-ijtimoiy faoliyatlari ham adabiyotshunoslik fanida hozirgacha jiddiy mavzulardan bo‘lib turibdi. Bu – birinchidan.

Ikkinchidan, biz tilga olgan davr, ya’ni XIX asr oxirlab, yangisi endigina ko‘z ochayotgan yillarga kelib, ijtimoiy fikr oqimlarining shiddati ma’lum darajada oshdi. Mahmudxo‘ja Behbudiy va Abdurauf Fitrat, Zokirjon Furqat va Muhammad Aminxo‘ja Muqimiy, Dilshod Barno va Sadriddin Ayniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy va Abdulhamid Cho‘lpon singari ko‘plab yangilik kuychilarini birin-ketin yetishtirgan muhit o‘z tuprog‘imizda unib-o‘sgan Munavvarqori Abdurashidxonov va Sattorxon Abdug‘afforov, Mulla Ikrom hamda Abdulla Avloniy kabi nur va adolatga chanqoq mutafakkirlar yoqqan bilim chirog‘i bilan anchagina ravshanlashib qolgan edi. Bu davraga sharqu g‘arb, shimolu janubdan Ismoilbey Gaspirali va Abay Qo‘nonboev, Mirza Fatali Oxundov va Cho‘qon Valixonov, Mustafo Cho‘qay o‘g‘li va Zaki Validiy To‘g‘on kabi o‘z zamonasining faol ziyolilarining ovozi bemalol yetib kelib turardi. Bu tutash ovozlarni esa, eskiroq ta’bir bilan yana bir bor aytganda, mamlakatni feodalizm botqog‘idan qutqarib olib chiqish va yangi izga solib yuborish, hozir quloqlarimiz o‘rganib qolgan ibora bilan aytadigan bo‘lsak, xalqlarimiz yashayotgan hududda huquqiy davlat barpo etish uchun da’vat deb bemalol atash mumkin.

Agar jadidchilik tarjimai holiga kengroq va chuqurroq nazar tashlaydigan bo‘lsak, jadidlar o‘z yurtlarini yangi ufqlar sari olib o‘tmoqchi yo‘lni ayni o‘sha davrda ro‘y bergan dunyo voqealari, xususan Yevropa va Rossiya voqealari ko‘zgusida aks ettira bilsak, ma’rifatchi ajdodlarimizning yana bir fazilati yorqin namoyon bo‘ladi.

O‘rta Osiyo Rossiya tomonidan istilo etilishi bilan Turkiston ijtimoiy va madaniy turmushiga yangi shabbodalar kirib keldi: avvalroq aytganimizdek, yangi me’moriy uslubda uylar qurilishi, taxta pol paydo bo‘lishi, teatrlar gastrolga kelishi hamon o‘rta asrchilik og‘ushida yashayotgan o‘lka uchun sezilarli voqea edi, albatta. Ayni vaqtda Rossiya osmonida ham begona bulutlar quyuqlashayotgan ediki, ularning biri – narodniklar harakatini eslatib o‘tishning o‘ziyoq fikrimizga ravshanlik kirita oladi.

XIX asr o‘rtalarida yuzaga kelgan bu harakat mamlakatning asosiy aholisi bo‘lmish dehqonlarni isyonga chorlash bilan o‘zini ko‘rsatdi. O‘z faoliyatiga asos sifatida endigina bosh ko‘tarib kelayotgan kapitalizm yo‘liga g‘ov solish, chorizmni ag‘darib tashlash g‘oyasini olg‘a surdi. Bu maqsad yo‘lida ular qotillikdan ham hazar qilmaydilar. Oradan o‘ttiz-qirq yil o‘tmay, hatto Rossiya imperatorining o‘zi, qurollangan narodniklar hujumidan qo‘rqib, Sankt-Peterburgdagi o‘z mahkamasiga kela olmay qoldi. Lekin ehtiyotkorlik hayf ketadi. 1881 yil martida u poytaxtning markazida, narodniklar bombasidan halok bo‘ladi. Jazo choralari beayov bo‘lishiga qaramay, terrorchilar xuruji avjlanaveradi. Qisqa mud¬dat ichida bir necha maorif va ichki ishlar vazirlari o‘ldirildi. 1901 yilda tashkil topgan sotsialist-inqilob-chi(eser)lar partiyasi narodniklar qo‘lidagi qurolni olib, ularning qonli izini davom ettirdi. Ko‘p o‘tmay, Vazirlar kengashi raisi Stolipin, hech hayiqmay, opera teatrida, shundoqqina podshoh ko‘z o‘ngida otib ketiladi.

Terror ham kasallikka o‘xshagan narsa: tez tarqaladi. Turkiston dehqonchilik o‘lkasi bo‘lgani sababli, tez orada eserlar rus qo‘shini tarkibida, shuningdek, temir yo‘l ustaxonalarining mutaxassislari va kosiblari sifatida bizning diyorimiz hududiga oqib kela boshladilar. O‘tgan asrning 10-15 – yillarida Toshkent, Mari, Ashxobod kabi o‘sha davrning yirik shaharlarida paydo bo‘lgan Chernevskiy, Stroganov, Rusanov, Petrenko, Koluzaev, Dorrer, Zimin, Doxov, Grinevich, Basharin, Bikov, Domogatskiy, Bezuglov singari yuzlab eserlarning nomini eslash mumkin. Ularning orasida partiya yetakchilari qamoq-jazo idoralari xodimlari, ofitser va kichik komandirlar, oddiy askarlar bor edi. Ularning hammasi partiyalarning XX asr boshidagi qurolli, inqilobiy to‘qnashuvlarida faol ishtirok etdilar. Muxoliflarni o‘ldirish va qamoqqa olishlar ko‘pincha shularning nomi bilan bog‘liq.

Jadidchilik harakati yuqorida g‘oyat qisqa tasvirlab o‘tganimiz alg‘ov-dalg‘ovli muhitda ko‘z ochgan edi. Lekin u qo‘lini ko‘ziga birinchi ko‘ringan qon to‘kuvchi qurolga cho‘zgani yo‘q. Shuni

nazarda tutib, dadil aytishimiz mumkinki, bizning jadid ajdodlarimiz jahon bilan muloqot imkoniyatlari g‘oyat cheklangan davrlarda ham, hech yanglishmay, jamiyat rivojining bosh yo‘li – ma’naviyat va ma’rifat yo‘lini tanlash orqali o‘zlarining yaratuvchilik niyatlarini tarixan halol namoyon eta olganlar.

Davrning shiddatli harakati jadidlardan siyosiy va huquqiy qarashlarini kundan-kunga yanada shakllantirib va rivojlantirib borishni taqozi etdi. Endi jadidlar ta’lim va tarbiya masalalarini chetga surib qo‘ymagan holda Turkistonning muxtoriyat davlat sifatidagi kelajagi haqida, bu davlatning siyosiy tuzilmalari, fuqarolarning insoniy huquqlari, so‘z erkinligi va demokratik jamiyat qurilishining boshqa muhim masalalari ustida bosh qotira boshladilar. Shu ma’noda «Turk adami markaziyat» partiyasi dasturida mujassamlangan jadidlarning davlat va jamiyat qurilishiga oid qarashlari ular dunyoqarashining yanada kengaygani va nazariy bahslardan amaliy ishlarga o‘ta boshlaganini namoyish etdi.

Shubhasiz, jadidlarning siyosiy-huquqiy qarashlarida mustaqil Turkiston davlatini qurish bilan bog‘liq rejalar o‘z aksini topmagan. Bunday maqsadni qo‘yish shu kecha va kunduzda erishish mumkin bo‘lgan dastlabki g‘alabani ham yo‘qqa chiqarish bilan baravar edi. Shu ma’noda, jadidlar o‘zlarining amaliy harakatlarida siyosiy hushyorlik namunalarini ko‘rsatib, kerak bo‘lgan vaqtda vaziyat talabi bilan kurash taktikalarini o‘zgartirib turdilar.

Jadidchilik harakati Turkiston xalqlarini mustaqil¬likka olib chiqa olmagan bo‘lsa-da, feodal qoloqlik va mustamlakachilik sharoitida mudrab yotgan xalqni uyg‘otib yubordi. Bu harakatning tarix oldidagi xizmati shundadir.

R.M.Abdullaev yozganidek, «1905-1906-yillarda Rossiya imperiyasi tarixida birinchi marta bo‘lib o‘tgan Butunrossiya musulmonlari qurultoylari va bu anjumanlarda qabul qilingan qarorlar Rossiya musulmonlarini yuqorida qayd etilgan vazifalarni bajarishga safarbar etdi. Musulmon olamidagi integratsiya jarayonlari, shuning-

dek, musulmonlarning dastlabki qurultoylarida ishlab ichqilgan taklif va tavsiyalar jadidizmni sekin-asta Turkistonda yashovchi yerli xalqlarning shakllangan siyosiy harakatiga aylanishiga olib kelmay qo‘ymadi. Turkistonning taraqqiyparvar jadidlari (Munavvar Qori, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Ubaydalla Xo‘jaev va boshqalar) dastlabki milliy ijtimoiy-siyosiy tashkilotlarning shakllanishida ishtirok etganlar».

O‘zbekistonda mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab jamiyatni isloh qilish va yangilash jarayonining eng muhim bo‘g‘ini, jamiyatdagi demokratik o‘zgarishlarning, iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning, respublikani jahon hamjamiyatiga integratsiya-lashuvining zarur va majburiy sharti sifatida ta’lim sohasini isloh qilish siyosati izchillik bilan amalga oshirila boshlandi. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni hamda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi qabul qilinib, bugungi kunda izchillik bilan amalga oshirilmoqda.

JADID ADABIYOTIDA OILAVIY QADRIYATLAR

Har bir jamiyatning taraqqiyoti shu jamiyatni tashkil etgan siyosiy, ijtimoiy va madaniy institutlarga bog‘liq. Jamiyat hayotiga ta’sir ko‘rsatadigan, uning kuchli va zaif tomonlarini namoyish etadigan shunday institutlardan biri oiladir.

Musulmon xalqlarining oilaga munosabati bilan bog‘liq masalalar va oila tizimining huquqiy asoslari Qur’oni karimda o‘zining mukammal ifodasini topgan. Jamiyat hayotidagi har bir masalaga jiddiy yondashgan jadid ma’rifatparvarlari ham bu masalani chetlab o‘tmadilar. Ularning jamiyat va xalq hayoti uchun g‘oyat muhim bo‘lgan bu masalani chetlab o‘tishlari mumkin ham emas edi. Jadid davriy matbuotida, shu jumladan, Behbudiyning «Oyna»sida oila masalalari hamisha diqqat markazida bo‘lgan. Afsuski, bu maqolalar hozirgi joriy imloda qayta nashr etilmagan. Shuning uchun ham, ularni maxsus o‘rganish uchun muayyan vaqt talab etiladi. Lekin

masalaning yana bir tomoni borki, Fitratning 1914-yili yozilib, 1915-yili nashr etilgan «Oila» kitobiga jadid ma’rifatparvar-larining bu masalada e’lon qilgan asarlari va maqolalarining ma’lum darajada mantiqiy yakuni sifatida qarash mumkin. Shunga ko‘ra, bu kitobda jadidchilik namoyandalarining oilaga oid huquqiy qarashlari o‘z aksini to‘la topgan, desak, yanglishmagan bo‘lamiz. Bu haqda fitratshunos olim H.Boltaboev yozadi: «Har qanday jamiyatda ham oila ijtimoiy taraqqiyot manbai va axloqiy tarbiya o‘chog‘i bo‘lib kelgan. Shuning uchun ham insoniyat ulug‘lari oilani nafaqat jamiyat, balki davlatchilik asoslarining qurilishida ham ilk maktab deb bilganlar. Milliy taraqqiyotga yuz tutgan mustaqil yurtimizda komil insonni tarbiyalash va huquqiy davlatchilik asoslariga poydevor qurish davrida 1998-yil oila yili deb belgilanganligi bejiz emas. Nafaqat ijtimoiy va siyosiy, balki ma’naviy va ma’rifiy ahamiyatga molik ushbu holni birgina islomiy oila timsolida anglash ham mumkin»[15]. Darhaqiqat, Fitratning oilaga nisbatan qarashlari zaminida Qur’oni karimdagi oilaviy munosabatlarning asoslari va oila tartibotlari haqidagi g‘oyalar yotadi. Bu kitob o‘z vaqtida taraqqiyparvar yoshlar tomonidan samimiy qarshi olingan va uzoq yillar davomida axloqiy qo‘llanma bo‘lib xizmat qilgan. Asarning 2000 yilgi nashriga yozilgan muqaddimada shunday so‘zlar aytilgan: «Jadidlarning fikri bo‘yicha, oila asosini to‘g‘ri qurmasdan va yosh avlodni to‘laqonli to‘g‘ri yo‘lda tarbiyalamasdan turib, jamiyatni isloh qilish, uning rivojini taraqqiyot sari yo‘naltirish mumkin emas va oxir-oqibatda millat taqdiri uning oilasining holatiga bog‘liq. Bu g‘oya Fitrat asarida o‘z ifodasini topgan: «Har bir millatning saodati va izzati, albatta, shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog‘liq. Tinchlik va totuvlik esa, shu millat oilalarining intizomiga tayanadi. qaerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va

[15] Шарқ юлдузи. – 1999. – 1-сон.

muazzam bo‘ladi»,- deb yozadi u. Fitrat asarda chuqur va keng bilimlarga asoslangani bois, o‘tkir mutahassis sifatida fikr yuritadi»[16].

Oila, Fitratning talqinida, uch muhim komponentdan iborat: er, xotin va farzand (farzandlar). Ana shu uch komponentning har biri nozik, o‘ziga xos jihatlariga ega. Chunonchi, er va xotin uchun uylanish (turmushga chiqish) asosiy muammo bo‘lishi bilan birga o‘zining muhim qirralariga ham ega. Fitrat oilaning huquqiy asoslarini yoritib berishdan avval «Uylanish va uylanmaslik hususida», «Nechta xotinga uylanish mumkin?», «Uylanmoq zarur bo‘lganda qanday xotinni tanlash lozim?» singari fasllarni o‘quvchiga havola etib, masalaning huquqiy tomonlaridan tashqari, ijtimoiy g‘oyat muhim tomonlarini ham yoddan chiqarmaydi. Gap shundaki, muayyan ijtimoiy, iqtisodiy va ma’naviy omillar tufayli tariximizning turli davrlarida ayrim yigitlar uylanmay, ayrim qizlar esa turmush qurmay o‘tganlar. Fitrat shu masala haqida iztirob bilan yozadi: «Faraz qilaylik, siz yeringizni biron bir dehqonga berdingiz. Ish asbob-anjomlarini ham berib, bug‘doy ekishni buyurasiz. Agarda o‘sha dehqon yerni olib, ekish asboblarini ham egallab, o‘z uyida bemalol o‘tirsa; ekin ekmasa, bir yil yeringizni o‘z holiga tashlab qo‘ysa, uning bu harakatini siz xiyonatdan boshqa narsa deb bilmaysiz, albatta. Uylanmaydigan odam ham jinsiy aloqa uchun berilgan kuch-quvvatidan foydalanmasa, yoki lut qavmining amalini qilsa, nafsini o‘zi so‘ndirsa, bilib qo‘ysinki, Alloh qonuniga xiyonat qilibdi.

Xotinlaringiz qizlarning ekinzor yerlaringiz bo‘ladi. Ziroat yerlari urug‘ sepganda samara beradi. Xotin ham ekinzordir va hosili – farzand. Bas, o‘z xotinlaringiz bilan farzand niyatida aloqa qiling va kelajakda o‘zlaringiz uchun farzand tarbiyalang. Xudodan qo‘rqing, uning nazariga ilinmangiz. Bas, tug‘ilish uchun visol bergan quvvatni soldirmang va zoe qilmang. Ey Muhammad, saodat mujdasini iymonlilarga bergin!»[17]

[16] Фитрат Абдурауф. Оила ёки оила бошқариш тартиблари. - Т.: Маънавият, 2000. – Б. 4.
[17] Кўрсатлиган китоб (бундан кейин ушбу китобнинг саҳифаларигина қавс ичида берилади). – Б. 11.

Bu satrlarni sharhlashdan avval shuni eslatib o‘tish kerakki, Fitrat oila va nikoh masalasiga, ayollarning jamiyatda tutgan o‘rni masalasiga o‘zi yashagan va shu satrlarni yozgan davr ruhidan kelib chiqqan holda munosabatda bo‘lgan.

Fitrat ko‘targan masalalardan biriga e’tibor qaratsak, erkak yo ayolning, qanday sabab bilan turmush qurmasligidan qat’iy nazar, birining uylanmasligi, ikkinchisining erga chiqmasligi tabiat qonuniga mutlaqo zid. Zero, har bir inson Ollohning xohish-irodasi bilan dunyoga kelar ekan, u o‘z ichki va tashqi imkoniyatlari bilan hayotning, hayotiy jarayonning davom etishiga hissa qo‘shishi lozim. U qoldirajak farzand esa hayotning davom etajagini anglatadi. Agar u o‘z umri davomida hayotning ana shu qonuniga amal qilmasa, hayot daraxtining kichik bir tomiriga bolta urgan bo‘ladi. Nasl qoldirish esa, Fitrat nazarida, serhosil yerga urug‘ sepish va hosil olishdir. Bu hosildan esa faqat dehqon (ya’ni ota)ning o‘zi emas, balki boshqalar ham, ya’ni jamoa yoxud jamiyat ham bahramand bo‘ladi.

Hayotning farzandlar tomonidan davom ettirilishi, Fitrat nazarida, faqat oila emas, balki millatning ham kuch-qudrati va sha’n-shavkatini belgilovchi omildir. «Masalan,- deb yozadi u,- belgiyaliklar va inglizlarni olamiz. Har ikkala millat a’zolari ishchan va harakatchandir. Lekin ko‘z oldimizga ularni keltirib muhokama qilsak, ko‘ramizki, ingliz millati Belgiya xalqidan yuz barobar ko‘proq kuch va shavkatu e’tiborga egadir. Qizig‘i shundaki, ingliz va belgiyalik millatlar o‘rtasida ilmu amal va sa’y-harakatda farq yo‘q. Unda shavkatu shon va izzat bobida shuncha farq qaerdan? Bu savolning javobini har ikkala millatning umumiy sonidan topsa bo‘ladi, ya’ni ingliz millatining aholisi 44 mln. va belgiyaliklar esa 7,5 mln ga yetadi. Shuning uchun ham, ingliz millatining umumiy sa’y-harakati va amali belgiyaliklarning sa’y va harakatlaridan bir necha marotaba unumlidir. Ingliz millatining kuchi va izzat-e’tibori ham ana shu sa’y va amallarning natijasidir. Shundan kelib chiqib, Ovro‘pa xukmdorlari o‘z millatlarining sonini ko‘paytirishga harakat qiladilar.

Ovro‘pa olimi o‘z xalqining nufuziga putur yetsa: «Ey! Mamlakatimizning sharafi va e’tibori qolmayapti. Millatimiz nest-nobud bo‘ladi. Sharafimizni, vatan va millatimizni himoya qilish uchun farzand yetishtiringlar» - deya dod soladi» (Oila, 13-bet).

Ko‘ramizki, oila va farzand masalasi erkak yo ayolninggina huquqiy masalasi emas. Farzand nafaqat ota-ona hayotining davomi, balki ayni paytda millatning ham iqtidori, obro‘ va e’tiborini belgilaydigan zanjir xalqasidir. Millat esa vatan, mamlakatning yuragi, demak. Millat son jihatidan qanchalik ko‘p bo‘lsa, u yashayotgan vatanning ham kuch-quvvati shu qadar ziyod bo‘ladi. Binobarin, oila masalasi millat-mamlakat-kishilik jamiyati degan uchlikni ta’minlab turuvchi muhim bir xalqadir.

Oila masalasi muhim o‘rin kasb etgan «O‘tkan kunlar» romani markazida nafaqat Otabek va Kumush muhabbati, balki Otabek va Kumushning baxti va fojiasining boisi bo‘lmish oila masalasi ham turadi.

Otabekning ota-onasi Yusufbek hoji bilan O‘zbek oyimning oilaga munosabati ikki xil bo‘lishiga qaramay, asar qahramonlari taqdirida otaning emas, balki musulmon olamida qabul qilingan taomilga ko‘ra, ikkilamchi ahamiyatga ega bo‘lgan onaning – O‘zbek oyimning tutgan pozitsiyasi muhim rol o‘ynaydi. To‘g‘ri, Yusufbek hoji ham Otabek orqali o‘z avlodining davom etishini xohlaydi. Lekin u o‘g‘lining esli-xushli yigit bo‘lib o‘sgani uchun unga o‘rinli-o‘rinsiz pandu nasihatlar berishni o‘ziga ep ko‘rmaydi. U Otabekka ishonadi. Uning uchun Otabekning Kumushni sevib uylangani va Kumushning o‘g‘liga munosib go‘zal va oqila xotin bo‘lgani muhim. Ammo O‘zbek oyimning bu masalaga – o‘g‘lining o‘zboshimchalik qilib, Marg‘ilonda uylanib kelganiga munosabati mutlaqo o‘zgacha. U o‘zining onalik or-nomusini toptalgan, deb hisoblaydi va Otabekka - Kumushning ustiga xotin olib berish vasvasasiga tushadi.

Undagi bu «isyon»ning paydo bo‘lishiga sabab uning tabiati va Toshkent xotinlari davrasidagi mavqei ediki, yozuvchi bu holni asarda

quyidagicha izohlaydi: «O‘zbek oyim elli besh yoshlar chamaliq, chala-dumbul tabiatlik bir xotin bo‘lsa ham, ammo eriga o‘tkirligi bilan mashhur edi. Uning o‘tkirligi yolg‘iz erigagina emas, Toshkand xotinlarig‘a ham om edi. O‘zga xotinlar uning soyasig‘a salom berib, to‘ylarida, azalarida, qisqasi, tik etgan yig‘inlaridag‘i uylarining to‘rini O‘zbek oyimg‘a atag‘an edilar. Bu birgina emas, siz chiqaraturg‘an, o‘g‘ul uylantiradirg‘an, sunnat to‘yi qiladirg‘an xotinlar o‘z to‘ylarini O‘zbek oyim kengashidan tashqari jo‘nata olmas edilar. O‘zbek oyim aralashgan to‘ylik xotinlarning ko‘ngillaridagi orzu xavaslari ham erlari tomonidan kamchiliksiz bajarilar, chunki, «O‘zbek oyim shundog‘ buyurdilar» degan so‘z erlar uchun ham farz kabi eshitilib, O‘zbek oyimning aytganicha, xozirlik ko‘rila boshlanar edi».[18]

Ana shunday onaning Marg‘ilondan uylangan farzandining taqdiriga aralashmasligi mahol edi. O‘zbek oyimning o‘z rejasini ro‘yobga chiqarish uchun ne-ne ishlarni qilmaydi: Otabekning Kumushdan ra’yini qaytarish maqsadida turli-tuman jodugarlarga uchraydi; o‘g‘liga kuchli ta’sir o‘tkazish uchun Yusuf hojidan ham foydalanadi; toshkentlik qizlar orasidan Zaynabni topib, xatto Otabekni unga uylantirib ham qo‘yadi.

Agar oila haqidagi nazariy-huquqiy qarashlar asosida bu asarga yondashsak, O‘zbek oyimning shu borada olib borgan xatti-harakati biror risolaga to‘g‘ri kelmaydi. Abdulla Qodiriyning O‘zbek oyim «ssenariy»si asosida kechgan Otabek hayotini tasvirlashdan maqsadi ham hayotga, ayniqsa, yosh avlod hayotiga chirik odatlar asosida aralashishning fojiali oqibatlarini ko‘rsatib berishdir.

Agar diqqat-e’tibor bilan qarasak, bu masala faqat 20-yillarga kelib Abdulla Qodiriy romanidagi o‘z tasvirini topmadi. Jadid dramaturgiyasining bir qator namunalarida, xususan, Hamzaning «Zaharli hayot» tragediyasida oilaning shaxs va jamiyat hayotidagi roli bilan bog‘liq muhim masalalar o‘rtaga tashlandi va tasvir etildi.

[18] Қодирий Абдулла. Ўткан кунлар. Меҳробдан чаён. – Тошкент, 1992. – Б. 105–106.

Fitratning «Oila» asarini yozgan paytida bor-yo‘g‘i 28 yoshda bo‘lgan. 1914-yilda shu yoshda bo‘lgan buxorolik bir yigitni ko‘z oldimizga keltirsak, uning nafaqat dunyodagi demografik vaziyat, balki oilaning falsafiy, huquqiy va shar’iy tomonlarini ham shu qadar puxta bilganidan xayratga tushamiz. Pol Demar degan fransuz sotsiologi, Fitratning shahodat berishiga ko‘ra, fransuz aholisining oxirgi 100 yil mobaynidagi son-salmog‘ini tadqiq etib, uni Yevropadagi boshqa xalqlar nufuzi bilan muqoyasa qilgan. Uning tekshirishlariga ko‘ra, XIX asrning boshlarida, aniqrog‘i, 1810-yilda Fransiya aholisi 28 mln., Angliya aholisi 10 mln., olmonlarning soni esa 18 mln. bo‘lgan. XX asrning 10-yillariga kelib, olmonlar soni 59 mln. ga, inglizlar hisobi 62 mln.ga yetibdi. Ammo Fransiya aholisi 39 mln.ga yetibdi, holos. Ya’ni 80-90 yil davomida olmonliklar 41 mln., inglizlar 52 mln.ga oshgan bo‘lsalar, fransuzlar 11 mln.gagina oshganlar, holos. Pol Demar bu manzarani ko‘rib: «Agar ahvol shunday davom etaversa, nafaqat biz vatan muhofazasidan, balki hayot orzusidan ham mahrum bo‘lamiz,- deya qayg‘uradi.- Bugun biz, fransuzlarning mamlakati va millati jar labiga kelib qolgan, bu chuqurga tushib ketishimizga oz qolibdi» (Oila, 14-bet).

Agar ana shu mavzu atrofida mulohazaa yuritadigan bo‘lsak, masalan, inglizlarning 80-90 yil ichida 10 mln.dan 52 mln.ga oshishi Buyuk Britaniyaning shu davrdagi mustamlakachilik siyosati bilan ham bevosita bog‘liq. Buyuk Britaniya xuddi shu davrda ko‘plab mamlakatlarni o‘ziga tobe qilibgina qolmay, o‘z xalqining son jihatdan o‘sishi ustida ham jon kuydirdi. Uning har tomonlama o‘sib, kamol topishi uchun barcha shart-sharoitni yaratib berdi. Xuddi shu davrda Rossiya ham o‘z chegaralarini kengaytirib, Kavkaz va O‘rta Osiyo kabi zabt etgan xududlariga rus millatiga mansub kishilarni ko‘chirib, ular sonining oshishiga imkon tug‘dirdi. Sovet davlati esa Chor hokimiyatining mustamlakachilik siyosatini davom ettirib, bu xududlardagi ruslar sonini yanada oshirish bilan kifoyalanibgina qolmay, yerli xalqni ham muntazam ravishda ruslashtirib bordi.

Natijada, o‘zining milliy tilini unutgan ruszabon o‘zbeklar, qozoqlar va boshqalar paydo bo‘ldi hamda ko‘paydi. Ayni paytda, O‘rta Osiyodan minglab oilalar «quloq» qilinib, boshqa o‘lkalarga yuborildi, o‘n minglab «millatchi va aksilinqilobiy tashkilotlar»ning a’zosi deb taxmin qilingan kishilar abadiy muzliklar maskaniga yuborilib, qirib tashlandi. Bu faktlar ham Sovet davlatining o‘zak millati bo‘lgan ruslarning, aniqrog‘i, kommunizm g‘oyasiga xayrixoh ruslarning jahon miqyosidagi salmog‘ini oshirishga qaratilgan tadbirlar natijasidir.

Xullas, oila masalasi ana shunday jahonshumul oqibatlar bilan bog‘liq masala sifatida Fitratning diqqat-e’tiborini o‘ziga qaratdi. Ammo son, miqdor - hali sifat emas. Xalqning soni ko‘p bo‘lishi, ammo uni tashkil etuvchi kishilar ishyoqmas, tepsa tebranmas kimsalar bo‘lishi ham mumkin. Bu dunyo esa, Fitrat talqinida, «bir umumiy sinov maydoni»dir. «Odam, - deb yozadi Fitrat,- ota-ona tarbiyasi doirasidan chiqar ekan, hayotini davom ettirib, izzat va sharafga ega bo‘lish uchun majburan shu maydonga kiradi, sa’y-harakat qiladi, yo o‘z maqsadiga erishadi yoki sharafsiz va xor bo‘lib qoladi. Qaysi millatning namoyandalari sa’y-harakat egasi bo‘lsalar, qo‘l-oyog‘i kuchli va chaqqon, hamma a’zolari sog‘ va faol, izzat va e’tibor sohibi bo‘ladilar... Uylanish sunnatini qabul qilgan kishi xotin va bola-chaqasini tarbiyalab bosish uchun o‘zini kasb-korga uradi, harakat va amal yo‘liga qadam qo‘yadi... Qaysi millatning namoyandalari shu yo‘l bilan tinchlik va totuvlikka erishgan bo‘lsalar, o‘sha millat hurmat va xotirjamlikda bo‘ladi».[19]

Fitrat ana shunday mulohazaalardan keyin «uylanish - odamlarning zaruriy va tabiiy amri», degan xulosaga keladi. Fitrat tasnifiga ko‘ra, oila – millatning kichik bir tarmog‘i. Bir necha oila bir qavmni tashkil etadi. Agar bir qavmning har bir oilasi saodatli bo‘lmasa,- deydi Fitrat,- o‘sha qavmni baxtiyor, deb atash mumkin emas. Agar bir oilaning har bir a’zosi baxtli bo‘lmasa, bu oilani baxtli

[19] Кўрсатилган китоб. – Б. 14-15.

hisoblash xatodir. Binobarin, millatning saodati, har bir qavmning saodati har bir oilaning saodatiga, har bir oilaning saodati esa, uning har bir a’zosiga bog‘liq. Modomiki, shunday ekan, oilaning har bir a’zosi to‘g‘risida qayg‘urish ham qarz, ham farzdir.

Fitrat masalaning xuddi shu nuqtasiga kelganda erkak nechta xotinga uylanishi mumkin, degan masalaga javob berishga urinadi. Binobarin, Fitrat uchun millat - qavm – oila - oilaning har bir a’zosining saodatli bo‘lishi muhim ekan, demak, necha xotinga uylanish mumkinligi masalasi ham ana shu masala doirasida, shu masala bilan uzviy munosabatda hal etilishi lozim: «Ikkixotinlilik (ko‘pxotinlilik) zarar keltiradigan hamma yo‘llari yopilsa to‘g‘ridir, ya’ni shunday tartib o‘rnatilsinki, ko‘pxotinlilikka ijozat bo‘lib, birinchi muqaddimada zikr etilgan zararlar oldi olinsin. Bunday tartib yo qonunni bizlarga kim tayin etadi? Islom dini. Haqiqatda ham, Islom dini bisyor barkamol din bo‘lib, tabiat qonuniga muvofiqdir. Foydani zarardan adolat bilan kam-ko‘stsiz ajratadi. Odamlarga nimaiki foyda keltirsa, ijozat berib, zarar keltiradigan narsalarni man’ qiladi» (Oila, 18-bet). Yuqorida keltirilgan ko‘chirmada «birinchi muqaddima» degan kalima tilga olingan. Shu muqaddimada Fitrat birinchi nikohdagi ayol to‘g‘risida bir-ikki so‘z aytgach, quyidagilarni yozadi: «Ayolning tarovati va yoshligi sizning muhabbatingiz va mehringiz yo‘lida sarf bo‘lgandan so‘ng sizning hayvonlik shahvatingiz uyg‘onib, harakatga keladi. Nafsingiz orom topishi uchun u xotin sizga kifoya qilmaydi. Boshqacha qilib aytganda, saodat va baxtiyorlik umidi bilan yoshlik ayyomini sizning orzu-havaslaringizga ado qilib, ikki-uch farzand ko‘rgan xotinni qo‘yib yuborib, «so‘fi» nomini olib, yangi xotin olasiz. Bu – va’daga xilof va xiyonatdir. Yangi xotinga butunlay berilib ketasiz, birinchi xotinni va hayotingiz mevalari bo‘lgan farzandlaringizni shuuringizdan chetlashtirasiz. Tabiiyki, o‘sha xotin farzandlari bilan birga sizga bo‘lgan muhabbatini yo‘qotadi. Sizdan va yangi xotiningizdan nafratlanadi. Vaqt o‘tishi bilan yangi xotindan ham bir-ikki farzand

tug‘ilgach, bu o‘zaro nafrat yanada kuchayadi... Shunday ekan, oila a’zolari orasida muhabbat ko‘tarilsa, vayronlik, tarqoqlik va intizomsizlik kelib chiqadi...» (Oila, 16-bet)

Fitrat yozadiki, «oila a’zolari orasida muhabbat ko‘tarilsa, vayronlik, tarqoqlik va intizomsizlik kelib chiqadi». Vayronlik, tarqoqlik va intizomsizlik deb aytgan narsalar oilani kemiradi, bir otaning ikki xotindan bo‘lgan farzandlari onalari boshchiligida dushmanga aylanadi, urush-janjal, isitish-sovutish va munofiqlik ilonlari oilani chirmab tashlaydi. Fitrat ana shunday zararlarning oldi olingan taqdirdagina qayta uylanishni mumkin, deb tushunadi.

Ko‘ramizki, Fitrat nikoh va oila singari ma’naviy-huquqiy hodisalarga yondashganida ham o‘zining inson qalbini tushunuvchi, shu qalb orzu va armonlarining kuychisi bo‘lgan inson ekanligini yoddan chiqarmaydi va masalaga insonparvar, millatparvar va yurtparvar yozuvchi sifatida yondashadi.

Oila va nikoh to‘g‘risida so‘z borar ekan, shak-shubhaqiz, oilaning buzilish sabablarini va uni mustahkamlash yo‘llarini ham bilish zarur. Shuning uchun ham, Fitrat uylanish uchun to‘rt narsaga e’tibor berishni talab etadi: mol, nasab, husn va imonu e’tiqod. Buni quyidagicha tushunish lozim:

1. Uylanish orzusida bo‘lgan er bilan xotinning mol (boylik)lari va nasablari, taxminan, bir xil bo‘lishi lozim. Aks holda ular hayoti azobda o‘tadi.

2. Husn, garchand tashqi fazilat bo‘lsa ham kishi qalbini o‘ziga moyil qilish huquqiga ega; agar ana shu qalbiy moyillik paydo bo‘lmasa, er bilan xotin saodatli umr kechirmaydi.

3. Er va xotin dindor bo‘lishi lozim. Dindorlik – Xudoni tanish, bilish va Haqdan qo‘rsishdir. Husni axloqning asosi va mezoni Xudodan qo‘rqish va Haqni bilishda, ya’ni dindorlikdadir.

Har bir oila poydevorining mustahkam bo‘lishi turli ijtimoiy, ma’naviy, iqtisodiy va maishiy omillarga bog‘liq. Risola muallifi baxtli, va ayniqsa, baxtsiz oilalar hayotiga nazar tashlab, kitobxonga

ibrat bo‘lishga arziydigan hayotiy misollarni keltiradi hamda ularning oilani yemirishdagi faol ishtirokini chuqur tahlil etib beradi.

Oilaning mustahkam bo‘lishi, Fitrat nazarida, quyidagi omillarga bog‘liq:

1. Iffat va mo‘minlik. Qur’oni Karim erkak va ayollarga diyonatli va nomusli bo‘lishni buyuradi: «Ey, Muhammad! Ahli islom erkaklariga aytgin: oshkor va yashirin ko‘zlarini haromdan yopsinlar va nafslarini haromdan tiysinlar... Ayollarga ham aytgin: ko‘zlarini va o‘z nafslarini haromdan saqlasinlar».

2. Fayrat. «Modomiki, iffat va nomusning himoyasi erkak va xotinlar bo‘ynida farz ekan, bas, ulardan har qaysilari ikkinchi tomonni haromdan qaytarish huquqlari bordir. Ularning ana shu ishlarini «g‘ayrat» deydilar.

3. Visol. Er-xotinlikning birinchi maqsadi farzand, bu maqsadga erishishning vositasi va sababi visoldir.

4. Murosai madora. Er-xotin uzoq yillar birga bo‘lib, shodlik va g‘amni birga baham ko‘radilar. Ammo shunday ham bo‘ladiki, bir tomon xato harakati yo qo‘pol muomalasi bilan oila imoratini shikastlantirib qo‘yadi. Shunda ikkinchi tomon undan o‘ch olmay, murosai madora yo‘lini tanlasa, shikastlangan imorat qulab tushmaydi.

«Oila» – ikki qismdan iborat risola. Agar yuqorida qayd etilgan masalalar risolaning birinchi qismini tashkil etsa, ikkinchi qismi oilaviy tarbiya va oila a’zolarining huquq va burchlari masalalariga bag‘ishlangan.

Fitratning nazarida, maktabgacha bo‘lgan yoshlar tarbiyasi to‘rt masalani o‘z ichiga oladi. Bular:

1.Farzand tarbiyasi.

2.Badan tarbiyasi.

3.Aqliy tarbiya.

4.Axloqiy tarbiya.

Ana shu tarbiya turlari asosida parvarish topgan bola kelajakda o‘zidagi yaxshi fazilatlarga oziq berish imkonini topishi va ota-onaning obro‘siga obro‘ qo‘sha oluvchi kishilar bo‘lib o‘sishi mumkin. Ayni vaqtda, Fitrat ota-ona, yetim-yesirlar va xizmatkorlarning oiladagi mavqelaridan kelib chiqqan haq-huquqlari ustida ham to‘xtalib o‘tadi. Risolada zikr etilgan tarbiya turlari singari, bu haq-huquqlarni tushuntirishda ham islom dini qonun-qoidalariga tayanadi.

«Oila», bir qarashda, Qur’onning shu masalaga doir oyat va suralari talqini bo‘lib ko‘rinsa-da, muallif unda islomiy aqidalarni bir nuqtaga jalb etibgina qolmay, o‘ziga zamondosh bo‘lgan jamiyat e’tiborini har qanday millat taraqqiyotini belgilovchi oila masalasiga qaratgan, shu oilaning jamiyat hayotidagi rolini oshirishga intilib, ko‘pxotinlikni zararli an’ana sifatida qoralash, qizlarni o‘qitish, maktabgacha bo‘lgan yoshlarning oilalarida to‘g‘ri tarbiya olishiga ko‘maklashishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan va bu maqsadga erishgan.

Fitratning oila bilan bog‘liq qarashlaridagi muhim nuqtalardan biri muqaddimadagi mana bu so‘zlardir: «Oila er, xotin va farzandlardan iborat. Boshqacha qilib aytganda, oila bir shaxs boshchiligida bir uyda yashovchilardir. Shu ta’riflardan ma’lum bo‘ladiki, oila ham bir necha odamlardan iborat bo‘lgan jamoa ekan. Ularning har biri insonga xos narsaga, ya’ni o‘z manfaatlariga asir bo‘ladi. Biri ikkinchisining huquqini tasarruf qilib bosib olishi mumkin. Ana shu tajovuz oldini olish uchun oila a’zolari o‘rtasida ham bir sonun lozim « (Oila, 8-bet).

Fitratning e’tirof etishicha, o‘tgan olimlar-u hakimlar shu masalada g‘ayrat qilib qonunlar ishlab chiqishgan. Lekin davrlar o‘tishi bilan muayyan qonunlar eskirgani va o‘z kuchini yo‘qotganidek, oila va oila a’zolarining huquq va burchlari masalasiga ham yangicha yondashuv, yangicha munosabat taqozo etiladi. Zero, oila oxir-oqibatda millat va davlatning mavqeini belgilab beradi.

Millat va davlat esa uzoq yillar va davrlar mobaynida shakllanadi va shu davrlarda yangilanib boradi. «Xalqning harakat qilishi, davlatmand bo‘lishi, baxtli bo‘lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo‘lishi, zaif bo‘lib xorlikka tushishi, faqirlik jomasini kiyib, baxtsizlik yukini tortib e’tibordan qolishi, o‘zgalarga tobe, qul va asir bo‘lishi bolalikdan o‘z ota-onalaridan olgan tarbiyalariga bog‘liq... Bu dunyo kurash maydonidir. Bu maydonning quroli sog‘lom jismu tan, aql va axloqdir...»

Sharq odatda o‘z farzandlarining axloqi bilan Farb oldida g‘ururlanadi. Ammo Fitrat bu borada boshqa fikrga ega. U yozadi: «...Lekin ana shu qurol-aslahasi sinib, zang bosib, chirib ketgan. Shunday qurollar bilan bu dunyoda bizga na saodat va na rohat bor. Balki... ha, bizga ana shu qUruq hayotga ham yo‘l bermaydilar. Agar saodat, izzat, osoyishtalik, rohat, sharaf, nomus va e’tibor kerak bo‘lsa, tezroq avlod tarbiyasi usullarini bilib olib, bolalarimizni shu uqul va soidalar asosida tarbiya etishimiz lozim» (Oila, 60-bet).

«Oila» yozilgan 1914-yilda hozirgi O‘zbekiston Chor Rossiyasining mustamlakasiga aylanib bo‘lgan, xalqning Fitrat singari mutafakkir yoshlari el-yurtini ana shu botqoqlikdan olib chiqish, uni ma’rifatlashtirish va hurriyat ne’matlaridan bahramand etish maqsadida jadidchilik harakatini yuzaga keltirgan edilar. Xuddi shu davrda ularning, binobarin, millatning ham asosiy vazifasi nafaqat islomiy g‘oyalar, balki, millatparvarlik, erkparvarlik, taraqqiy-parvarlik, ilmparvarlik g‘oyalari asosida ham shakllangan avlodni tarbiyalash edi.

Fitratning «Oila» risolasi ana shu avlodni tarbiyalashga qaratilgan, o‘zigacha o‘tgan olimlaru hakimlarning asarlari umumiy hay’ati - «manzil tadbiri», - ya’ni «ro‘zg‘or tebratish tadbirlari»dan farq qilgan asardir. Shuning uchun ham, unda huquqiy mezonlarga qaraganda ma’naviy-falsafiy masalalar talqini ustuvorlik qiladi.

Oila masalasi Oktabr to‘ntirilishiga qadar bo‘lgan davrda Islom ta’limoti asosida talqin qilinib keldi va shu davrda Fitrat risolasi

dasturulamal vazifasini o‘tadi. Oktabr to‘ntarilishi bilan islom dini ham quvg‘in ostiga olindi va shu davrda oila masalasiga qaytish zarurati kuchaydi. Davrning ana shu talabi bilan Said Ahroriy oila mavzuida bir necha risolalar yaratib, Fitratning oila masalasidagi qarashlarini konkretlashtirish va rivojlantirishga erishdi.

Said Ahroriyning oila mavzuiga bag‘ishlangan turkum maqolalari 30-yillar arafasida «Xotin-qizlarimizga tortiq» degan nom ostida nashr etildi. Ammo bu nom ostida chop etilgan risola S.Ahroriy rejalashtirgan oila kitobining birinchi qismidir. «Sovg‘a» deb atalgan ikkinchi qism, afsuski, hozircha topilmagan.

S.Ahroriyning bu risolasi bilan bog‘liq o‘zbek xotin-qizlarining XX asr boshlaridagi taqdiri haqida tasavvur beruvchi quyidagi lavhaga e’tibor bersak: «Mundan bir necha yil muqaddam o‘z aqrabolarim orasida shunday yuz ochuv rasmi bo‘lub o‘tmish edi. O‘shal rasm bo‘laturgan kuni man bir uyning derazasidan qarab turgan edimki, ko‘zlari yoshla bir necha xotinlar ko‘rpaga o‘ralgan bir narsani go‘shanga (chodir) tortilgan uydan ko‘plashub olib chiqdilar. Ko‘z oldimni xotinlar to‘suvi sababli eshikni yopub, yorug‘idan ohistagina diqqatlab qarab turdim. O‘choqqa zo‘r o‘t yoqub, qozon osdilar. Qozonga bir qadoq chamasi zig‘ir moy soldilar. Bir tarafdan o‘choq boshiga bir sufra yozub, ichiga biror taboq un soldilar. Darrov besh-o‘n dona cho‘bchirog‘ hozirlab, ikki-uch dona shag‘amlar ila cho‘bchirog‘larni yondurub, sufradagi unga suqub qo‘ydilar. Shul ishlar qiling‘andan so‘ng otunoyim kitobini qo‘ltug‘lab sufra boshiga o‘turub, boyagi ko‘rpaga o‘ralgan narsani yerga kelturdi va o‘z qo‘li ila ko‘rpani ochdi. Ba’zi xotunlar ohista-ohista ho‘ngrab yig‘lab yubordilar va ko‘rpa ichidagi harakatsiz gavdaning boshini ko‘tarub qo‘ydilar. Shu holda bildimki, bechora kelinning navnihol g‘uncha hayoti xazoni margg‘a mubaddal bo‘lub, o‘lum yo‘ldoshi bo‘lgan ekan. Badanim seskanub ketub, ko‘zimni zulmat qopladi. Haqiqatni bilmak uchun yana qarab turdim. Alhosil, ul jasadning qo‘llari ila undan changallatub qozonga soldirdilar va o‘choqg‘a ta’zim

qildirdilar. Otin oyim jasadga qarab: «Endi eringizning haq-xizmati bo‘yningizdan soqit bo‘ldi. Sizdan qaynota, qaynonalaringiz ham rozi bo‘ldi,» – dedi. Bundan so‘ng ul bechoraning ruhsiz jasadini yana ko‘rpaga o‘rab, go‘shangalik uyga olub kirdilar...»[20]

Bu daxshatli hikoya Hamzaning «Bid’atmi? Majusiyatmi?» degan publitsistik maqolasidan olindi. Biz garchand bu lavhaga nisbatan hikoya so‘zini ishlatgan bo‘lsak-da, Hamza uni xalqimiz orasida o‘zi ko‘rgan bid’at va majusiyat ko‘rinishlaridan biri, deb atagan va shunday talqin qilgan. Agar bu maqolaning 1914-yili «Sadoi Turkiston» gazetasida chop etilganini nazarda tutsak, demak, xotin-qizlarga nisbatan shunday haqoratli munosabat o‘sha davrda mavjud bo‘lgan.

Jadidlar o‘zlarining xotin-qizlarga, oilaga bo‘lgan munosabat-larida Qur’oni karimdagi huquqiy qarashlardan kelib chiqqan holda voqelikdagi majusiylik davridan qolgan shunday illatlarga qarshi keskin kurash olib bordilar. Ular xotin-qizlarning Qur’onda ko‘zda tutilgan huquqlarini qattiq himoya qildilar. Lekin davrlar o‘tishi va 1917-yil voqealaridan keyin o‘zgacha bir davrning kelishi va xotin-qizlarni huquq borasida erkaklar bilan tenglashtirilishi natijasida oila masalalariga bag‘ishlangan yangi risola va kitoblar yaratilishiga ehtiyoj tug‘ildi. S.Ahroriy ana shu ehtiyoj taqozosi bilan o‘zining ikki qismdan iborat oila kitobini yaratdi. «Xotin-qizlarimizga tortiq» deb nomlangan birinchi risolada biz jadidchilik harakati namoyanda-larining xotin-qizlarga bo‘lgan munosabati zamonaviylashgani, madaniylashgani va latiflashganini ko‘ramizki, bu muallifning «sevimli rafiqa»siga bag‘ishlangan va shu risoladan joy olgan quyidagi satrlaridanoq sezilib turadi:

Yo‘qsilliklar, ayriliqlar mani butun ezganda...
Yolg‘izlikning nashtarlari yuragimni teshganda,

[20] Ҳамза Ҳакимзода Ниёзий. Тўла асарлар тўплами. Беш жилдлик. 4-жилд. – Т.: Фан, - 1989. - Б. 233-234.

Hayotimning bahorini sen keltirding birlikda,
Sen kelgan kun ruhim teran sevgilar-la bezandi[21]

Risola so‘zboshidan tashqari, «Nima qilish kerak?», «Bir kunning ishlari», «Xafta va oy ichida», «Og‘ir ishlar» va «Tasarrufga rioyat» degan maqolalardan iborat bo‘lib, ularda yangi turmush qurayotgan xotin-qizlarga ularning oiladagi burch va vazifalari haqida tushunchalar beriladi. Risolaning «Tasarrufga rioyat» deb nomlangan faslida S.Ahroriy har bir oilada qandaydir kam-ko‘st, ehtiyoj bo‘lishi mumkinligini aytib, xotin-qizlarning shunday sharoitda vijdonlarining buyruqlariga toqat ko‘rsata olmay, nafslariga tobe’ bo‘lishlari mumkinligini aytib, yozadi: «Misol: ba’zi odamlar bordirki, taqdirlari, kiyimlari, uylari, joylari, deganlari, ishlari bordir. Lekin ehtiyojdan qutila olmaslar. Ehtimolki, bunday odamlarning ham boshqa ehtiyojlari bordir. Negakim, bunlarning o‘qimoqlari, bolalarni o‘qitmoqlari, sayohatga chiqmoqlari bordirki, bunday ishlarning manfaati o‘zlaridan boshqa xalq uchun ham zarurdir. Xalqning ehtiyoji esa ulug‘dir, muqaddasdir. Mamlakatimizning abadiyligi, xalqimizning taraqqiysi uchun bizda ehtiyojdan ko‘p nima bordir? Demak, anglashiladiki, siz xonimlar, ehtiyoj ichida ezilib qolsangiz, uyingiz vayron va yurtimiz parishon bo‘ladir. Binobarin, ehtiyojni bo‘ldirmoq uchun bor aslingizni, bor kuchingizni sarf etingiz»[22].

Ko‘ramizki, jadidlarning xotin-qizlarga, ularning oila va jamiyatda tutgan o‘rniga bo‘lgan qarashlari davrlar o‘tishi bilan mukammallashib bordi. Hamza maqolasida tasvirlangan xotin-qizlarga nodonlarcha munosabatning o‘zgarishi, xotin-qizlarning erkaklar bilan qariyb teng huquqli bo‘lishida jadidlarning xizmati ulkandir.

Oilaning ijtimoiy, huquqiy va ma’naviy asoslari islom dini tomonidan qanchalik aniq va to‘la belgilangan bo‘lsa-da, XX asrda – taraqqiyot asrida o‘zbek xalqining ijtimoiy va ma’rifiy yuksalishi

[21] Саид Аҳрорий. Танланган асарлар. – Т.: Маънавият, 2001. – Б. 72.
[22] Кўрсатилган асар. – Б. 84.

uchun dunyoviy bilimlarni egallash tarixiy zaruratga aylandi. Modomiki, jadidlar o‘z oldilariga Turkiston aholisining tarixiy taqdirini o‘zgartirish vazifasini qo‘ygan ekanlar, buning uchun faqat oila poydevorini mustahkamlash, oilaning jamiyat hayotidagi rolini oshirishning o‘zi kamlik qilardi. Negaki, mahalliy aholi nafaqat XIX asrning 60-yillarida boshlangan mustamlakachilik, balki so‘nggi uch asrda ro‘y bergan ijtimoiy tanazzul, qudratli davlatning parchalanishi, o‘zaro taxt uchun kurashlar, xon va amirlarning maishatparastligi va hokazolar orqasida xalqning iqtisodiy ahvoli ayanchli bir holga tushgan edi. Afsuski, xalq o‘zining qanday mudhish hayot iskanjasida yashayotganini ko‘rish qobiliyatini yo‘qotgan yoki bunga ko‘nikkan edi. Shuning uchun ham, jadid shoir va yozuvchilari xalq hayotining sharmandali lahzalarini o‘z asarlarida tasvirlashga va shu orqali uning ko‘zini ochishga intildilar. Bu davrda birorta jadid yozuvchisi va jurnalisti bo‘lmadiki, u hayotning achchiq haqiqatini tasvirlovchi asar yozmagan bo‘lsin. Cho‘lpon «O‘zbeklar va Turkiston» singari she’rlar yozibgina qolmay, «Qurboni jaholat» va «Do‘xtir Muhammadyor» hikoyalarida jaholat lavhalarini yorqin tasvirlab berdi. Shu davrdagi maqolanavislikning asosiy tig‘i ham mazkur masalaga qaratildi.

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY VA ABDURAUF FITRAT TOMONIDAN TAYYORLANGAN SIYOSIY-HUQUQIY HUJJATLAR

XX asrning boshlarida Turkiston jadidlari faqat badiiy ijod, ilmiy faoliyat, maktab va maorif islohoti masalalari bilangina emas, ayni paytda davlat qurilishiga oid siyosiy-huquqiy masalalar bilan ham shug‘ullandilar. Buni o‘sha davrdagi tarixiy sharoit, xususan Turkiston aholisining hatto ilg‘or qismida ham huquqiy bilimning yo‘qligi yoki yetishmasligi taqozo etdi. Shu davrda maktab yoki biror uyushma (tashkilot) ochmoqchi bo‘lgan kishilar hatto buning uchun kimdan ruxsat olish va kimning nomiga ariza yozish masalasida ham qiynalib, murakkab vaziyatga tushib qoldilar. Maktab, yoki uyushma,

yoxud jamiyat ochgan kishilar esa bu maktab, yoki uyushma, yoxud jamiyatning keyingi faoliyatini tashkil etishda ojizlik qildilar. Vaziyatning ana shunday tus olganini ko‘rgan Munavvar qori Abdurashidxonov 1914-yili «Sadoi Turkiston» gazetasining 14-iyun sonida «Jamiyatlar qanday ochilur» degan maqola bilan chiqishga majbur bo‘ldi.

«Maktabni ochub qo‘ya qolg‘on ila ish bitmasligi, balki aning farqi va davomi uchun moddiy va ma’naviy yordam va ma’svanatlar, g‘ayrat va himmatlar lozim ekanligi onglashilmishdir. Buning uchun eng yaxshi chora o‘laroq «jamiyat»ni tuzmishlar. Ya’ni rasmiy bir qonun doirasinda xalqdan iona yig‘ib, ochilmish va ochiladurg‘on maktab va dorululumlarning nuqson va ehtiyojlarni yengillik ila isloh qilmoq va ado qilmoq usulini ijod etmishlar...

... Binoanalayh hozirda bizim Turkiston taraqqiyparvarona ko‘proq shul maktab va jamiyat atrofida aylanmakdalar. Lekin bu maktab, jamiyatlarni ochmak uchun qanday tadbirlar lozim? Hukumatdan qaysi yo‘l ila ijozat olinur? Qanday ustav va prog‘ramlar ila ochmak foydali bo‘lur?..» (Munvvar qori Abdurashidxonov. Tanlangan asarlar. – T., Ma’naviyat, 2003. –B. 161).

Munavvar qori mazkur maqolasida, masalan, maktab yo jamiyatni ochish uchun ishni nimadan boshlash, maktab yo jamiyatning nizomini qanday tuzish va kimning nomiga ariza yozish hamda bu bilangina kifoyalanmay, tegishli idoralarga bir emas, bir necha marotalab qatnash lozimligini aytgan.

Tarixiy davrning o‘zgarishi bilan kishilarda ibtidoiy huquqiy bilimning yo‘qligi, ayniqsa, yaqqol sezildi va shunday bilimga xalq ommasida katta ehtiyoj paydo bo‘ldi.

Ana shunday sharoitda jadidlar xalqqa ibtidoiy huquqiy ma’lumotlar berish bilan birga jamiyatning huquqiy normalarini ishlab chiqishga ham alohida e’tibor berdilar.

XX asr boshlarida Turkiston xalqlarining milliy manfaatlarini chor hukumati oldida himoya etish uchun kamida Rossiya Davlat

Dumasining yoki Toshkent shahri aholisining ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etish yoki ko‘tarish uchun esa kamida Toshkent shahar Dumasining a’zosi bo‘lish lozim edi. Chor hokimiyati yillarida markaziy va mahalliy Davlat Dumalariga a’zo bo‘lgan yerli xalq vakillarining hammasini ham o‘zlarining el-yurt oldidagi burchlarini bajargan, deb bo‘lmaydi. Lekin ular orasida Mahmudxo‘ja Behbudiy singari xalq va mamlakat dardi bilan yashagan siymolar bor ediki, ular Davlat Dumasining a’zosi sifatida samarali faoliyat olib bordilar.

2001-yili Haarlem (Gollandiya)da nashr etilgan «Turkistonda yangilik harakatlari va ixtilollar. 1900-1924» degan to‘plamdan ma’lum bo‘lishicha, Mahmudxo‘ja Behbudiy 1907-yilda Rossiya 3-Davlat Dumasi yig‘ilishida ko‘rib chiqish uchun «Turkiston madaniy muxtoriyati loyihasi»ni tayyorlagan va bu «Loyiha»ni Davlat Dumasining Musulmon fraksiyasiga topshirgan ekan. Buxoro Xalq Sovet Respublikasining sobiq Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi raisi Usmon Xo‘jaev (Usmon Xo‘ja, 1878-1968) xotirasiga bag‘ishlangan ushbu to‘plam uning farzandi doktor Temur Xo‘jao‘g‘li (Temur Xo‘ja) tomonidan nashrga tayyorlangan[23].

Mazkur «Loyiha» Mahmudxo‘ja Behbudiyning Rossiya Davlat Dumasiga taklifi sifatida yozilgani uchun Dumaning Musulmon fraksiyasi uni shu sohaga yaqin kishilarga fikr olish uchun bergan va u shunday yo‘l bilan Turkiston masalalari bo‘yicha taniqli mutaxassis Ismoilbek Gasparalining qo‘liga tushgan. I.Gasparalining qizi Shafiqaxonim otasining arxivini Turkiyaga olib borib, Anqaradagi doktor Najip Hablemito‘g‘liga topshirgan. Doktor Najipbek XXI asr arafasida I.Gasparali arxividan Behbudiyning «Loyiha»sini topib, uni Temur Xo‘jao‘g‘liga bergan. Shu tarzda «Loyiha» Temurxo‘janing tashabbusi va mehnati bilan dastlib Gollandiyada chop etilgan to‘plamdan, keyin prof. Begali Qosimov vositasida O‘zbekistonda «Jahon adabiyoti» jurnalining 2003-yil 8-sonida e’lon qilingan.

[23] Reforem Movements and Revolutions in Turkistan. 1900-1924. Studies in Honour of Osman Khoja. - Haarlem, Netherlands, 2001

«Loyiha»ga yozilgan kirish so‘zidan ma’lum bo‘lishicha, Behbudiy 2-Davlat Dumasining Musulmon fraksiyasiga ham bir necha ma’ruzalar yozib bergan va ularda Turkiston muxtoriyati bilan bog‘liq muhim masalalarni ko‘targan. Bizningcha, zikr etilayotgan «Loyiha»da Behbudiyning o‘sha ma’ruzalarda ilgari surgan ayrim fikr va mulohazalari ham muayyan huquqiy normalar sifatida o‘zining yangicha talqinini topgan bo‘lishi mumkin.

Loyiha to‘qqiz bo‘limdan iborat bo‘lib, ular quyidagilardir:

1. Duma xususinda.
2. Rusiya musulmonlari raisi.
3. Turkiston Idorai ruhoniya va doxiliyasi asosining musavaddasi (qoralamasi) Turkiston Idorai ruhoniya va doxiliyasi xususinda.
4. Idorai ruhoniya va doxiliya asoslarining xatti-harakati.
5. Idorai ruhoniya va doxiliya tasarrufindagi ishlar.
6. Idorai ruhoniya va doxiliya mas’uliyati.
7. Turkiston qozilari xususinda.
8. Joniy va badkorlar (jinoyatchi va bezorilar).
9. Turkiston yahudiylari va ajnabiylari.

«Loyiha»ning bu qismlari va ulardagi ayrim moddalarini sharhlashdan avval shuni aytish joizki, Behbudiy 18 yoshidan boshlab qozixonada mirzalik qilgan. U shu lavozimda ishlash jarayonida o‘zining katta iste’dodini, ruhoniya va doxiliya sohasidagi boy bilimini namoyish etib, qozi va mufti darajiga erishgan. Ammo, 1899-1900-yillarda haj safari munosabati bilan Arabiston, Misr va Turkiyada bo‘lishi hamda bu mamlakatlardagi maktab va madrasa ta’limi bilan tanishish uning hayotini mutlaqo o‘zgartirib yubordi. 1903-yildan boshlab Behbudiyning diqqat markazida faqat bir masala – yangi tipdagi maktab masalasi turdi va shu maktab yordamida Turkiston aholisini chirmab tashlagan bid’at va jaholatga qarshi kurashish va xalq ommasi o‘rtasida ma’rifat ziyolarini tarqatishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ydi. Turkistonning ilg‘or kishilari safidan o‘rin

egallagan Behbudiy 1906-yili Nijniy Novgorodga borib, Rossiya musulmonlarining turmush va madaniyati muammolariga bag‘ishlangan qurultoyda ishtirok etdi. Uning mazkur qurultoyda Turkiston musulmonlari guruhiga rahbarlik qilishi va katta nutq so‘zlashi yig‘ilganlarda yaxshi taassurot qoldiradi. U Rossiya Davlat Dumasi Musulmonlar fraksiyasi a’zolari o‘rtasida obro‘-e’tibor qozonib, Turkiston muammolarini ular yordamida Davlat Dumasiga havola etmoqchi bo‘ladi.

Behbudiyning 3-Davlat Dumasi Musulmonlar fraksiyasiga yo‘llagan «Loyiha»sining Turkiston madaniy muxtoriyatiga bag‘ishlangani bejiz emas. Prof. B.Qosimovning «Jahon adabiyoti» jurnalining zikr etilgan sonida bosilgan kirish so‘zida yozishicha, 1- va 2-Davlat Dumalarida qizg‘in muhokama etilgan masalalardan biri ham muxtoriyat masalasi edi. Ammo *muxtoriyat* tushunchasi o‘sha vaqtda hali siyosiy-ijtimoiy va madaniy mustaqillik ma’nosini anglatmagan. Binobarin, Rossiya musulmonlari *madaniy muxtoriyat* tushunchasi ostida millat milliy-madaniy turmushining daxlsizligini nazarda tutganlar. Bu o‘sha davr uchun, shubhasiz, jasoratli harakat hisoblangan.

Endi bevosita «Loyiha»ning birinchi bo‘limiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, unda asosan Turkiston aholisidan Davlat Dumasiga vakil saylanishining huquqiy normalari haqida bahs boradi. Behbudiy bu masalada Turkistondagi musulmon aholisining sonidan kelib chiqqan holda vakil saylanishini lozim, deb biladi. Bu moddaga eslatma sifatida aytish lozimki, o‘sha vaqtda Turkistonda o‘rnashib olgan rus aholisining soni (322 ming), mahalliy xalq nufuzi (5 million 378 ming) dan qariyb yigirma marta kam bo‘lgan.

«Loyiha»dagi «Rusiya musulmonlari raisi» deb nomlangan ikkinchi bo‘limning ma’no-mohiyati quyidagi masalaga qaratilgan. Behbudiyning fikricha, Umumrossiya musulmonlarining diniy va hayotiy ishlarini bajarish hamda barcha ruhoniya va doxiliya idoralariga rahbarlik qilish uchun Peterburgda, ya’ni Rossiyaning

poytaxtida mahkamai islomiya tashkil etilishi, ham diniy bilim, ham zamonaviy voqealardan yaxshi xabardor musulmonlardan birining bu mahkamaga ma’lum bir muddatga rais etib saylanishi lozim.

Turkiston idorai ruhoniya va doxiliyasi masalalariga bag‘ishlangan uchinchi bo‘lim «Loyiha»ning eng katta bo‘limi bo‘lib, o‘n moddadan iborat. Bu moddalarning asosiy mazmuni quyidagi masalalarni o‘z qamroviga olgan:

1. Sirdaryo, Farg‘ona, Samarqand, Yettisuv, Zakaspiysk viloyatlaridan iborat Turkiston uchun bir idorai ruhoniya va doxiliya (Diniy va ichki ishlar idorasi)ni tashkil etish va bu idorani Toshkent shahrida barpo etib, unga «birinchi darajali ulamo sinfidan shariat va zamondan xabardor kishi»ni saylov yo‘li bilan besh yillik muddatga shayxul-islom etib tayinlash.

2. Mazkur idorani quyidagi tartibda tashkil etish: 1 rais – shayxul islom, 5 diniy alloma – a’lam, 5 oliy va o‘rta ma’lumotli musulmon – chilon (a’zo), shuningdek, mirzo va sarkotib.

3. A’lam va chilon (a’zo)larni har bir viloyatdan besh yillik muddatga saylov yo‘li bilan tayinlash.

4. Idorai ruhoniya va doxiliya tarkibiga, yuqorida qayd etilgan a’lam va chilon (a’zo)lardan tashqari, barcha mahalliy yahudiylardan bir nafar yahudiy olimni saylov yo‘li bilan jalb etish.

5. Turkistonning har bir viloyatida Idorai ruhoniya va doxiliya sho‘balarini ochish va bu sho‘balarga viloyat shaharlarining musulmonlar yashaydigan qismidan joy berish.

6. Idorai ruhoniya va doxiliya sho‘basining tarkibini quyidagicha belgilash: 1 raislik qiluvchi – oxund, 3 diniy ulamo – viloyat a’lami, 1 oliy ma’lumotli musulmon – viloyat chiloni (a’zosi) va, agar lozim topilsa, mirzo (sarkotib).

7. Har bir viloyatda Turkiston Idorai ruhoniya va doxiliyasi, uning sho‘balari va dorulqazo(qozixona) hukm va talablarini ijro etadigan ijroiya mahkamasini tuzish.

8. Mahkamaga ma’lumotli musulmonlardan saylov yo‘li bilan rais etib tayinlash.

9. Turkistondagi musulmon volost yo‘llar boshqaruvchilari, starshina va starshiy (katta) oqsoqollarini ijroiya mahkamaning amirligiga tobe deb hisoblash.

10. Bu idoralarning barchasi sho‘bai ruhoniya va sho‘bai hayotiyaga bo‘linadilar. Behbudiy Turkiston Idorai ruhoniya va doxiliyaning rahbariyati va tarkibiy qismlariga keng to‘xtabgina qolmay, uning faoliyat doirasini ham belgilab bergan. Umuman, «Loyiha»ning sharhlanayotgan bu birinchi qismida Idorai ruhoniya va doxiliya masalalari muallifning diqqat markazida turadi. Buning sababi shundaki, XX asr boshlarida Turkiston aholisi o‘rtasida Islom dini katta mavqega ega bo‘lib, uning ma’naviy va madaniy hayotiga, Behbudiy o‘ylaganidek, yangi diniy tuzilma – Idorai ruhoniya va doxiliya orqali ta’sir ko‘rsatish va aholining turmush tarzini shu tuzilma yordamida o‘zgartirib borish mumkin edi. Shuning uchun ham mazkur «Loyiha»da Idorai ruhoniya va doxiliyaning faoliyat va mas’uliyat doirasi quyidagicha belgilangan:

4-bo‘lim. Idorai ruhoniya va doxiliya a’zolarining xatti-harakati.

1. Shayxul-islom va oxund – ruhoniy va shar’iy ishlar, a’lamlar – qonun-qoidalar va zamonning zarur ishlari, a’zolar esa turli-tuman ishlar bilan shug‘ullanadilar. Muhim ishlarga viloyat a’lamlari va a’zolari ham chaqirilib, majlis o‘tkaziladi. Hatto lozim bo‘lganda Rossiyadagi Idorai ruhoniya va muxtoriyat doiralaridan maslahat olinadi.

2. Turkiston Idorai ruhoniya va doxiliyasi sho‘balari Rossiya Musulmonlari ittifoqi qarorlariga rioya qiladi.

3. Majlis va idoralarning har bir ishi, hukm va qarori shariat qonun va qoidalari doirasida bo‘ladi.

4. Turkiston Idorai ruhoniya va doxiliyasi tasarrufidagi shia mazhabiga mansub musulmonlarning rusumi mazhabiyaga oid

fatvolari Zakavkaziyadagi shia shayxul-islomi majlisining roziligi bilan kuchga kiradi.

5. Mahalliy aholi jamiyatlari bu idoralarning ruhoniy va hayotiy sho‘balari to‘g‘risida ma’lumot olish, taftish qilish va hisob so‘rashga haqlidir.

5-bo‘lim. Idorai ruhoniya va doxiliya tasarrufindagi ishlar.

Bu bo‘limda Idoraning faoliyat doirasi o‘n ikki moddada belgilangan va ularning asosiylari quyidagilardir:

1. Idora o‘z sho‘balariga rahbarlik qilish bilan birga ular o‘rtasida aloqa o‘rnatadi va barcha mahalliy idoralarning ishlarini tartibga soladi.

2. Mahalliy rus mahkamalariga savol bilan murojaat etadi, bu ma’lumotlarning xatti-harakatlariga norozilik bildiradi va tegishli xalq huquqini mahalliy hukumat oldida himoya qiladi.

3. Meros-tug‘ilish, bola boqib olish va tarbiyalash, nikoh-taloq, bola saqlab olish, xullas, ro‘zg‘or va oila ishlari, turli xil ko‘chma va ko‘chmas mulk hamda nomus da’volari bilan shug‘ullanadi.

4. Masjid, madrasa, maktab, vaqf va xayr-sahovat, vasiyat ishlari bilan shug‘ullanuvchi mutavalli va nozirlar hamda diniy va dunyoviy tahsil dasturlari, shuningdek, maktab va madrasalar tuzilmasini tashkil etadi.

5. Turkiston qozilariga shar’iy, urfiy, tijoriy va zamoniy ishlarni so‘ramoqlari uchun hamda jazo uchun dasturulamal va qonunnomalar tasnif etadi.

6. Barcha ruhoniy va milliy, doxiliy maktab xizmatlariga kiradigan shaxslarni imtihon qilib, ular saviyasining yetukligi va haqligi haqida shahodatnoma beradi.

7. Yer va suv masalasini Turkistonning doxiliy maishat va ahvoli havoiya jug‘rofiyasiga muvofiq suratda xolisona va qonun asosida hal etadi va h.k.

Ko‘ramizki, Behbudiy talqinidagi Idorai ruhoniya va doxiliya Turkiston aholisi hayotining qariyb barcha muammolari bilan

shug‘ullanish va bu muammolarni shariat amallari asosida hal etish huquqiga ega. U hatto aholidan tushgan shikoyat va arizalar asosida mahalliy rus mahkamalariga murojaat etishi, ular xatti-harakatiga nisbatan norozilik bildirishi ham mumkinki, bu «Loyiha»ning qimmatini yanada oshirgan.

Nihoyat, Idorai ruhoniya va doxiliyaning javobgarligiga bag‘ishlangan so‘nggi 6-bo‘lim quyidagi masalalarni o‘z ichiga olgan:

1. Idorai ruhoniya va doxiliya sho‘balari, ijroiya mahkamasining, a’lam va a’zolari hamda qozixona xodimlarining xiyonat va jinoyatlari Idorai ruhoniya va doxiliya mahkamasi tomonidan tekshiriladi.

2. Turkiston Idorai ruxoniya va dohiliyaning rais, a’lam va a’zolarining jinoyatlari taftish komissiyasi tomonidan o‘rganiladi. Rossiyadagi barcha Idorai ruhoniya va muxtoriyatlarni tekshirish Umumrossiya musulmonlari raisi mahkamasining vazifasiga kiradi.

Turkiston Idorai ruhoniya va doxiliyasining tuzilmasi, a’zolarining xatti-harakati, tasarrufidagi ishlar va mas’uliyati Behbudiy tomonidan shunday mukammallik bilan ishlab chiqilganki, uning ham shariat qonun-qoidalari, ham zamonaviy huquqiy bilimlarni puxta egallaganligi yaqqol ko‘rinib turadi.

7-bo‘lim. Turkiston qozilari xususinda.

Behbudiy qozixonada ishlagani va bu sohani mukammal bilgani uchun Turkiston qozilarining huquqiy maqomi va qozilik tizimining huquqiy masalalarini o‘n moddada ifodalagan va bu mlddalarning asosiylari quyidagilardir:

1. Turkiston qozilari hozirgi tartibda saylanishi, ammo ularning bu lavozimga loyiqliklari Idorai ruhoniya va doxiliya yoki sho‘basining shahodatnomasi bilan tasdiqlanishi lozim. Ularni bo‘shatish masalasi ham mazkur Idora ixtiyoridadir.

2. Turkiston muzofotidagi hukm chiqaradigan boshqa mansablar tugatilib, ular o‘rniga shar’iy qozilar mansabi joriy etilsin.

3. Har bir volostda bir qozixona, har bir qozixonada esa bir qozi va bir muovin mansabi belgilansin.

4. Qozi va muovinning vazifalari hozirgidek xalq tarafidan belgilanib, maoshi Idorai ruhoniya tomonidan berilsin.

5. Bir qozining hukmidan norozi bo‘lgan kishi hozirgidek 4 qozidan iborat kengashga murojaat etsin.

6. Qozilar kengashining hukmi appelyatsiya uchun Idorai ruhoniyagacha ko‘tarilib, bekor qilinishi yoki rad etilishi mumkin.

7. Qozixonada yoziladigan barcha hujjatlar turkcha (o‘zbekcha) yozilib, da’vo va hujjat summasi cheklanmasligi lozim.

8. Turkiston qozilari tomonidan tasdiqlangan barcha vasiqalar, hukm va xatlar Rossiyadagi adliya mahkamalari tomonidan e’tiborga olinishi maqsadga muvofiq va h.k.

«Loyiha»ning «Joniy va badkorlar» («Jinoyatchi va bezorilar») degan sakkizinchi hamda «Turkiston yahudiylari va ajnabiylari» degan to‘qqizinchi bo‘limlari ham mazkur masalalarga oid ishlarni adolatli hal qilishga qaratilgan moddalardan tashkil topgan. Masalan, agar turkistonliklar 3 marta o‘g‘irlik qilgan yoki umumga zarar keltirgan bo‘lsalar, ular Idorai ruhoniyaning xohishi bilan boshqa mahallaga vaqtincha yoki umrbod chiqarilib yuborilishi mumkin va h.k.

Behbudiy Idorai ruhoniya va doxiliya faoliyati bilan bog‘liq bu huquqiy qarashlari va takliflarini bayon etgach, hukumat idoralarining faoliyati bilan bog‘liq «talab va modda»lardan iborat «Loyiha»ning ikkinchi qismini ham Musulmon fraksiyasiga ma’ruza tarzida taqdim etgan. Bu qism quyidagi to‘rt bo‘limdan tashkil topgan:

1. Milliy mahkamalar xususinda.
2. Vaqflar xususinda.
3. Umumiy maktablar.
4. Suv va yerlar xususinda.

«Mulkiy mahkamalar xususinda» deb nomlangan birinchi bo‘limdagi Behbudiyning huquqiy qarashlari mazkur mahkama ishini tubdan qayta qurishga qaratilgani bilan, ayniqsa, ahamiyatlidir.

Behbudiyning bu masala bo‘yicha qarashlari va takliflari o‘n ikki moddadan iborat bo‘lib, ularning asosiylari quyidagilardir:

1. Turkiston o‘lkasining bosh mahkamasidagi mulkiy, moliy va ilmiy sho‘ba hamda majlis (kengash)lariga musulmonlardan idora xodimi, a’zo va maslahatchilar tayinlash.

2. Barcha viloyat mahkamalarining shu masaladagi sho‘ba va majlis (kengash)lariga musulmonlardan lozim qadar a’zo va maslahatchi tayinlash.

3. Har bir shahar va katta qasaba (shaharcha)da shahar Dumasi ochilib, a’zolari sonini aholining jinsi (turi)ga qarab taqsim qilish.

4. Rossiya adliya mahkamalari sayloviga va bu mahkamalardagi mansablarga saylanishga musulmonlarni haqli deb hisoblash.

5. Turkiston turmushidan xabarsiz yuristlarni Turkiston adliya mahkamalariga hokim etib tayinlamaslik.

6. Qozi yo sudyalar jazo tayin qilmaguncha hech kimni hibsga olmaslik.

7. Turkistonda Idorai ruhoniyani tezlik bilan ochish.

8. Qozilar hukmini prokuror nazoratidan chiqarilib, Idorai ruhoniya ixtiyoriga topshirish va h.k.

«Loyiha»dagi vaqf masalasiga bag‘ishlangan ikkinchi bo‘limning maqsad va mohiyati vaqf ishlarini butkul Idorai ruhoniya ixtiyoriga o‘tkazishga qaratilgan. Behbudiy, «Loyiha»ning boshqa bo‘limlaridan ham ma’lum bo‘lganidek, o‘lkadagi asosiy ishlarga rahbarlikni amalga oshirish uchun Idorai ruhoniya va doxiliyani tuzish hamda hukumat mahkamalari tasarrufidagi bir qator vazifalarni shu Idora ixtiyoriga o‘tkazish yo‘li bilan Turkistonning «madaniy muxtoriyati»ga erishmoqchi bo‘lgan.

Endi «Loyiha» muallifining umumiy maktablarga oid huquqiy takliflari bilan tanishaylik. Bu masalaga oid takliflar quyidagi to‘rt moddadan iborat:

1. Rossiyadagi umumiy ta’lim (o‘qituv) masalasi va moddasi Turkistonga ham baravar tegishli, deb hisoblansin.

2. Turkistondagi maktab va madrasalar hukumat (rus ma’muriyati nazarda tutilmoqda) nazoratidan ozod etilsin.

3. Umumiy o‘rta va oliy maktablarga musulmonlardan komissiya tayinlansin. Rus harfi (yozuvi) musulmon maktablarida joriy etilmasin.

4. Musulmon bor bo‘lgan har xil korxona, hibsxona va askarxonaga musulmon ruhoniysi tayinlansin.

Yuqoridagi moddalardan shu narsa ayon bo‘ladiki, Behbudiy bir tomondan, Turkiston Rossiyaning tarkibiy qismiga kirgani holda bu yerda yashovchi musulmonlarning Rossiyadagi ijtimoiy imtiyozlardan foydalana olmayotganlarini ko‘zda tutib, mahalliy xalqning Rossiyadagi rus fuqarolari bilan teng huquqli bo‘lishi, ikkinchi tomondan, Turkistondagi rus ma’muriyatining rahbarlik huquqlarini chegaralash. Turkistonning «madaniy muxtoriyat»iga erishish yo‘llarini axtargan. Behbudiyning bunday intilishlari «Loyiha»ning suv va yer haqidagi bo‘limida ham o‘z ifodasini topgan.

Hukumat idoralari tasarrufidagi masalalarga bag‘ishlangan so‘nggi bo‘lim «Suv va yerlar xususinda» deb atalgan bo‘lib, quyidagi moddalardan iborat:

1. Dunyoning qaysi mamlakatida yashashidan qat’iy nazar har bir musulmon Turkistondan yer sotib olishga haqlidir, xuddi shuningdek, turkistonliklar ham dunyoning boshqa mamlakatlaridan yer sotib olishlari mumkin.

2. Sahro-biyobon, tog‘li joylarda yashovchi va shahar xalqining maishiy turmush talabi bilan yayloq, chashma, o‘rmon, kon, ko‘l, o‘tloq va daryodan foydalanishini ta’qiqlovchi qonunlar bekor qilinsin.

3. Daryo va katta-kichik ariq suvlari taqsimi aholining ittifoqi va maslahati asosida kechsin.

4. Turkiston xalqi talab qilmaguncha Turkistonga muhojir yuborilmasin.

5. Turkiston shaharlaridagi yerlar tegishli qonun chiqmagunicha g‘ayrimusulmonlarga na vaqtincha, na abadiy foydalanish uchun berilmasin.

Behbudiyning 3-Rossiya Davlat Dumasi fraksiyasiga yo‘llagan «Turkiston madaniy muxtoriyati loyihasi» shundan iborat.

Behbudiy 1907-yil noyabr oyida yozilgan bu hujjati bilan Rossiya mustamlakachilik siyosatining Turkistondagi kishanlarini bo‘shashtirmoqchi bo‘lganki, biz bu hujjatda oradan o‘n yil o‘tgach, 1917-yilda amalga oshgan Turkiston Muxtoriyati g‘oyalarining dastlabki sadolarini ko‘ramiz. Behbudiyning bu «Loyiha»si bilan Turkistondagi mustamlaka davlat tuzumini isloh etmoqchi bo‘lgani shubhasiz. O‘lkadagi bir qator hayotiy masalalarning davlat tasarrufida Idorai ruhoniya va doxiliya ixtiyoriga o‘tkazilishi, shuningdek, maktab, suv va yer masalalari yuzasidan olg‘a surilgan takliflar Behbudiyning o‘z davridan kamida o‘n yilga ilg‘orlab ketganini ko‘rsatadi.

Afsuski, shu davrda o‘zbek jadidchilik harakatida Turkiston xalqlari taqdiri bilan bog‘liq muhim huquqiy masalalarni Behbudiydek teran tushungan va bu masalalarni Rossiya Davlat Dumasi darajasiga olib chiqqan boshqa birorta kishi bo‘lmagan.

Oradan o‘n yil o‘tgach, Rossiyada 1917-yil Fevral inqilobi g‘alaba qozondi. Rossiyaning bevosita nazorati ostida yashayotgan Buxoro amirligidagi siyosiy va ijtimoiy vaziyat ham keskin o‘zgarib, amirlikning metin devorlari nuray boshladi. Shunday sharoitda amirga birdan-bir muxolif kuch – «Yosh buxoroliklar» harakati o‘z saflarini qayta qurishga kirishdi. Yangi Markaziy Qo‘mita mavjud tarixiy sharoitidan kelib chiqib, tashkilotning amaliy dasturini ishlab chiqishni o‘z oldiga birlamchi vazifa sifatida qo‘ydi.

Dastur amir hukumatidan norozi bo‘lgan va jadid tashkilotiga kelib qo‘shilgan xilma-xil ijtimoiy guruhlarning manfaatini ifodalay oluvchi hujjat bo‘lgani uchun dasturul amal ahamiyatiga ega bo‘lgan siyosiy talablar unda bo‘rtib turmasligi lozim edi. Shuning uchun ham

davomli bahslardan keyin bu dasturni islohot loyihasi tarzida tuzish maqsadga muvofiq, deb topildi va loyihani tuzish ishi Fitratga topshirildi.

Oradan 2 oy o‘tgandan so‘ng, 1918-yil yanvarida Fitrat tomonidan tuzilgan «Buxoroda islohot loyihasi»ni «Yosh buxoroliklar» Markaziy Qo‘mitasi muhokamasiga topshirdi. Loyiha ba’zi bir juz’iy tuzatishlar bilan Markaziy Qo‘mita tomonidan qabul qilindi.

Fitrat ishlab chiqqan va Markaziy Qo‘mita tomonidan qabul qilingan mazkur loyihada konstitutsiya masalasiga oydinlik kiritilmaganidek, amirlikdagi monarxiya tuzumini o‘zgartirish masalasi ham chetlab o‘tilgan. Xuddi shu hol tufayli keyinchalik bolsheviklar Fitrat sha’niga ozmuncha malomat toshlarini otmadilar. Lekin bu loyihaning qimmati unda ikki muhim g‘oyaning ifodalanganida edi.

Bu g‘oyalarning birinchisi Buxoroda huquqiy davlatni barpo etish, o‘rta asrlardagi sharqona zulm va zo‘ravonlikka asoslangan tuzumni Yevropa tarzidagi ma’rifatli monarxiya bilan almashtirish, mehnatkash aholining farovonligi va madaniy darajasini oshirish yo‘li bilan Buxoroni siyosiy, iqtisodiy va harbiy jihatdan mustahkamlash edi.

Yuqoridagi sharhdan ma’lum bo‘lganidek, Fitrat Buxorodagi davlat tuzumini, bolsheviklar xohlaganidek, inqilobiy yo‘l bilan emas, balki islohotlar yo‘li bilan o‘zgartirishni to‘g‘ri, deb hisoblagan. Bu hol Fitratning nafaqat buyuk yozuvchi, balki donishmand siyosatchi bo‘lganini ham yaqqol ko‘rsatadi.

Fitrat shu davrda turli ijtimoiy guruhlar tomonidan tuzilgan dastur mualliflaridan farqli o‘laroq, siyosiy va ijtimoiy masalalarga katta ehtiyotkorlik va xushyorlik bilan yondashgan bo‘lsa, madaniy va iqtisodiy masalalarga o‘tganda aniq-tayin va keskin fikrlarni ilgari surgan.

«Buxoro islohoti loyihasi»ni kuzatish shundan shahodat beradiki, Fitrat «Yosh buxoroliklar» harakatining dasturulamalini tuzish va Buxorodagi mavjud tuzumni isloh etish masalasiga birinchi navbatda xalq ommasi manfaatini ko‘zda tutgan holda kirishgan. U yozuvchi sifatida mehnatkash xalq ommasi hayotini, dard va tashvishlari, orzu va umidlarini yaxshi bilganligi uchun, birinchi navbatda, shu xalq ommasining hayotini o‘zgartirish va yaxshilash choralarini axtargan. Shuning uchun ham u o‘z loyihasida dehqonchilik masalalariga katta e’tibor bergan. Hatto loyihani ham davlat tuzilishi masalasidan emas, balki qishloq xo‘jaligi bilan bog‘liq islohotdan boshlab, barcha ekinzor yerlarni uch guruhga – vaqf yerlari, xususiy yerlar va davlat ixtiyoridagi yerlarga ajratgan.

Loyihaga ko‘ra, davlat yerlari (amlok) bilan davlat ixtiyoridagi (ma’lum shart bilan ijaraga beriladigan) yerlar o‘zaro birlashgan holda hiroj deb ataladi. Xususiy yerlar yer egasining to‘la-to‘kis ixtiyorida bo‘ladi. Vaqf yerlari esa maxsus boshqarma tomonidan idora etiladi.

Loyihadagi muhim ahamiyatga molik masalalardan biri soliq masalasidir. Xuddi shu narsa amirlikda xalq ommasining qashshoqlashishiga sabab bo‘lgani uchun Fitrat soliq masalasiga e’tibor berib, soliq olishning bir qator yangi qoidalarini ishlab chiqqan. Chunonchi, loyihaga ko‘ra, mehnatkashlar ommasi va davlatga qarashli yerlardan kam soliq olinishi nazarda tutilgan. Va ayni paytda kafsan, uskuna puli, cho‘p puli singari sun’iy ravishda o‘ylab topilgan qator soliqlarning bekor qilinishi aytilgan. Loyihaning soliq masalasidagi yangiliklardan biri shunda ediki, Fitrat unda xususiy yer egalari bilan birga amir tomonidan ijaraga berilgan hiroj yerlardan olinadigan soliqni ham oshirishni lozim, deb hisoblagan. Bu Fitratning soliq masalasida, birinchi navbatda, xalq ommasiga ma’lum imtiyozlar yaratish, ikkinchi tomondan, shu vaqtgacha katta imtiyozlardan foydalanib yashayotgan kishilarga kelayotgan tekin foyda yo‘lini to‘sish va, uchinchidan, shu kimsalar hisobidan davlat xazinasini to‘ldirish istagidan kelib chiqqan.

Loyihadagi ikkinchi muhim g‘oya dehqonchilik va qishloq xo‘jaligi bilan bog‘liq. Fitrat xalq va mamlakatning iqtisodiy muammolarini bartaraf etish va farovonlikka erishishning asosiy yo‘lini qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ko‘paytirishda ko‘rgan. Buning uchun u ekin maydonini kengaytirish va dehqonchilik ishlarini mukammallashtirishni lozim, deb bilgan. U ekin ekilgan va ekilmagan yerlardan baravar soliq olishni taklif etgan. Toki yer egasi bu yerning bo‘sh, foydasiz, ishlamay, xalqni o‘z mahsulotlari bilan bahramand etmay turmasin, degan fikr uni shunday xalq va mamlakat manfaati yo‘lida dadil qadam tashlashga olib kelgan.

Fitratning yerdan foydalanish, qishloq xo‘jaligini rivojlantirishga qaratilgan takliflari bu bilangina cheklanmaydi. U irrigatsiya ishlarini ham e’tibordan qochirmay, Zarafshon sug‘orish tizimidan to‘g‘ri foydalanib, suvning Buxoro va Samarqand viloyatlarida to‘g‘ri taqsimlanishi, Amudaryodan irrigatsiya maqsadida foydalanish borasida ham katta amaliy ahamiyatga molik g‘oyalarni ilgari surgan.

Loyihadan katta o‘rin olgan vaqf masalasida Fitrat Buxoroda hukm surgan o‘zboshimchalik va suiste’mol qilish holatlarini nazarda tutgan holda vaqfdan tushgan mablag‘ning sovrilib ketmasligi uchun maxsus komissarlik tuzishni, vaqf mulki, do‘konlari, oshxona va kutubxonalarni shu nozirlik tasarrufiga o‘tkazish va barcha daromadni mazkur komissarlik qoshidagi xazinada markazlashtirish g‘oyasini olg‘a surgan. Shunda, uning nazarida, xazinadagi kapitaldan tushgan foyda hisobiga yangi maktab va madrasalar, kutubxona va yetimxonalar, kasalxona va kambag‘allar uchun oshxonalar ochish mumkin bo‘ladi.

Fitrat vaqf mol-mulkidan to‘g‘ri foydalanish haqidagi takliflarini bayon qilgandan so‘ng harbiy ishni tashkil etish masalasiga o‘tadi. Loyihaga ko‘ra, qo‘shin sonini 12 ming kishiga ko‘paytirish, qo‘shin to‘plashning yevropacha usulini qo‘llab, harbiy xizmatni hamma uchun majburiy qilish lozim; 22 yoshga yetgan yigitlar ikki yillik harbiy xizmatga chaqirilishi, bundan avval esa tibbiy ko‘rikdan o‘tishi

shart; bundan tashqari, keng kazarmalar qurish, komandirlar uchun Buxoroda harbiy maktab ochish, qo‘shinning kiyim-boshi va oziq-ovqati bepul bo‘lishi va askarlar, oz bo‘lsa-da, oylik maosh olishi zarur; buxoroliklar o‘rtasida harbiy tayyorgarlikka ega kishilar bo‘lmagani uchun rus armiyasida xizmat qilgan musulmonlardan komandir sifatida foydalanish maqsadga muvofiqdir. Eng muhimi, harbiy ish harbiy nozirlikda markazlashishi lozim.

Loyihada moliya, ma’muriy bo‘linish masalalari Fitrat e’tiboridan chetda qolmagan. Unda aytilishicha, adliya idoralari shariat qonunlari asosida ish olib boradi. Qozikalon ayni paytda adliya noziri vazifasini bajaradi. Buxoroda temir yo‘lni rivojlantirish maqsadida Temir yo‘l nozirligi tuziladi va bu nozirlik ayni vaqtda tog‘-kon sanoati bilan ham shug‘ullanadi.

Buxoro Xalq Sovet Respublikasining bo‘lajak maorif noziri loyihada maktab va ta’lim masalalariga ham maxsus e’tibor qaratgan. Loyihada keltirilishicha, aholi o‘rtasida maorif ishlarini rivojlantirish uchun Maorif nozirligini tashkil etib, barcha viloyatlarda xazina hisobidan ikki bosqichli xalq maktablari va oliy o‘quv yurtlarini ochish, bu maktablarni o‘quvchilar bilan ta’minlash, barcha turdagi maktablar uchun dasturlar ishlab chiqish va bu maktablar ustidan nazorat olib borish ishlari mazkur nozirlikka yuklanadi.

Nozirlar Kengashi, loyihaga ko‘ra, quyidagi o‘nta nozirlikdan tashkil topadi:

1. Yer ishlari nozirligi.
2. Vaqf ishlari nozirligi.
3. Harbiy ishlar nozirligi.
4. Moliya nozirligi.
5. Ichki ishlar nozirligi.
6. Adliya nozirligi.
7. Militsiya nozirligi.
8. Temir yo‘l va tog‘-kon sanoati nozirligi.
9. Maorif nozirligi.

10. Tashqi ishlar nozirligi.

Har bir nozir huzurida maslahatchi bo‘ladi.

Buxoroliklar orasidan mutaxassislar tayyorlanguniga qadar Rossiya, Ozarbayjon va Turkiyadan taklif etilgan musulmon millatlariga mansub bilimdon kishilar Buxoro nozirlari huzurida maslahatchi bo‘lib xizmat etadilar.

Loyihada qayd etilishicha, Rossiya va boshqa davlatlar bilan tashqi aloqaga doir masalalar bilan Nozirlar Kengashi raisining o‘zi shaxsan shug‘ullanadi.

Loyihaning muxtasar bayoni shulardan iborat.

Afsuski, «Yosh buxoroliklar» amirni taxtdan ag‘darib, «sharqona zulm va zo‘ravonlikka asoslangan tuzum»ni bartaraf etishda Frunze qo‘shinlari madadiga suyanmoqchi bo‘ldilar. Lekin natijada amir ham, «yosh buxoroliklar»ning o‘zlari ham quvg‘inga uchrab, Fitratning Buxoroni isloh etish loyihasi amalga oshmadi. Oradan bir necha yil o‘tib, Sovet davlati Buxoro Xalq Sovet respublikasini «yutib yuborgach», Fitratning Markaziy Qo‘mita tomonidan ma’qullangan mazkur dasturida xatolar zanjirini axtarish va loyiha muallifini anarxiya tuzumiga moyillikda ayblash ishlari avj olib ketdi.

Fitrat, Behbudiy singari, Buxoro amirlik tuzumini ag‘darish va uning o‘rnida ma’rifatli demokratik davlatni barpo etish tarafdori edi. Buni hozirgina ko‘rib o‘tganimiz loyiha ham to‘la tasdiqlaydi. Lekin Fitrat fantast yozuvchi bo‘lmagani, o‘tgan asrning 20-yillari arafasidagi Buxoro va buxoroliklarni yaxshi bilgani uchun o‘z oldiga real bajarish mumkin bo‘lgan vazifani qo‘ygan.

Bugun, oradan shuncha yil o‘tganidan keyin ham «Buxoro islohoti loyihasi» bilan yaqindan tanishgan kishi loyihada bir qator ajoyib g‘oyalar ilgari surilganini hamda bu g‘oyalar amalga oshgan taqdirda Buxoro va buxoroliklar hayoti Fitrat tasavvur etgan darajada yaxshi, madaniy va farovon bo‘lishiga ishonch hosil qilish mumkin.

Fitrat ushbu loyihani tuzganidan keyin ko‘p o‘tmay, bolsheviklar Qo‘qonda barpo etilgan Turkiston Muxtoriyat hukumatini qonga

botirdilar. Fitrat, agar Turkiston aholisi ulug‘ maqsad yo‘lida birlashmasa, uni shunday fojia kutishini bilardi. Shuning uchun ham u 1917-yil fevral-oktabr oylari orasida o‘zining «Yurt qayg‘usi» degan sochmalarini yaratib, xalqni birlashish, erk va hurriyat yo‘lida kurashishga chorlagan edi.

Uning va umuman jadidlarning siyosiy-huquqiy qarashlari deganda, ular qalamiga mansub shunday asarlarni ham ko‘z oldimizga keltirib, jadid ma’rifatparvarlarining ijtimoiy qarashlari zaminida xalq va Vatan ozodligi hamda milliy taraqqiyot g‘oyalari yotadi, desak, adolatdan bo‘ladi.

ABDURAUF FITRATNING MILLIY UYG‘ONISH VA ISTIQLOL HAQIDAGI QARASHLARI

Jadidchilik harakatining asosiy maqsadi Turkiston xalqlarini ma’rifatlashtirish, siyosiy ongini uyg‘otish, ijtimoiy dunyoqarashini shakllantirish yo‘li bilan mustamlakachilik kishanlarini parchalab, mustaqil milliy demokratik davlatni barpo etish edi. Jadidlar ana shu maqsadda XX asr boshlaridagi ayrim ilg‘or demokratik mamlakatlarning davlat qurilishini o‘rganib, hatto fransuz ma’rifatparvarlarining siyosiy va huquqiy dasturlari bilan tanishib, o‘zlarining siyosiy-huquqiy dasturlarini ishlab chiqdilar.

O‘zbek jadidchilik harakatining ulkan siymolaridan biri Fitrat Buxorodagi dastlab eski musulmon maktabi, so‘ng «Mirarab» madrasasini tugatgan kezlarda Buxoro amirligi hududlarida yangilanish kayfiyati bilan yo‘g‘rilgan ziyolilar harakati endigina uyg‘ona boshlagan edi. Ana shu harakat tashabbuskorlarining intilishlari bilan 1909-yilning erta bahorida «Shirkati Buxoroi sharif» nomidagi ma’rifatparvarlik jamiyatining yo‘llanmasi bilan bir kishi Boqchasaroyga va yana bir kishi Istanbulga «usuli jadida» bilan tanishish uchun yuborildi. Buxoro ulamolari bu jamiyatga va uning qo‘shni o‘lkalar bilan aloqa o‘rnatishiga qattiq qarshilik ko‘rsatganlari sababli, ko‘p o‘tmay, shirkat o‘z faoliyatini to‘xtatishga majbur bo‘ldi.

Ammo 1909-yil 18-iyun kuni Buxoroning taraqqiyparvar yoshlari «Tarbiyati atfol» nomli yangi jamiyatga asos soldilar. Yana ulamolarning qarshiligiga duch kelmaslik istagida yangi jamiyat o‘zining har bir qadamini yashirin tarzda tashlab, yoshlarning chet elga o‘qishga borishlari uchun ham maxfiy ravishda iona to‘pladi. Chamasi, shirkat tomonidan Boqchasaroy va Istanbulga yuborilgan kishilarning o‘z safarlaridan olgan taassurotlari Istanbuldagi usuli jadida maktablari foydasiga bo‘lgan. Shuning uchun ham «Tarbiyati atfol» buxorolik yoshlarning orasida umidli hisoblangan vakillarini Turkiyaga yuborishga qaror qilgan.

«O‘zbek fitratshunoslarining maqola va tadqiqotlarida bu davrga oid sanalar juda chalkash ko‘rsatilgan,- deb yozadi prof. Hamidulla Boltaboev. – Hatto bu voqealarning shohidi S.Ayniy ham Fitratning xorijda bo‘lgan davrini bir o‘rinda 1910-yil, deb aytsa, boshqa bir o‘rinda 1911-yil deb ko‘rsatadi. Nisbatan ishonchli manbalardan biri sifatida XX asr boshlarida Turkistonda yashagan olim va siyosiy arbob Zaki Validiy To‘g‘onning xotiralariga murojaat qilamiz. Ularda qayd etilishicha, 1910-yili Buxoroda «Tarbiyati atfol» jamiyati tuzilgan bo‘lib, u yiliga xayriya yo‘li bilan bir necha talabani xorijga o‘qish uchun yuborib turgan va u yerda o‘z sho‘basi (filiali)ni ochishga muvaffaq bo‘lgan. Bu sho‘ba «Buxoro ta’limi maorif jamiyati» nomi bilan rasmiy jamiyat maqomini olgan. 1910-yilda Eron yo‘li orqali Konstantinopol (Istanbul)ga kelgan shoir Fitrat bilan Muqimiddin hamda Rossiya yo‘li orqali kelgan Usmonxo‘ja, g‘uljali Abdulaziz, Sodiq Ashur o‘g‘li bu jamiyatning quruvchilari edilar. Bu jamiyat o‘n yetti moddadan iborat bo‘lgan o‘z nizomnomasiga ega bo‘lib, asosan, Buxorodan o‘qishga yuborilgan talabalarning moddiy ahvoli va boshqa ma’rifiy muammolari bilan shug‘ullangan. Uning hujjatlarida ko‘rsatilishicha, 1911-yilda Istanbulga o‘qishga kelgan 15 va 1912-yilda kelgan 30 ilm tolibiga jiddiy yordam berilgan.

Fitrat, tabiiyki, xorijga o‘qishni davom ettirish maqsadida borgan edi. Bu haqda turli manbalarda turlicha xabarlarni uchratamiz. Ularda

Fitratning, jumladan, «nufuzli dorilfununda o‘qigani (Temur Xo‘ja o‘g‘li), «muallimlar gimnaziyasi»da tahsil ko‘rgani (Boymirza Hayit) va «Voizon» madrasasida tahsil bilan cheklanmay, uning o‘zi ayrim hollarda mustaqil ma’ruzalar ham o‘qigani (Zaki Validiy To‘g‘on) bayon qilinadi. Bizningcha, bularning ichida nisbatan ishonchlisi so‘nggi manba hisoblanadi. Chunki, Fitratning bu madrasa bilan bog‘liq faoliyati aynan shunday mazmun kasb etgani o‘sha muallifning boshqa bir asarida ham aytilgan»[22].

Sirasini aytganda, bizga Fitratning Istanbuldagi qaysi o‘quv maskanida o‘qiganligi emas, balki bu o‘quv dargohi tufayli uning dunyoqarashida qanday o‘zgarishlar yuz berganligi muhimroqdir. Shu ma’noda professor B.Qosimovning quyidagi so‘zlari ham e’tiborga loyiq: «Turkiya «Yosh turklar» inqilobidan mast yillar edi. Xususiy turmushdan jamiyat hayotigacha inqilob havosiga g‘arq edi. Bunday muhit Fitratga, shubhasiz, katta ta’sir ko‘rsatdi. U siyosatga sho‘ng‘ib ketdi. qizg‘in badiiy ijod bilan shug‘ullandi. Aslini olganda, u Turkiyaga ketishdan oldin ham adabiy davralarga tanilgan edi. Hatto Ne’matulla Muhtaram uni 1903-1904-yillarda tuzgan tazkirasiga kiritgan. Jumladan, uning «Mijmar» (xushbo‘y ud yoqiladigan cho‘g‘don) taxallusi bilan she’rlar yozganini xabar qiladi. «Suxandonlarning harifi» (pahlavoni) ekanligini ta’kidlaydi, ota kasbiga ishora qilib, «sarrof» deb ataydi. Ruhiyatni g‘oyat nozik bir ifoda etgan tojikcha g‘azalini namuna qilib keltiradi. Shularni ko‘zda tutib bo‘lsa kerak, Ayniy 1926-yili tuzgan «Namunai adabiyoti tojik» kitobida Fitratni tojik sovet adabiyotining asoschisi, deb ko‘rsatadi»[23].

Bu asarning to‘la nomi «Hindistonda bir farangi ila buxoroli mudarrisning jadida maktablari xususinda qilg‘an munozarasi»dir. Kitobning birinchi nashrida sarlavhadan keyin: «Haqiqat fikrlar almashuvining oqibatidir» degan so‘zlar yozilgan. Garchand ba’zi manbalarda «Munozara»ning 1909-yilda nashr etilgani qayd etilgan

[22] Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар, 1-жилд. - Т.: Маънавият, 2000. – Б. 6-7.
[23] Абдурауф Фитрат. Чин севиш. - Т.: F.Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1996. - Б. 6.

bo‘lsa-da, uning birinchi nashri, fitratshunos X.Boltaboevning aniqlashicha, xijriy 1327- va milodiy 1911-yili Istanbulda «Islomiya» matbaasi tomonidan amalga oshirilgan. Asar 1912-yilda «Turkiston viloyatining gazeti»da, keyinchalik, alohida kitobcha shaklida Hoji Muin tarjimasida o‘zbek tilida chop etilgan.

Fitratning Istanbulga kelishi arafasida Buxoroning ma’rifiy-madaniy hayotida ikkita muhim voqea ro‘y bergan edi. Bu voqealarning birinchisi 1908-yilning yozida jadidchilik harakatining otasi Ismoilbey Gaspiralining Buxoroga kelishidir. U Buxoro ziyolilari bilan uchrashib, ularga maktab va madrasa ta’limida islohot o‘tkazishni maslahat bergan. Hatto o‘zi ham Buxoroda birinchi usuli savtiya maktabini ochmoqchi bo‘lgan. Ikkinchi voqea esa Ismoilbey Gaspiralining rag‘batlantiruvchi so‘zlarini eshitgan Buxoro jadidlarining Sallohxona guzaridagi Mirzo Abdulvohid hovlisida I.Gaspirali orzu qilgan maktabni ochishlaridir. Afsuski, har qanday yangilikni kofirlikning ko‘rinishi sifatida baholagan ulamo, ko‘p o‘tmay, bu maktabning yopilishiga erishgan.

«Munozara» buxorolik ikki kishining – biri «qadim»chi, ikkinchisi esa jadid bo‘lgan, to‘g‘rirog‘i, jadidchilikka moyil, yevropacha tarbiya ko‘rgan kishining suhbati tarzida yozilgan. Ular o‘rtasida jadid maktablari va Buxorodagi bir qator ijtimoiy masalalar bo‘yicha bo‘lib o‘tgan bahs-munozaralar asarning g‘oyaviy mazmunini belgilaydi.

Farangi (asar qahramonlaridan biri) bilan Mudarris (asarning ikkinchi qahramoni) o‘rtasida suhbat boshlanishi bilanoq o‘zini Buxoroning sharifligiga bois bo‘lgan turli ilmlarning vakili, deb bilgan mudarrisning hatto «jug‘rofiya» so‘zini tushunmasligi ayon bo‘ladi. Hatto, bora-bora Buxoroning o‘n millionli aholisidan juda oz qismigina savodli ekani oshkor bo‘ladi. Bundan xabar topgan Farangi Mudarrisga bunday so‘zlarni aytadi: «F a r a n g i: Buxoroning barcha mardumlari, dunyoning izzati va oxiratining sharofati bilan ilmdan

ham mahrum qolganlar. Oqibat bu ilmsiz hayotning hosili ming turli tubanlikdirki, bundan qanday qanoat hosil qilish mumkin?..

«Payg‘ambaringiz «Ilmni Chindan bo‘lsa ham izlang», «Beshikdan qabrgacha ilm izlang», «Ilm dunyoning izzati va oxiratning sharafidir» hikmatlari bilan o‘zlarining barcha ummatlarini ilm tahsilig‘a da’vat etmagan bo‘lar edi. Binobarin, Buxoro ishlari shu qadar jaholatg‘a botganki, aholi ilmli bo‘lg‘anidan keyingina tartibga tushadi»[24].

Farangi bahs davomida o‘zini Payg‘ambarning ummati deb bilgan mudarrisning na Qur’on suralari, na Payg‘ambarning hadislariga rioya qilmay, maslakdoshlari bilan birga Buxoroi sharifdek qutlug‘ maskanni jaholat botqog‘iga botirib yuborganini birma-bir isbotlab beradi. Shu yerda nozik bir nuqta bor. Farangi obrazi zamirida garchand buxorolik jadid prototipi yotgan bo‘lsa-da, Fitratning bu ijobiy qahramonni Farangi deb atashi bejiz emas. Negaki, u jadidchilikka chetdan, xayrixoh kishining ko‘zlari bilan qarovchi personajgina emas, balki yevropalik ilg‘or kishilarning timsoli hamdir. U o‘rni bilan o‘zining yevropalik «ildizlar»ini ham ochib boradi: «F a r a n g i : «Biz, farangilar, diningizning dushmani esak-da, diniy xusumatlarimiz taqozo qilg‘anidek, Qur’on va Hadislaringizni kuydirish o‘rniga, ulardan o‘z manfaatimiz nuqtai nazaridan foydalanmoqqa, chanqog‘imizni qondirmoqqa o‘rgandik. Uning amrlarini amalga oshirdik va favqulodda taraqqiyotga erishdik» (49-bet). Fitrat bu so‘zlar bilan Farbning Sharq fani va madaniyati yutuqlaridan bahramand bo‘lgan holda katta yutuqlarga erishgan, Sharqning o‘zi esa «g‘aflatda qolib, Qur’onning saodatli hukmlaridan hamda hikmatli xabarlaridan bahra ololmay, tanazzul tubiga tushgan» deb biladi. Mudarris bilan Sharq tufayli «favqulodda taraqqiyot»ga erishgan Farbning vakili bo‘lmish Farangini o‘zaro to‘qnashtiradi, ular

[24] Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар, 1-жилд. – Б. 48-49. Бундан кейин “Мунозара”дан олинган кўчирмалар манбаи матндан кейин қавс ичида кўрсатиб борилади.

o‘rtasida bo‘lib o‘tgan fikr almashuvida haqiqat nurlarining taralishini kuzatadi.

Fitrat jadidchi sifatida, birinchi navbatda, insonning dunyoga kelib, ilm olish huquqiga egaligi va shu huquqdan foydalanishi lozim ekanligini ta’kidlaydi. Uning bu huquqi Payg‘ambar hikmatlari va Qur’on suralariga uyg‘un bo‘lishiga qaramay, jamiyatdagi fikri qotib qolgan kimsalarning qarshiligiga uchrab, oyoqosti qilinishi unda kuchli e’tiroz uyg‘otadi. Umuman, «Munozara»da ana shu ruh – ulamolar tutgan pozitsiyaga, ular egallab turgan marraga qarshi isyon, norozilik kayfiyatini ifodalash pafos darajasiga ko‘tariladi. Agar insonning ilm olish yo olmaslik huquqi faqat uning o‘ziga, taqdiriga ta’sir etganida, bu u qadar katta fojia bo‘lmasligi mumkin. Lekin, modomiki, jamiyat kishilar yig‘indisi va birligidan iborat, Buxoro amirligidagi xalq ommasi esa ilm va ma’rifatdan uzoqda yashayotgan ekan, bu narsaning amirlikdagi ijtimoiy-siyosiy tuzum va madaniy sharoitga ta’sir etmasligi mumkin emas. Shuning uchun ham din olimlarining, amirlikdagi reaksion guruhning g‘ayriilmiy harakati oqibatida amirlik ijtimoiy tuzum sifatida chiridi, xalq ommasi esa jaholat botqog‘iga botdi. Binobarin, Fitratning yangi usuldagi maktablarni himoya qilishi, yoshlarni madrasalarda yillab ijtimoiy hayot uchun muhim bo‘lmagan «fan»lar o‘rniga hayotiy zarur dunyoviy fanlarni egallashi lozimligi to‘g‘risida jon kuydirishi – bu xalqning ertangi kuni to‘g‘risida qayg‘urishi edi.

Mudarris Farangining har qanday mantiqli, asosli fikrlarini «kofirlik»ka yo‘yib, ularni rad etadi. Shunda Farangi bir paytlar musulmonobod o‘lkalardan biri bo‘lgan Andaluziyani misolga keltiradi: «F a r a n g i: «Ulkan Andalus qit’asi 450 yil musulmon sultonlarning idorasi ostida ulamo va fuzaloning ko‘plig‘i bo‘yicha musulmon o‘lkalarining birinchisi edi. Juda ko‘p ulamo kirom yetkazib, bisyor avliyoi izom yetishtirdi. Andak g‘aflat shumlig‘i va andishasizlik oqibatida Ispaniya nasroniylarning tasarrufiga o‘tib qoldi. Bir olam ulamo va avliyoning umri o‘tgan masjid va madrasalar

butxona, o‘sha butun islom ulug‘larining qabrlari butparastlar tomonidan poymol bo‘lgan. Ilgari azon sadosi yangragan joylarda bugun qo‘ng‘iroq ovozi jaranglamoqda» (66-bet).

So‘ng fikr nishabini maqsad sari buradi: «F a r a n g i: «Buxoroning o‘zini o‘ruslar egallaganlarmi yo yo‘qmi? (Asar yozilgan vaqtda, har holda Buxoro amirligi Qo‘qon va Xiva xonliklaridan farqli o‘laroq, yarim mustaqil bo‘lgan – R.Sh.). Agar egallamagan bo‘lsalar, har kuni imperator tomonidan amirga yo konsuldan qushbegiga keladigan yangi bir taklifning boisi nima? Shoyad bu hukmlar do‘stonadir, deb aytsangiz, men ham kamoli odob bilan sizga deymanki, nega buni muqobili sifatida amirdan ham o‘rus davlatiga biror taklif bo‘lmayapti? « ... Buxoro ilgarilari tugal mustaqil va ikki milyo‘n nufuzi bo‘lg‘an bir davlat edi. Muzaffarning mag‘lubiyatidan keyin xonlik tantanasi amirlikka, istiqlol dabdabasi vassallikka o‘zgardi, raiyat nufuzi uch baravar, yer maydoni esa o‘n baravar tushib ketdi. Agar yana bir oz muddat eski g‘aflatingizni davom ettirsangiz, din va millatingizning g‘amini yemasangiz, sharaf va nomusingizning muhofazasini o‘ylamasangiz, mehribon ona-Vataningizning huquqini unutsangiz, jahongir Temur bobongizning sha’ni va izzatiga xiyonat qilsangiz, bu mujassamani vahimalar doirasidan ham chiqarib tashlab, nom-nishonsiz, sharafsiz, izzatsiz rohat uyida azalabad uxlayajaksiz!» (67-68 betlar).

Jadid maktabi, Fitrat nazdida, ilmning beshigidir. Bu beshikdan keyin, albatta, maxsus o‘rta va oliy o‘quv yurtlarining bo‘lishi va yoshlar tahsilni shu tarzda, zanjirsimon davom ettirishlari zarur. Ilm faqat saboq olish, gazeta-jurnallarni o‘qish emas, dehqonchilik, sanoat, mudofaa ham ilmni, yangi texnikani taqozo etadi. Kichik bir orolning egasi bo‘lmish inglizlar ilm orqasidan qudratli harbiy davlatga aylanib, jahonning qariyb yarmini bosib olganlar. Turkiston va Buxoro hududlaridagi hokimlar esa ilmsizliklari orqasida o‘z vatanlarini dushman qo‘liga topshirib qo‘yibdilar. Fitrat aytmoqchi bo‘lgan fikr ana shu o‘zanda harakatlanadi. Mudarris garchand hamma

narsada «kofirlik» izlarini ko‘rsa-da, islom huquqining masihiy davlatlar tajovuzi bilan toptalayotganini sezmaydi, masjidlarga itlari bilan kirgan chor amaldorlari, ularning nazarida, islomiy qadriyatlarni oyoqosti qilmaydi, inson e’tiqodi va huquqlarini poymol etmaydi. Ular bunday katta narsalar bilan emas, balki jadid maktabi o‘quvchilarining kursida, xuddi o‘rislarga o‘xshab o‘tirishi bilan chiqisha olmaydi. Ilmsizlik hatto ularning ko‘zlarini ham toraytirib qo‘ygan.

Mudarris Farangining Buxoro amirligidagi vaziyatning og‘ir holga kelganligini ko‘rsatuvchi fakt va dalillari oldida esankirab, undan najot yo‘lini ko‘rsatib berishni so‘raganida, Farangi najot faqat jadid maktablarida ekanini aytadi. Xalqni ma’rifatli etmay, ulamoni jaholat botqog‘idan chiqarmay turib, jamiyat kemasini taraqqiyot manzillari sari boshlash, mustamlakachilikning siqilib kelayotgan zanjirlaridan xalos bo‘lishi amri mahol edi. Shuning uchun ham jadidlarning najot yo‘li sifatida yangi usuldagi maktablarni targ‘ib etishi va ochishi tarixan to‘g‘ri edi.

Jadidlarning diqqat markazlarini doim egallab turgan masalalardan biri – ayollar masalasi. Fitratning «Oila» risolasida ham ayollar masalasiga oid qarashlarini anchagina keng bayon qilgan. Yozuvchi Buxorodagi ayollar masalasini, ularning haq-huquqlari, jamiyatda tutgan o‘rni masalasini ham, shubhasiz, maktab bilan o‘zaro bog‘liq holda qo‘ygan: «Ayol aqli ta’lim va tarbiya xususida erkakdan kamroq bo‘lmasa kerak. Bizning hakimlardan biri aytadiki: «Biz Amerika va Fransiyo ayollarining ixtirolari mushohadasini keyin bildikki, ayolning tushunish darajasi erkaknikidan kam emasdir. Sizlarning Payg‘ambaringiz ham buyuradiki, «Ilm olish har bir musulmon erkak va ayolga farzdir. Ayollarning tarbiyati foydali bo‘lib,... «Kimki yaxshilik keltirsa, unga o‘n baravar...» oyatining hukmiga ko‘ra, yaxshi amallarga ega bo‘lishlik vojibdir. Negaki, yaxshi amallar yaxshi axloqsiz mumkin bo‘lmaydir... Bizning birinchi tarbiyamiz onalarimiz tarafidandir, ularning o‘zlari tarbiya ko‘rmagan

bo‘lsalar, biz ham ularning yomon tarbiyasidan hamisha yomon axloq egasi bo‘lamiz. Shu sababli donolar bizning olamni insoniyat doirasidan tashqarida, deb biladilar. Yurtning baxtsizligi zaminning saodatsizlig‘idirki, ayollar u yerni ta’lim va tarbiya sharafidan mahrum qiladilar» (58-59 – betlar).

Shubhasiz, Mudarris jonli timsoli bo‘lgan musulmon ulamolarining ayollarga bo‘lgan, ularning jamiyatdagi o‘rniga bo‘lgan munosabati Farangining bunday qarashiga ziddir. Ularning fikricha, ayol tug‘ish va nasl qoldirish uchungina Olloh tomonidan yaratilgan: «M u d a r r i s: Ajab odam ekansiz. Behuda ishlarning tashvishini qilyapsiz. Ayollarning yaratilishidagi hikmat «tavolud va tanosul» (tug‘ish va nasl qoldirish)dir. Men avvalan arz qildimki, bizda tahsil 37 yoshda tamom bo‘ladi. Bu suratda agar ayollarni ham tahsil ettirsak, uni tugatgandan so‘ng, yoshi 37 ga borganda, hech bir erkak ularga rag‘bat qilmaydi va u vaqtda «silsilai tanosul» (ketma-ket nasl qoldirish) uzilgan bo‘ladi»... Siz oson bo‘lg‘an tahsil usulini qabul qilganimizda ham yana bo‘lmaydiki, qizlarni ilm tahsili uchun ko‘chaga chiqarib yuborsak. Negaki, erkaklarimizni ahloqi buzuqdir. Tezdan ularning tahsilini fasodg‘a yo‘luqtiradi» (59-60 – betlar).

Shunday qilib, Fitrat Farangi bilan Mudarrisning bahsi orqali o‘z davrining ichki ziddiyatlarini, jamiyatni harakatga keltiruvchi kuchlar o‘rtasidagi kurashni, o‘zbek xalqining hanuzga qadar feodal tuzum sharoitida, jaholat og‘ushida yashayotganligi sabablarini ochib tashlaydi. Fitrat, boshqacha aytganda, asr boshlaridagi o‘zbek jamiyatining anatomiyasini bizga, jarroh o‘laroq ochib beradi.

Farangi Mudarrisning usuli jadida maktabiga bo‘lgan barcha e’tirozlarini o‘z dalillari bilan bartaraf etar ekan, bunday maktablarning nafaqat Istanbul, Bog‘dod, No‘g‘ayiston va Kavkazda, balki Madinai munavvarada – islom dinining markazida ham ochilgani haqida ma’lumot beradi va bu maktablar «avvalgidan olimroq, mutadayyinroq va vatanparvarroq» shogirdlarni yetishtirib chiqarayotganini aytadi. Chamasi, xuddi shu o‘rinda «vatanparvar»

so‘zi Fitrat tomonidan biz tushungan ma’noda birinchi marta qo‘llanadi. Fitrat talqinidagi usuli jadida maktabining eski maktabdan farqi shundaki, «bolani olti yoshligidan maktabga yuboradilar, u o‘n to‘qqiz yoshida olim, mutadayyin, vatanparvar, dindo‘st, millatparast, siddiq, odil, tamom islomiy amrlarga mut’i, butun insoniy shartlarga mushtamal bir shaxs bo‘ladi. Demak, maktabi qadim va madrasalardagi usuli qadim bilan birga o‘ttiz yil, tahsili jadida muddati esa o‘n uch yildir» (83-84 betlar).

Tahsilning jadidlar ishlab chiqqan bu usuli xotin-qizlarning ham to‘laqonli ilm olishlariga imkon tug‘diradi; binobarin, «usuli jadidaga ko‘ra, osonlik bilan ayollar ham, erkaklar ham olim bo‘ladilar» (85-bet). «Tahsili jadida, - deydi Fitrat o‘z qahramoni tilidan, - qizni olti yoshligida maktabga beradilar, agar xohlasalar, o‘n sakkiz, aksariyat o‘n to‘rt yil o‘qitib, tafsirxon va hadisxon olima qilib kuyovga beradilar» (84-bet). Fitrat xotin-qizlarning erkaklar bilan baravar ilmdan bahramand bo‘lmasligi jamiyat va xalq taqdiriga salbiy ta’sir ko‘rsatib kelgani va hozir ham ko‘rsatayotganini alohida ta’kidlaydi.

Farangi jadid maktabini ochishni taqozo etayotgan masalalarni birma-bir qayd etib, Mudarrisga deydi: «F a r a n g i: ...Birinchi: Sizlarning maktab va madrasangiz tahsil usuli g‘oyat uzoqdir, shu sababdan bechora ayollar ular uchun ham farzi ayn bo‘lg‘an ilm va irfon sharafini qo‘lga kiritishdan mahrum qolmoqdalar. Ikkinchi: ular ilmsiz qolmoqdalar, har (bir) ilmsiz tarbiyasiz bo‘lg‘ani kabi, ular ham tarbiyasiz bo‘lib qoladilar. Ma’lumdurki, kim tarbiyasizning qo‘lida katta bo‘lsa, u tarbiyasiz o‘sadi. Binobarin, Siz hammangiz tarbiyasiz qolmoqdasiz, chunonchi, qolg‘ansiz ham... « (90-bet).

Fitratning nazarida tarbiyaning asosiy unsurlaridan biri - ilm. Binobarin, ota-ona tomonidan farzand tarbiyasi ilm bilan qo‘shilgan bo‘lishi, aniqrog‘i, farzand maktab ko‘rgan, ma’lumotli, jaholatdan yiroq ota-ona tomonidan tarbiyalanishi lozim.

Fitrat o‘z «Munozara»si bilan madrasa ta’limining davrdan orqada qolganini, uni tubdan isloh etish zarurligini isbotlab berdi.

Fitrat Mudarrisning fikrlarini birma-bir rad etib, nihoyat, uning so‘nggi dalili – Amir Temur, Mahmud Faznaviy, Nodirshoh Eroniylarning «taraqqiyot zamonlari»da mashhur bo‘lgan musulmonlarning ana shu madrasadan chiqqanliklari masalasiga to‘xtab, unga so‘nggi qaqshatqich zarba beradi: «F a r a n g i: Qaysi zamonni aytyapsiz? Bu podshohlarning taraqqiyot zamoni qachon bo‘lg‘an?.. Ular egallagan olamlar qayoqqa ketdi? Amir Temur hodisalarning axbori bir kechada Hindg‘a yetib boradi, deb qachon gumon qilg‘an? Bir nafar odam yo‘lning ikki ming qadamidan bir soatda ellik kishini tortib ketishi Nodirshohning xotiridan o‘tganmi?.. Bu podshohlardan har biri Hindni Ching‘a qadar qabzayi tasarrufig‘a olg‘anig‘a shubha yo‘q, lekin ular o‘tishi bilan o‘sha shaharlar ham avvalgi holatig‘a qaytg‘an, ularning taraqqiyoti muvaqqat, o‘sha shaxslarninggina hayotiga bog‘liq edi. Ovro‘pa davlatlarining taraqqiyoti esa doimiydir... « (93-bet).

Fitrat o‘z ijodining tongida yozilgan asari bilan 1910-yilda 24 yoshidayoq ham diniy, ham zamonaviy fan va texnika bo‘yicha katta bilim, yuksak madaniyat egasi ekanini namoyish etdi. Uning bu asarida olg‘a surilgan ijtimoiy-siyosiy va huquqiy va axloqiy qarashlari jadidchilik qirg‘og‘iga yaqinlashib kelayotgan yoshlar safini ko‘paytirib, ularni ruhiy, ma’naviy va ilmiy jihatdan tom ma’noda qurollantirdi.

Xorijda nashr etilgan «Milliy Turkiston» (1952-yil, 80-81–sonlar) jurnalida yozilishicha, Fitrat Istanbuldagi muallimlar gimnaziyasida o‘qiyotgan paytida «Yosh usmonlilar» faoliyati bilan yaqindan qiziqqan va ularning harakat usullarini diqqat bilan o‘rgangan. Shu bilan bir qatorda, u Turkiyada nashr etilgan «Turk yurdu», «Sirot ul-mustaqiym» va «Ta’rufi muslimin» singari gazeta va jurnallarni ham muntazam ravishda kuzatib borgan va bu nashrlarda e’lon qilingan maqolalar Fitratni «Munozara»ni yozishga ilhomlantirgan. Xorijiy muallifning bu fikri shu bilan tasdiqlanadiki, Fitrat ushbu nashrlardan biri «Ta’rufi muslimin» orqali Buxoro vaziri

Nasrullohbek Parvonachiga «ochiq xat» yo‘llab, unda, jumladan, «Munozara»dagi fikrlari bilan hamohang bo‘lgan quyidagi so‘zlarni yozgan: «Har qancha ko‘z va qulog‘ingizni berkitsangiz ham, bu qadimiy islom millatining faryodi va muqaddas vatanimizning xarobligiga achinmay tura olmaysiz... Millatimiz va yurtimizni shu holga keltirib qo‘ydikki, dunyoning burchagida eng qiyin kunlarda tashvish chekib yashayotgan odamlar ham bizning ahvolimizga qon yig‘lamoqdalar»[25].

Kezi kelganda aytish kerakki, Fitrat Buxoro vaziriga «ochiq xat» yozibgina qolmay, balki «Munozara»ning xotima qismida bevosita amirning o‘ziga ham murojaat etgan. Ammo uning bu murojaati boshqa maqsadni, ya’ni «Munozara»da bayon etilgan tanqidiy fikrlar amirga emas, balki amirlikdagi mutaassib kishilarga qaratilganini aytish va uning g‘azab olovini ularga qaratishni ko‘zda tutgan. Shu bilan birga, u kitobxonlarga ham murojaat etib, Farangi nomidan aytilgan fikrlarini yana bir karra ular xotirasiga quyishga intilgan. «Munozara»ni imkon boricha tahlil etib, u haqda dastlabki maqola e’lon qilgan[26] Rahim Gulshan Muhiddin qizi bu asar haqida shunday xulosaga keladi: «Fitratning «Munozara» asaridagi Buxorodagi maktab-madrasa va yangi usul maktablariga oid barcha nazariy masalalar hal qilib beriladi. Buxoro maktab-madrasalarida tahsil tariqi (sistemasi)ning eskirganligi fosh etiladi va yangi jadid usuli maktablari targ‘ib qilinadi»[27]. «Munozara»day davr ruhini jiddiy aks ettirgan asar haqida, avvalo, bunday umumiy xulosa qilib bo‘lmaydi. Qolaversa, «Munozara»da yangi usul maktablariga oid barcha nazariy masalalar hal qilib berildi deb bo‘lmaydi. Faqatgina Fitrat tomonidan bu muammolar xalq va uning peshqadam yo‘lboshchisi ziyolilar oldiga qo‘yildi, xolos. Muallifning bu mavzuga keyinchalik ham

[25] Кўчирма Ҳ.Болтабоевнинг Фитрат “Танланган асарлар”ининг 1-жилдига ёзилган сўзбошисидан олинди. –Б. 9.

[26] Қаранг: Раҳимова Г. «Мунозара» – уйғониш даракчиси. \\ Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 1989. – 29 декабрь.

[27] Раҳим Гулшан Муҳиддин қизи. Абдурауф Фитрат ва жадид адабиёти (XX асрнинг 20-йилларига қадар). Филол.. фанлари номзоди... дисс. автореферати. –Т.: 1999. –Б.22.

qayta-qayta murojaat etganining o‘zi „barcha nazariy masalalar hal qilib» berilmaganini ko‘rsatadi.

«Munozara» o‘z vaqtida yozilgan va keyingi jadidchilik harakatiga katta ta’sir ko‘rsatgan asar edi. Uning ana shu ta’sir ko‘rsatish qudratini sezgan samarqandlik dramaturg Hoji Muin fors tilidan o‘zbek tiliga pesa tarzida tarjima etdi va bu ikki pardali satirik asar, teatrshunos olimlarning ma’lumotiga ko‘ra, Samarqand va Toshkent sahnalarida muvaffaqiyat bilan qo‘yildi. Shuni ham qayd etish lozimki, Hoji Muinning tarjimasi ancha qisqartirishlar, ayrim juz’iy o‘zgartirishlar bilan bosilgan. Shu bilan birga unda qo‘llanilgan forsiy so‘zlarning miqdori shu qadar ko‘pki, ularni yana lug‘at yordamida o‘qishga to‘g‘ri kelar edi. Ana shu ehtiyoj hisobga olingan holda asar fitratshunos H.Boltaboev tomonidan qayta tarjima qilingan, Hoji Muin tarjimasida tushirib qoldirilgan muqaddima, yosh turklar va yosh eronlilar harakatining yo‘lboshchilariga munosabat masalalari aslidagidek tarjimada ham aks etgan. Hoji Muinning «Eski maktab yoki Yangi maktab» (1916), Xurshidning «Jadid va qadim» (1919) pesalari Fitratning «Munozara»si ta’sirida maydonga keldi. «Munozara»ning bunday katta aks-sado kasb etishi unda Fitratning katta mahorat bilan ifodalangan falsafiy, tarixiy, siyosiy, ijtimoiy va huquqiy qarashlaridir.

Fitratning Turkiyadagi talabalik yillarida yozgan ikkinchi nasriy asari «Hind sayyohi bayonoti» deb nomlangan. Sadriddin Ayniyning fikriga ko‘ra, Buxoro aholisiga «Munozara»dan ham ko‘ra ko‘proq ta’sir ko‘rsatgan. Bu har ikkala asar mavzu nuqtai nazaridan o‘zaro yaqin: ularda yosh ziyolining ona yurtida hukm surayotgan vaziyatni xalq va uning kelajagi foydasiga o‘zgartirishga qaratilgan fikrlari yetakchilik qiladi. Asarda Buxoro amirligi hududidagi hayotning barcha ijtimoiy va madaniy qirralari yoritilgan, muammolari o‘rtaga tashlangan. Bu asarda ham amirlikdagi noxush manzaralarni fosh etish pafosi ustuvor ahamiyatga ega.

«Hind sayyohi bayonoti» ham fors tilida yozilgan bo‘lib, 1912-yili Istanbulda nashr etilgan. Fitrat endi bu asarda Buxoro haqida ko‘p yaxshi gaplarni eshitgan va shu gaplar ta’sirida bu ko‘hna mulkka tashrif buyurgan Hind sayyohi obrazida harakat qiladi. Fitrat bu asarga ham Hind sayyohi bilan birga ikkinchi personajni kiritishni lozim, deb topgan. Ammo, «Munozara»dan farqli o‘laroq, bu personaj Hind sayyohining antipodi, aksilqiyofasi emas, balki maslakdoshi bo‘lgan buxorolik navqiron yigitdir.

Fitrat asar boshida Buxoro aholisini uch toifaga ajratib ko‘rsatadi: bular - ulamo, umaro va fuqarodir. U ulamoni bunday ta’riflaydi: «Ma’lumingizki, Buxoro qadimdan g‘oyat dono va zukko bo‘lib yetishgan fuzalo ahlini tarbiyalab, voyaga yetkazgan. Har kuni bir Abu Ali, Forobiy, Muhammad ibn Ismoil Buxoriy va Ulug‘bek kabilarni jahonga hadya etib, shu tariqa o‘zining sharafli dovrug‘ini jahon xalqlarining quloqlariga zirak qilib taqqan. Ammo, mana, ikki yuz yildirki, o‘zining ilmiy qimmatini yo‘qotmish. Mirzajon Sheroziyning[28] kelishi bilan Buxoro ulamolari «ziyodati lafzi salosin» ma’nisini tahqiq etishdek naf’siz ishg‘a berilib, adashmishlar. Turkistonlilarning ko‘pchiligi ayni shunda tahsil ko‘rganlari bois buxorolilarga ergashib, ular ham jaholat va g‘aflat botqog‘iga botmishlar. Alal oqibat madaniyat osmonining porloq yulduzi, insoniyat kitobining nurli sahifasi bo‘lmish Turkistonni do‘stu dushman oldida eshitish va gapurish bobida uyatliq bir holg‘a yetkazmishlar, halokatg‘a mubtalo etmishlar» (98-99 betlar).

Ko‘ramizki, Buxoro aholisini tashkil etgan uch toifa ichida salmoqli mavqeni egallagan ulamoning «naf’siz ish»larga berilishi va adashishi orqasida Buxoro amirligini XVIII asrdan boshlab tubanlikka yuz tutgan va bugungi kunda «jaholat va g‘aflat botqog‘i»ga botgan, deb hisoblaydi.

Fitratning fikriga ko‘ra, ikkinchi toifa, o‘z navbatida, ikki guruhga ajraladi: «Birinchi, johil hokimzodalar bo‘lib, otalarining

[28] XVIII асрларда Эрондан келиб, Бухорода ўрнашган мударрис.

hukmronlig‘i davrida fisqu fujur va bema’nilarcha maishatga berilib, barcha insoniy fazilatlardan, hatto, zaruriy xat-savoddan ham bebahra qolmishlar. Boshqa bir toifa attor va boqqollar bo‘lib, har ikki dunyoning saodatidan imkon boricha bahramandlik istamishlar hamda ilmu fazl tahsilini insoniy fazilatlardan biladilarki, hammalari birlashib, turlicha yo‘llar bilan hokimlikning oliy martabasiga yetmishlar»[29].

«Millat qanday yuksaladi, mamlakat qaysi yo‘l bilan boyiydi, davlatning xazinasini qanday to‘ldirish mumkin» kabi Fitrat tomonidan o‘rtaga qo‘yilgan masalalar umaro toifasiga mansub etilgan kishilarning tushiga ham kirmaydi. Negaki, ular: «Muayyan hokimi mansabdorning xalq oldidag‘i vazifasi nedan iborat, xalqning hokimga nisbatan huquqi qay darajada?» kabi andishalarni hech qachon eshitmaganlar. Buxoro amirligidagi mudhish hayot manzaralarining «mualliflar»i, Fitrat nazarida, ana shu har ikki toifa kishilaridir. Uchinchi toifa yozuvchi nazarida shunday: «F u q a r o: Bu bechoralarda ayb yo‘q, ular har ishg‘a qodirdirlar. Biroq ayblari shundaki, buni o‘zlari ham bilmaydilar» (100-bet). Garchand fuqaroga berilgan tavsifda «bu bechoralarda ayb yo‘q», deyilgan bo‘lsa-da, sayyoh tushgan aravaning jinko‘chada qarshisidan kelib qolgan arava tufayli to‘xtab qolishi va ikki o‘rtada urish chiqishi manzarasida fuqaroning ham beayb emasligi ma’lum bo‘ladi.

Sayyoh Buxoroga ilk bor kelgani tufayli Havzi Devonbegiga yo‘l oladi. Sayyoh hovuz bo‘yidagi supada o‘tirib, yon-veridagi kishilarni suhbatga tortadi. Bu suhbatdan ma’lum bo‘lishicha, odamlar katta meshlarda hovuzdan suvni ichish uchun olib ketishayotgan ekan:

«M e n: Hali sizlar ham shu hovuzdan suv ichasizlarmi?

M u l l a bir achchiq bilan so‘radi: Bu suvga nima qilibdi?

M e n: Buning sog‘liqqa katta ziyoni bor.

M u l l a: «Har bir tirik jonni suvdan yaratdik», deydi Qur’oni karim. Suvning inson sog‘lig‘iga foydasi bor, nainki zarari bo‘lsa...

[29] Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. 1-жилд. – Б. 99-100. Бундан кейин "Ҳинд сайёҳи баёноти"дан олинган кўчирмалар манбаи матндан кейин қавс ичида кўрсатиб борилади.

M e n: Qarang, ko‘pchilik hovuzda tahorat oladilar, og‘iz va burunlarini chayadilar, loy oyoqlarini yuvadilar. Agar sartaroshlik, choyxona, kallapaz va baliqpazlarning ham chiqindilarining hisobini olsak, har kuni bu hovuzga yarim man (4 pud – R.Sh.) iflos tushar-ov.

M u l l a: Bu bilan nima demoqchisiz? Bu hovuzdan suv ichmaylikmi?

M e n: Suv ichmanglar, demayman. Bu hovuzda tahorat olmanglar, burun va oyoqlaringni yuvmanglar, axlat va chiqindilarni bunga tashlamanglar, demoqchiman. Chunki ichadigan suv toza bo‘lishi kerak» (103-bet).

Fitrat ana shu Sayyoh qiyofasida Buxoroning turli «diqqattortar» joylariga nazar tashlab, shahar va xalq hayotining xunuk manzaralarini tasvirlaydi. Bu manzaralarda muallifning e’tiborini tortgan asosiy narsa xurofot va uning turfa ko‘rinishlaridir. Masalan, u Bahovuddin mozorini ziyorat etar ekan, odamlarning ikki-uch joyda osilgan qo‘chqor shohlarini o‘payotgani, ot dumidan yasalgan tug‘larni ko‘zlariga surtayotgani va shu tug‘ning cho‘piga «o‘zining parishon ro‘zg‘oridan» shikoyat qilib, hojat chiqarmoqchi bo‘lganini ko‘radi. Bu manzaraning guvohi bo‘lgan Hind sayyohi deydi: «Payg‘ambarimiz hazrat «qabristonni ziyorat qilingiz, u sizga oxiratni eslatadi,»- deb buyurganlar. Albatta, qabristonni ziyorat qilish, agar o‘lim va qiyomatni eslash uchun bo‘lsa, bu yaxshi ishdir. Ammo mas’ala shuki, ziyoratni butparastlik darajasiga yetkazmaslik joiz. Insof qiling: Hazrat mozorotida namoz o‘qiysiz, mozor yalovining cho‘piga sajda qilasiz, hojatlaringizni Bahovuddindan so‘raysiz. Bugun Buxoroi sharifda kimsa yo‘qki, «Yo, Olloh!» o‘rniga «Yo, Bahovuddin!» desa. Bu ishlarning hech biri shariatda joiz emas... Biz Hazrat Bahovuddinni yaxshi ko‘ramiz, ammo bu muhabbatimiz, ehtirom va ziyoratimiz bizni shariat qonunlaridan chiqarib, bahovuddinparastlikka olib kelmasin» (107 – bet).

Buxoroda ikki yuzga yaqin madrasa bo‘lib, shulardan o‘ttiz uchtasi oliy, o‘ttiz to‘qqiztasi o‘rta, yuzdan ziyodasi esa quyi toifaga

mansub ekan. Bundan tashqari, uch yuzta quyi maktab, o‘n bitta kutubxona, yigirmadan ortiq oshxona, shuningdek, besh-oltita qorixona va qirqqa yaqin tahoratxonaning ham mavjudligi ma’lum bo‘ladi. Sayyohning do‘sti bunday quvonchli ma’lumotlar beradi: «Olamga to‘rt yuz olimni bergan Buxoroyi sharif shunchalik mustahkam ilmiy quvvatga ega bo‘la turib, emdi... oh! Buyuk badbaxtlik bilan iqror bo‘lamanki, hozir bu ma’rifat quyoshining osmoni, bu insoniyat olamining jannati, bu fozillar dunyosining ma’mur xonadoni, bu ma’rifat olamining darsxonasi taraqqiyot uchun barcha imkon va vositalarga ega bo‘lsa hamki, jaholatning asl makoni, xorlik zanjirining asirligicha qolyapti. Tiriklik uchun barcha zarur ashyolarga ega bo‘lishiga qaramay, yoqasini ajal panjasiga topshirmish!» (113-bet)

Hamroh davom etib, Buxoro amirligidagi dahshatli jarohatlardan birini ochadi: «Ha, ikki yuzta madrasamiz bor. Ularning hammasi to‘rt milyo‘n tangaga yaqin vaqfga egalar. Faqat bu vaqflarning hammasi ikkiga bo‘lunib, bir qismi «haqqi ul-tadris» (o‘qitish haqi – R.Sh.) nomi bilan dars beruvchilarning «hamiyat» cho‘ntagiga kiradi. Ikkinchi qismi esa, hujralarga qarab taqsimlanganlari uchun, hech shubhalanmay, bechora mullabachchalarning halol haqlariga, desak bo‘lar. Badbaxtlikni ko‘ringki, ushbu hujralarni ham muftilar, mudarrislar va boshqa davlatmand ulamolar o‘zlarining mulklariga aylantirishgan. Zero, mullavachchalarning vaqf pullarini ham o‘zlarig‘a olg‘anlar. Hatto hujralarni ham o‘n mingdan qirq ming tangagacha narxda sotmishlar...» (114 – bet)

Shunday qilib, Amir Temur davridan shu vaqtgacha qanchadan-qancha olimlarni yetishtirganligi bilan maqtanuvchi ulamo Buxoro amirligidagi mudhish sharoitning bosh sababchisi bo‘lib chiqadi. U nafaqat eski idora usulini qo‘llab-quvvatlashi, har qanday yangilikka, hattoki, «usuli jadida» maktablarini ochishga ham qarshilik ko‘rsatishi, balki madrasa, maktab, kutubxona va talabalarga ajratilgan katta mablag‘ni «tuya qilishi» bilan ham Buxoroni «jaholatning asl

makoni», «xorlik zanjirining asiri»ga ham aylantirmoqda edi. Demak, «Munozara»da aytilganidek, Buxorodagi ahvolni tanglashtirgan asosiy sabab ilmga bo‘lgan rag‘batning yo‘qligidir.

Sayyoh do‘stining Buxorodagi bugungi vaziyatdan ma’yuslangani va hatto umidsizlanganini ko‘rib, uning diqqat-e’tiborini o‘rta asrlar tarixiga jalb etadi: «Bugun bizni o‘z ixtirolari bilan, yangi-yangi hunarlari bilan hayratda qoldirayotgan Ovro‘paning ahvoli o‘rta asrlarning boshlarida hozirgi ahvolimizdan ham badtar edi. Aholi johil va mazlum, hokim va ruhoniylari esa fojir va zolim edilar. Ruhoniylari juda ko‘p yerga ega bo‘lishib (xuddi Buxoro yo Turkistondagidek! – R.Sh.), har birlarining o‘z bayroqlari bor, boz ustiga pul ham zarb etar edilar. Ayrimlarining mulklari esa butun bir viloyat yerlaricha kelardi. Hukumat kishilari ularning yerlariga kirib, soliq ololmaganlar... Faqat bugina emas, ular hukumat ishlariga ham aralashar, o‘sha davrning qirol va imperatorlari o‘zlarini kalisoning muhiblari, deb bilishardi. Biron bir amir yoki podshoh ruhoniylarning gaplarini ikki qila olmagan» (118-119 – betlar).

Fitratning Buxoro madrasalarida tahsil ko‘rgan yillarida bu madrasalardagi ahvolni yaxshi bilganligi va o‘rganganligi shubha uyg‘otmaydi. Biroq shu muhitda ulg‘aygan talabaning Yevropa xalqlari tarixidan bu qadar xabardorligi va bilim boyligidan o‘z o‘rnida foydalanishi unga nisbatan hurmat tuyg‘usini uyg‘otadi: «Mazkur po‘plarning yuritgan ishlari, harakatlari ham uzoqqa cho‘zilmagan. Uning asr (isoviy minginchi yil) boshida Ovro‘paning ayrim nuqtalarida protestantlar mazhabiga mansub maxsus guruhlar maydonga chiqqan. Ular 12-asrga kelib keng miqyosda tarqalgan va joylarda o‘zlarining guruhlarini tuzishib, o‘z ulamolariga qarshi kurash boshlaganlar. Protestantlar Injilni oddiy xalq tiliga tarjima qilg‘anlar, avom xalqni ilmga da’vat etganlar (xuddi jadidlardek – R.Sh.). Ular Injilga qarshi har xil gap va ishni qoralag‘anlar. Aytar ekanlarki, agar bizning ulamomiz Hazrat Masihning noiblari bo‘lishsalar, nega munchalik mol-mulk to‘plaganlar (Buxoro

ulamolari singari – R.Sh.)? Haqiqiy ulamolar va Hazrati Masihning noiblari pulga bunchalar o‘ch bo‘lmasliklari (Buxoro ulamolari singari – R.Sh.), bir qultum suv va bir burda nonga qanoat qilishlari lozim edi. Nahotki, bizni tarkidunyochilikka da’vat qilgan kimsalar nazru niyozimiz va tavbalarimiz evaziga mol-mulkimizga egalik qilsalar! Biz ham xudoning bandalarimiz...» (119 – bet).

Fitrat, birinchidan, bu unutilayozgan haqiqat muallifning hali talaba bo‘lishiga qaramay, jahon xalqlari tarixini, shu jumladan, Sharq va Farbning o‘zaro munosabatlarini puxta o‘rgangani, aql va zakovati yuksalgani, binobarin, o‘z vatandoshlariga milliy taraqqiyot yo‘lini ko‘rsatish huquqiga ega bo‘lganidan shahodat beradi. Ikkinchidan esa, modomiki Sharq, xususan, Turkiston xalqlari o‘tmishda shunday taraqqiyot bosqichiga ko‘tarilgan, va hatto, Farb xalqlari ulardan ko‘p narsani olgan ekanlar, demak, bu xalqlar ham yaqin kelajakda o‘zlarining ilgarigi mavqelarini tiklashlari mumkin; faqat buning uchun ular ilm-fanga katta ishtiyoq bilan kirishishlari lozim, degan asar g‘oyasi muayyan bir zaminga ega, ishonarli va ishontirarli g‘oya o‘laroq jaranglaydi.

Hind sayyohi Buxoro bo‘ylab sayohat qilar ekan, sarbozlar va tabiblar bilan uchrashadi. Agar Sayyoh Buxoro bilan yaqindan tanishishi jarayonida sarbozlar haqidagi bu haqiqatni kashf etgan bo‘lsa, hastalikka yo‘liqishi tufayli o‘z kasb-kori bo‘yicha hech qanday bilimi bo‘lmagan, binobarin, bemorlar dardiga malham bo‘lolmaydigan tabiblarga ro‘para keladi. XX asr boshlarida rus do‘xtirlarining tibbiy yordamiga murojaat etish kofirlik hisoblangan. Oddiy xalq eng nochor holga tushganida ham rus do‘xtirlariga uchrashishni xayoliga keltirmagan. Shuning uchun Buxoro amirligi hududida turli kasalliklar avj olgan. Sanitariya va gigiena talablariga rioya etilmaganligi tufayli bu kasalliklarning xili yildan-yilga kamayish o‘rniga ortib borgan. Xullas, «tibbiy» jaholat Buxoroni ichdan kemiruvchi illatga aylangan. Sayyoh rus do‘xtiri bilan suhbati chog‘ida Turkistonning tibbiyot masalasida endi Farbdan o‘rganishi

va amirlikdagi vaziyatni mutlaqo o‘zgartirish lozimligi g‘oyasini olg‘a suradi. Bu g‘oya chetdan malakali, bilimli do‘xtirlarni chaqirish, Buxorodagi madrasalardan birini tibbiy madrasaga aylantirish, buxorolik yoshlarni Yevropadagi tibbiy markazlarga o‘qishga yuborish va har to‘rt yilda ma’lumotli mahalliy do‘xtirlar avlodini tayyorlash bilan amirlikdagi mazkur muammoni hal etishni o‘z ichiga oladi.

Sayyoh faqat Buxoro shahrini ziyorat qilish bilangina kifoyalanib qolmay, Qarshi bekligiga ham yo‘l oladi. U yerda yaxshi va yomon voqealarni ko‘radi. Ammo «Munozara»dagi Farangidan farqli o‘laroq, xalq hayotidagi ijobiy hollarga e’tiborni qaratadi. Xususan, Qarshi hunarmandlarining shu vaqtgacha jahon bozorida mashhur bo‘lgan alachalari munosabati bilan Fitrat bugungi kun uchun ham ahamiyatli fikrlarni o‘rtaga tashlaydi. Hind sayyohining fikriga ko‘ra, Yevropa xalqlari agar biror ishga qo‘l ursalar, shu ishlarning o‘n yil, yigirma yil, hattoki, yuz–ikki yuz yil keyingi rivojini ko‘zda tutadilar; vaqt o‘tishi va texnologiyaning eskirishi bilan uni muntazam ravishda mukammallashtirib turadilar. Shu nuqtai nazardan yondashganda, hatto mashhur Qarshi alachalarining ham kelajagini ko‘ngildagidek, deb bo‘lmasdi. Vaqti kelib, bu alachalar bozori ham inqirozning changalida qoladi. Xullas, bozorni xorijiy savdogarlarning mollari egallab oladi. Xalq va mamlakat puli xorijga oqib, mamlakatning milliy daromadi pasayadi. Xuddi shu masalada Fitrat jadidlarning iqtisodiy qarashlari mohiyatini belgilovchi fikrlarni o‘rtaga tashlaydi. Men shunday xulosaga keldimki, *agar turkistonli hunarmandlar, ovrupalilar singari, qo‘l mehnatiga asoslangan korxonalarini doimiy fabrikalarga aylantirmas ekanlar, bir necha yildan keyin ularning sharafli san’atidan nom-nishon qolmaydi»* (ta’kid bizniki – R.Sh.).

Fitrat ana shu tarzda o‘sha davr uchun ham, keyin ham g‘oyat muhim bo‘lgan iqtisodiy muammolar bo‘yicha to‘g‘ri fikrlarni o‘rtaga tashlaydi va hatto yuqoridagidek tavsiyalar beradi. U ana shu

yo‘nalishda fikr yuritarkan, Qarshi tuprog‘i arpa, bug‘doy, ayniqsa, tamakidan ko‘p hosil olish mumkin bo‘lgan zamin ekanligini va bu holdan foydalanish lozimligini qayd etadi. Xuddi shu yerda Fitrat bugun biz fikr yuritayotgan «inson omili» degan masalani ko‘taradi. *U bu masalani, bir tomondan, agar Qarshi va Kitobning biron bir olacha to‘quvchisi Farangistonda yashaganida zer-zevarga botishi, agar Shahrisabz yerlari yapon elida bo‘lganida ularning «zar ekib, zar undirishlari» mumkin ekanligi bilan tushuntiradi* (ta’kid bizniki – R.Sh.). Ikkinchi tomondan, Qur’ondagi «Biz insonni yuksak qilib yaratdik», «Yer va osmondagi barcha narsalarga sizlarni hukm qiluvchi, deb buyurdik», «Yeru osmonda har nima bo‘lsa, sizlarning buyruqlaringizni bajaruvchi qilib tayinladik» singari so‘zlarni keltirib, insonning, chunonchi, turkistonlik kishilarning ham yer yuzidagi ulug‘ va qudratli mavjudot ekanini aytadi va ularda o‘zlariga nisbatan ishonch hissini uyg‘otmoqchi bo‘ladi.

Fitratning Turkiston aholisi ijtimoiy faolligini uyg‘otish, yangi tarixiy davr talablariga javob beruvchi kishilar bo‘lib ulg‘ayishida Qur’oni karim oyatlaridan o‘rinli foydalanishi g‘oyat muhimdir. U yangilik dushmanlari tomonidan keluvchi qarshilikka shu yo‘l bilan javob berishini, o‘z g‘oyalari musulmonchilik asoslariga zid emas, balki ular bilan hamohang ekanini namoyish etgan.

«Sayyohi hindi bayonoti»da yana bir fikr yuqorida bayon etilgan qarashlar bilan mushtarak xususiyatga ega. Bu - tijorat va tijoratchilar masalasi. Buxoroda tijorat ko‘ngildagidek taraqqiy etmagan. Fitrat ilgari surgan fikrga ko‘ra, *islom shariati tijorat va davlatmandlikni man etgan emas, balki amr etgan.* Uning fikricha, jamiyatdagi xayrli ishlarning aksari davlatmand kishilar tomonidan bajariladi. Masalan, kishilar namoz o‘qiydigan masjid davlatmand kishilar tufayli qad ko‘taradi:

«Ajabo, islom dini nega tijoratni qo‘llagan?- deb savol beradi u va bunday javob qaytaradi. - Chunki, tijorat masalasi bashariyatning hayot-mamot masalasidir... Lekin bizning davrimizda bo‘ladigan

urushlarning asl sababi tijorat mojarolaridan boshqa narsa emasdir. Masalan, taraqqiy qilgan bir davlat o‘z tijoratini kengaytirish niyatida boshqa qoloq davlat yeriga boradir va ayrim imtiyozlarga ega bo‘lib, u mulkning yo‘lini o‘z tijorati uchun ochadir... Agar boshqa bir kuchli davlatda ham o‘sha vaqtda tijorat ishlari yuksalgan bo‘lsa, u ham o‘z savdo miqyosini himoya qilish uchun qarshi tomondan lashkar tortib, urushga kiradir. *Shunday qilib, ikki buyuk davlat boshqa bir kichik davlatning yerida tijorat ravnaqi uchun lashkar tortadirlar»* (ta’kid bizniki – R.Sh., 164-165 – betlar).

Modomiki, *tijorat hatto davlatlararo urushlarning va, extimolki, Turkistonni bosib olishning ham sabablaridan biri* ekanini anglatib, bu borada shunday tavsiyalar beradilar:

«1. Begonalar o‘zaro ittifoq tuzish va birlashish kuchiga ega, sizlarda esa nifoq va begonalik bor.

2. Begonalarning o‘z fabrikalari bor, sizda esa yo‘q.

3. *Ular savdo ilmini necha yil zo‘r berib o‘qig‘anlar va biladilar, sizlar esa bilmaysizlar»* (167 – bet).

Ko‘ramizki, tijorat masalasi ham ilmga kelib taqaladi. Demak, jadidchilikning dasturiy g‘oyalaridan biri *ma’rifatparvarlik tijorat sohasini ham o‘z qamroviga oladi.* Fitrat bunday amaliy tavsiyalar berar ekan, «*sizlar o‘z farzandlaringizni tijorat maktablariga yuborib, savdo ilmini o‘qitingiz,»* deb qayta-qayta takrorlaydi.

Tijorat – boylik orttirish, pul topishdir. Fitrat tijoratni shunday tushunadi. Ammo shu bilan birga boylik, uning talqini bo‘yicha, faqat tijorat yordamida orttirilmaydi. *Boylik orttirishning yo‘llari ko‘p bo‘lib, shulardan yana biri,* Fitratning aytishicha, *yer osti boyliklarini qazib olish, uskuna (zavod va fabrika)larda ularni qayta ishlatish va bu mahsulotlardan foydalanishdir.* Kasbi geologiya kabi aniq fanlardan uzoq bo‘lishiga qaramay, u Buxoroga tegishli yerlarda tilla, mis, temir, toshko‘mir, lampa moyi va boshqa zahiralar borligini yaxshi biladi va bu boyliklardan foydalana oladigan vatandoshlari yo‘qligidan afsuslanadi.

Ana shu tarzda Fitrat hindistonli Sayyohning nazari bilan o‘z vataniga qarash, undagi ijobiy va salbiy jihatlarga e’tiborni qaratish orqali yurtdoshlarining zamondan orqada qolganliklari, jaholat botqog‘iga botib, ayanchli turmush tebratayotganlarining sabablarini ochiq-oydin ko‘rsatadi. Ayni chog‘da o‘z bilimi doirasida bu vaziyatdan chiqish uchun e’tiborga sazovor tavsiyalarni beradi.

«Rahbari najot» («Najot yo‘li») asari jadidchilikning ma’naviy dasturiga aylangan dastlabki ikki qissani mantiqan to‘ldiradi, avvalgi asarlarda badiiy talqin doirasida qahramonlar ruhiyati va sajiyasidan kelib chiqib, ayrim fikrlarini to‘la ifoda qilolmagan bo‘lsa, bu asarda Fitrat o‘zini ancha erkin tutadi. Jamiyat, tabiat hayotining bilimdoni sifatida ma’naviy hayotning turli qirralari bilan bog‘liq qarashlarni ifodalaydi. Bu haqda muallifning o‘zi asar tarkibida „chekinish» degan nom bilan alohida bir bob tartib berib, unda, jumladan, quyidagilarni yozadi: «Chunonchi, yaqinda («Hind sayyohi» degan risolam nashr bo‘lgandan so‘ng) Buxoroning bir nechta mullavachchalari menga yuborgan maktublarida so‘rabdilar: «Nega hamma ahli ilmni o‘zingga dushman qilayapsan?». Bu savoldan men ta’sirlanib, hayron qoldim. Shu uchun munosib mavqe’ borligida, men ularga ahvollarini bayon qilishni xohlardim. Avvalo, shuni arz qilayki, mening o‘zim bir kamtarin tolibi ilmman. Faqat ilm talabi borki, mulkimda bu g‘arib mehnatlarimni ortiq baholay olmadim, ko‘p ko‘rmadim va o‘zimni yana shu sarzaminga tashladim. Bas, meni ilmning va ulamolarning dushmani deb hisoblamoq katta xatodir. Ammo, ilm toliblari mening birodalarim va hammaslaklarim. Men har kuni ular orasida yurib, ular bilan birga tahsil oldim. Bugun ham ularning tariqidan (yo‘lidan) chetga chiqqanim yo‘q, zero ilm tahsili bilan mashg‘ulman. Dunyoda birorta vijdon va iymon sohibi yo‘qki, o‘z birodar va hammaslaklariga besabab dushmanlik qilsa. Bu chekkan faryodlarim va ularga ravo ko‘rgan bu malomatlarim hammasi do‘stligimdandir»[30]. Muallifning so‘zboshisidan yana shu

[30] Фитрат. Нажот йўли (Раҳбари нажот). –Т.: Шарқ НМК, 2002. –Б.69.

narsa ma’lum bo‘ladiki, XX asrning 10-yillariga kelib «Buxoro sohibi qalamlari ham harakatga kelib, tirishqoqliklarini ko‘rsatib, ikki-uchta foydali kitob nashr qildilar. Banda shularning kamtarinlaridan bo‘laman. Bu navbat ham shu axloqiya majmuasini tartib berib, «Rahbari najot» deb nomladim»[31]. Demak, muallif «axloqiya majmuasi» deb atagan asarida avvalgi badiiy asarlarga hamohang ravishda mamlakatdagi ahvolni bayon qilishga kirishadi. Mamlakatdagi tushkunlik va jaholatning sababini axtaradi va o‘z zamonasining ilg‘or ziyolilari kabi «tushkunlik va xarobligimizning sabablaridan biri ilmsizlik va dangasalikdir» degan xulosa bilan bu kabi illatlardan qutilish yo‘llarini qidiradi. Bu yo‘lda «rahbari najot», ya’ni najot sari yetaklovchi rahbar sifatida Qur’oni karimni biladi hamda o‘z qarashlarini mana shu muqaddas ilohiy kitobdan keltirilgan oyati karimlar bilan asoslaydi, Hadisi sharif hikmatlari bilan quvvatlaydi, lozim kelganda, Imom Buxoriy, Imom G‘azzoliy asarlaridan misollar keltirib, bayon qilgan mulohazalarini dalillaydi. Tushkun hayotning sababini «kuli yavmin battar» (kun kunidan battarroqdir), «xohishi ilohiy» deb bilib, undan qutulish sabablarini axtarmayotgan johil mullalarni keskin rad qiladi, ularga qarshi «...siz bir-biringizga bizga bu musibat qaerdan yetdi, dedingiz. Ayt, Ey Muhammad, bu musibat sizga o‘zingizdan yetdi, Alloh har bir narsaga qodirdir» (Qur’oni karim. Oli Imron surasi, 165-oyat) oyatini keltiradi va so‘zining davomida Niso surasidagi boshqa bir oyati karimani keltirib, «Senga yetgan yaxshilik Allohdandir, musibat esa o‘zingdan» ekanligini isbotlaydi. Fitratning umidi, uning so‘zlarini «bu ham bir jadidda, uning so‘zlariga quloq solish yaxshi emas» qabilida qabul qilmaydiganlar hech bo‘lmasa Allohning so‘zlari (kalomulloh) bo‘lgan Qur’oni karim oyatlarini va Hadisi Sharif hikmatlarini ko‘rib mutaassir bo‘lishidan umid qiladi.

Fitratning naqlicha, jamiyatda ikki turli kishilar bo‘lib, ularning biri bu dunyoda baxt-saodatli yashash yo‘llarini axtaradilar va unga

[31] Юқоридаги асар. –Б.11.

erishishga harakat qiladilar. Ikkinchi toifa esa, birinchi guruhdagilarni inkor etgani holda insonning haqiqiy saodatini u dunyoda deb biladi. Fitrat bu qarashdagilarning birini yoqlab, ikkinchisini inkor qilish yo‘lidan bormagan, aksincha, har ikki toifa ham chekli mulohaza qilayotganini anglatadi. Uningcha, bu dunyo saodatini istaganlar tijorat yo‘lini tutib, o‘zining farovon yashashlarini ta’min etadi, u dunyo saodatini istaganlar oxirat iztirobi bilan ibodatga berilib, dunyoviy ne’matlardan o‘zini parhez tutadi. Bu xulosa ham Qur’oni karim oyatlari bilan asoslanadi: «Ba’zi odamlar Alloh taborak va taolodan bu dunyoni talab qiladilar. Ularga oxirat saodati nasib qilmaydi» (Qur’oni karim. Baqara surasi, 200-oyat). Bu oyati karimaning ketidan yana hadis keladi: «Sizlardan yaxshilaringiz oxiratini bu dunyo uchun tark qilmagan va bu dunyoni oxirat uchun tark qilmay, og‘irligini boshqalar ustiga tashlamaydiganidir».

Haqiqiy inson va uning yashashlikdan orttirgan tajribasi hamda hayot g‘oyasi *ikki dunyo saodatidadir*. Bu oliy saodatga erishish uchun birgina tijorat va ibodat kifoya qilmaydi, balki kishi ilm va ma’rifat yo‘lini topmaguncha ikki dunyo saodatiga erishib bo‘lmaydi, degan xulosani asarning muqaddimasidayoq o‘zining ma’naviy dasturi sifatida bayon qiladi. Ikki dunyo saodatiga erishish uchun esa ilm sari (ilmning har ikki jihati – dunyoviy va diniy ilmlar nazarda tutilgan) harakat qilmog‘i lozim, boshqa maxluqotlarda esa bunday iste’dod yo‘q, bas, kishi ilm sari harakat qilmas ekan, uning boshqa maxluqlardan, ya’ni hayvondan farqi yo‘q. Ikki dunyo saodatini talab qilgan inson o‘zi ham o‘sha ikki saodatga erishish yo‘llarini axtaradi, ularning biri bilan cheklangan, albatta, ikkinchisiga ham erisha olmaydi. Dunyoni «mo‘minlar do‘zaxi va kofirlar jannati» deb bilgan ulamolar kishilarni ilm sari rag‘bat qilib, ularga diniy va dunyoviy ilmlardan saboq berish o‘rniga, tanballik va harakatsizlik sari yetaklaydilar. Yana shu surada Fitratning g‘oyasini tasdiqlaydigan bir jihat borki, «unda nimaiki talab qilsalar topadilar» deyilmagan, balki «o‘zlarining say’-harakatlari evaziga topadilar» deyilgan. Demak,

insonning hayot g‘oyasi mana shu ikki dunyo saodatiga erishish uchun harakat qilmoqdan iborat: «demak, odam umrining samarasi, ya’ni insonning hayot g‘oyasi «saodati dorayn», ya’ni ikki dunyo saodati ekan, kimki o‘zini odamlar qatoridan deb bilsa, bu dunyo va oxiratda ham o‘zini baxtli va tinch bo‘lishi uchun harakat qilishi lozim,... ikki dunyo saodatini talab qilgan insonlargina komil insonlardir»[32].

Fitrat talqinicha, ikki dunyo saodatiga erishish, ya’ni komil inson bo‘lish uchun vijdon amri bilan ish tutgan holda quyidagi axloqiy vazifalarni bajarishlari lozim: 1. Vazifayi nafsiya (nafs, shaxsiy vazifa). 2. Vazifayi oila. 3. Vazifayi insoniya. Bularni bir-bir tahlil etishga kirishgan alloma, nafsoniy quvvatning uch jihatini belgilaydi: 1. Aqliy quvvat. 2. Shahvoniy quvvat. 3. G‘azab quvvati. Aql quvvatini isloh etish, tuzatish orqali kishi haqni botil (yolg‘on, puch)dan, ezgu ishni qabihlikdan farq qiladi. Shahvoniy quvvatni isloh etish orqali iffatga erishiladi. G‘azab quvvatini isloh etish esa, shijoatga olib keladi. Inson mana shu uch jihatni o‘zida isloh etsagina, u yana bir fazilatga ega bo‘ladiki, buni olim «adolat» deb ataydi. Shulardan kelib chiqib, axloq olimlarining ishlariga tayangan holda Fitrat nafs fazilatini to‘rtga bo‘lib talqin qiladi. Bular: 1. Hikmat. 2. Iffat. 3. Shijoat. 4. Adolat. Mana shu kabi axloqiy kategoriyalarni o‘rganish va tahlil qilish Fitrat asarining mundarijasini ham belgilagan.

Asarning «Aql» bobida shunday xulosaga keladiki, aql ilmdan quvvat oladi, agar u doimiy suratda ilm bilan oziqlanib turmasa, suvsiz daraxtday qurib qoladi. Ilm olmoq, demak, kishini hayvondan farqlagan aqlini oziqlantirib turmoqdan iborat. Aql orqali erishilishi lozim bo‘lgan ilmlarni, muallif «aqliy ilmlar» deb belgilab, shaxs kamolotiga xizmat qiladigan ilmlarni nazarda tutadi. Ilmlarning ikkinchi navi esa, naqliy ilmlar bo‘lib, u diniy va dunyoviy ilmlarga bo‘linadi. Shunday so‘ng, Fitrat diniy va dunyoviy ilmlarning tasnifini beradi.

[32] Юқоридаги асар. –Б.22.

Dastlab, diniy ilmlarga berilgan tasnifda Tafsir ilmi, Hadis ilmi, Fiqh ilmi, Kalom ilmi va lisoniy ilmlarni bayon qilgandan so‘ng naqliy ilmlar ta’rif va tasnifiga o‘tadi. Fitrat tasnifiga ko‘ra, naqliy ilmlar tarixdan boshlanadi va u o‘z navbatida muqaddas tarix va madaniyat tarixiga ajraladi. Madaniyat tarixi deb atalgan jamiyat tarixi esa 1. Ilm va adabiyot tarixi. 2. Tabiiy tarix. 3. Siyosiy tarixdan iborat. Tarixdan keyin kishi o‘rganishi lozim bo‘lgan naqliy ilmlardan navbatdagisi jug‘rofiyadir. Fitratning geografiya fani haqidagi qarashlari Behbudiynikidan to‘laroq tarzda bayon qilingan bo‘lib, olim nafaqat bu fanning vazifasi va o‘rganilishi kerak bo‘lgan manba hamda jabhalarni belgilaydi, balki islom olamidagi mashhur geograflar haqida ma’lumot beradi. «Bu fan bizga kerakmi yo yo‘qmi» deb ikkilanayotgan ayrim ulamolarga qarshi geografiya va tarix fanlarining himoyasi uchun Qur’ondan quyidagi oyatni keltiradi: «Ey musulmonlar, albatta, sizlardan oldin qavmlar bo‘lgan, o‘rtalarida qoida va qonunlar bor edi, sizlar sayohat qilinglar, payg‘ambar so‘zlariga kirmagan qavmlarning hollari nima bo‘lganligini ko‘ringlar». So‘ngra esa, yana aqliy ilmlar mundarijasiga qaytib, ularni shunday tasniflaydi: 1.Tabiiy ilm. 2. Riyoziy ilm. 3. Falsafiy ilm. Tabiiy ilmlar o‘z navbatida 1. Tabobat ilmi. 2. Tabbiy hikmat ilmi. 3. Nabotot ilmi. 4. Hayvonot ilmi. 5.Ma’danlar ilmidan iborat. Alloma bu bilan aqliy ilmlarning sanog‘i ado bo‘lmasligini, faranglar (yevropaliklar) tabiiy ilmlarni o‘rganishdan bizdan farsaxlarcha ilgarilab ketish bilan birga ular ko‘plab yangi-yangi tabiiy ilmlar ixtiro qilganligini ham anglatadi.

Fitrat bu kabi foydali ilmlarning tasnifini berishidan murod bizning hammillatlarimiz shunday xilma-xil ilmiy imkoniyatlar borligini anglasin, o‘z mamlakatlari va millatlarining ravnaqi yo‘lida xizmat qilishlari uchun, avvalo, aqliy va naqliy bilimlarni egallashlari zarur ekanini ta’kidlab yozadi: «Ilm o‘rganish musulmonlarga shar’an va aqlan lozimdir. Anvoyi xil ilmlar ko‘pdir va dunyoyu oxiratga foyda beradigan ilmlardan tahsil olmasak, ikki Dune saodatiga

erishish mumkin emas. Bas, saodati dorayn orzusida yurgan har bir millat namoyandasi bir-birlariga madad bersinlar, illo, busiz maqsadlariga erisha olmaydilar. O‘z osoyishtaligini g‘animat deb bilgan, birovning holiga qaramaydigan, millatiga muovanat va madad ko‘rsatmaydigan odamlarning na qavmi, na o‘zi saodati doraynga erishadi»[33]. Foydali ilmning ahamiyatini mo‘minlarga uqtirish bilan ularni nafaqat ikki dunyo saodatiga chorlash, balki millatning yumushiga safarbar qilinishi ham nazarda tutilgan. Millatning ravnaqi faqatgina ilm-fan bilangina bo‘lmaydi, balki uning iqtisodiy hayotini barkamol qilmasdan turib, bu dunyoda farovonlikka erishish mumkin emas ekan, demak, saodati doraynning muhim bir qismi bo‘lgan insoniyat maishiy hayotining yetarli darajadagi ta’minoti bilan ham shug‘ullanishlari lozim, degan o‘yga keladi. Fitratning talqinicha, millatning ravnaqi ma’lum ma’noda uning boylariga – sarvatmandlariga bog‘liq. Chunki, millat a’zolarining karam va sahovati bo‘lmasa, u millat ravnaq topa olmaydi. «Boshqacha qilib aytsak, karamu saxovat millatga madaddir» deyilish bilan birga alloma keltirgan hadisning mazmuni shunday: «Odam vafot etsa, unga qilgan uch amalining savobi yetib turadi: avvalo, sadaqai joriyasi (kunda qiladigan xayru ehsonlari)ning savobi; foydali ilmining savobi va uni duo qiluvchi farzandning savobi». Keltirilgan hadisdan ma’lum bo‘lishicha, saxovatpesha boylarning yetkazgan savobi hadisda hatto ilm orqasida yetishishi mumkin bo‘lgan savobdan avval kelmoqda. Fitrat bu hol orqali ushbu mulohazani ilgari suradi: «...saxiy va karampesha boylarning zikri olimlarning zikridan ham oldin kelgan, bu ham ular ulug‘ligining alomatidir. Ha, karampesha boylar ulug‘dirlar, ularning martabalari boshqa odamlarning martabalaridan yuqoriroqdir, zero, millatning hayoti, uning intizomi ularning himmatlariga bog‘liq. Agar bizning boylarimiz ham shu ilohiy amrlarga amal qilib, shunday sharafu saodatga o‘zlarini xaridor qilsalar, shu kundan boshlab vatanimiz obodlik yo‘liga, millatimiz

[33] Юқоридаги асар, Б.70-71, 77.

saodatu osoyish tomon qadam qo‘ygan bo‘lar edi»[34]. Sahovatning ziddi baxillikdir, shuning uchun Fitrat saxrvatpeshalikni ulug‘lagan joyda baxillikni qoralaydi va bu illat millatning nafaqat boylariga, hatto fuqaro bo‘yniga tushgan kasallik ekanini ochiq anglatadi. Shu kabi shijoat va jur’atsizlik, sabot va noo‘rin jasorat, g‘azab va iffat, sidq va nifoq, qanoat va hirs kabi axloqiy tushunchalarning mohiyatini ochish bilan birga millat a’zolarini yomondan parhez qilishga, ezgulikka ergashishga chaqiradi. Yuqorida talab etilgan murodga erishish uchun inson shaxsiy hayotida sog‘lom, iqtisodi ta’minlangan, axloqi solih bo‘lishi lozimligini uqtirib: inson «barkamol bo‘lishi uchun uchta boshqa fazilatlarga ega bo‘lishi kerakki, ular mutammima fazilatlar (qo‘shimcha, zaruriy – R.Sh.) deb nomlanadi. Bular: 1) sihat-salomatlik; 2) sarvat (boylik); 3) ahli ayoldan iborat»[35]. Ularning har biri olim tomonidan izohlanadi, zaruriy hikmatlar orqali bayon qilinib, Qur’ni karim oyatlari va hadis namunalari orqali dalillanadi. So‘ngra olim oila vazifasiga batafsil to‘xtaladiki, biz u haqda o‘tgan bo‘limlarda o‘z tahlil va talqinlarimizni bayon qildik.

Fitratning yuqorida tahlil etilgan asarlari ko‘tarilgan masalalar ko‘lami va ahamiyati bilan Turkistondagi jadidchilik harakatiga yangi yo‘nalish berdi va bu jadidchilik harakatining dastur ul-amalini yaratdi. Bunday asar jadidchilik harakatining boshqa arboblari ijodida, ayniqsa, 1912-yilgacha bo‘lgan ijodida uchramagani uchun Fitratni bu harakatning Mahmudxo‘ja Behbudiy bilan birga tom ma’nodagi asoschisi, deyishimizga asos beradi.

Oradan o‘n yil o‘tgach, Buxoro amirligidagi siyosiy va ijtimoiy vaziyat ham keskin o‘zgarib, amirlikning metin devorlari nuray boshladi. Shunday sharoitda amirga birdan-bir muxolif kuch – «yosh buxoroliklar» harakati o‘z saflarini qayta qurishga kirishdi. Yangi Markaziy qo‘mita mavjud tarixiy sharoitdan kelib chiqib,

[34] Ўша асар. - Б.84.
[35] Ўша асар. - Б.122.

tashkilotning amaliy dasturini ishlab chiqishni o‘z oldiga birlamchi vazifa sifatida qo‘ydi.

1918-yil yanvarida Fitrat tomonidan tuzilgan «Buxoroda islohot loyihasi»ni «yosh buxoroliklar» Markaziy qo‘mitasi muhokamasiga topshirdi. Buxoroda huquqiy davlatni barpo etish, o‘rta asrlardagi sharqona zulm va zo‘ravonlikka asoslangan tuzumni Yevropa tarzidagi ma’rifatli monarxiya bilan almashtirish, mehnatkash aholining farovonligi va madaniy darajasini oshirish yo‘li bilan Buxoroni siyosiy, iqtisodiy va harbiy jihatdan mustahkamlash edi.

«Buxoro islohoti loyihasi»ni kuzatish shundan shahodat beradiki, Fitrat «Yosh buxoroliklar» harakatining dasturulamalini tuzish va Buxorodagi mavjud tuzumni isloh etish masalasiga, birinchi navbatda, xalq ommasi manfaatini ko‘zda tutgan holda kirishgan. U yozuvchi sifatida mehnatkash xalq ommasi hayotini, dard va tashvishlari, orzu va umidlarini yaxshi bilganligi uchun, birinchi navbatda, shu xalq ommasining hayotini o‘zgartirish va yaxshilash choralarini axtargan. Shuning uchun ham u o‘z loyihasida dehqonchilik masalalariga katta e’tibor bergan. Hatto loyihani ham davlat tuzilishi masalasidan emas, balki qishloq xo‘jaligi bilan bog‘liq islohotdan boshlab, barcha ekinzor yerlarni uch guruhga – vaqf yerlari, xususiy yerlar va davlat ixtiyoridagi yerlarga ajratgan.

Loyihadagi muhim ahamiyatga molik masalalardan biri soliq masalasidir. Xuddi shu narsa amirlikda xalq ommasining qashshoqlashishiga sabab bo‘lgani uchun Fitrat soliq masalasiga e’tibor berib, soliqning bir qator yangi qoidalarini ishlab chiqqan. Chunonchi, loyihaga ko‘ra, mehnatkashlar ommasi va davlatga qarashli yerlardan kam soliq olinishi nazarda tutilgan. Bu Fitratning soliq masalasida, birinchi navbatda, xalq ommasiga ma’lum imtiyozlar yaratish, ikkinchi tomondan, shu vaqtgacha katta imtiyozlardan foydalanib yashayotgan kishilarga kelayotgan tekin foyda yo‘lini to‘sish va, uchinchidan, shu kimsalar hisobidan davlat xazinasini to‘ldirish istagidan kelib chiqqan.

Loyihadagi ikkinchi muhim g‘oya dehqonchilik va qishloq xo‘jaligi bilan bog‘liq. Fitrat xalq va mamlakatning iqtisodiy muammolarini bartaraf etish va farovonlikka erishishning asosiy yo‘lini qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ko‘paytirishda ko‘rgan. Buning uchun u ekin maydonini kengaytirish va dehqonchilik ishlarini mukammallashtirishni lozim, deb bilgan. Fitratning yerdan foydalanish, qishloq xo‘jaligini rivojlantirishga qaratilgan takliflari bu bilangina cheklanmaydi. U irrigatsiya ishlarini ham e’tibordan qochirmay, Zarafshon sug‘orish tizimidan to‘g‘ri foydalanib, suvning Buxoro va Samarqand viloyatlarida to‘g‘ri taqsimlanishi, Amudaryodan irrigatsiya maqsadida foydalanish borasida ham katta amaliy ahamiyatga molik g‘oyalarni ilgari surgan.

Loyihadan katta o‘rin olgan vaqf masalasida Fitrat Buxoroda hukm surgan o‘zboshimchalik va suiiste’mol qilish holatlarini nazarda tutgan holda vaqfdan tushgan mablag‘ning sovrilib ketmasligi uchun maxsus nozirlik tuzishni, vaqf mulki, do‘konlari, oshxona va kutubxonalarni shu nozirlik tasarrufiga o‘tkazish va barcha daromadni mazkur komissarlik qoshidagi xazinada markazlashtirish g‘oyasini olg‘a surgan. Shunda, uning nazarida, xazinadagi kapitaldan tushgan foyda hisobiga yangi maktab va madrasalar, kutubxona va yetimxonalar, kasalxona va kambag‘allar uchun oshxonalar ochish mumkin bo‘ladi.

Loyihada moliya, ma’muriy bo‘linish masalalari Fitrat e’tiboridan chetda qolmagan. Buxoroda temir yo‘lni rivojlantirish maqsadida Temir yo‘l nozirligi tuziladi va bu nozirlik ayni vaqtda tog‘-kon sanoati bilan ham shug‘ullanadi.

Buxoro Xalq Sovet Respublikasining bo‘lajak maorif noziri loyihada maktab va ta’lim masalalariga ham maxsus e’tibor qaratgan. Loyihada keltirilishicha, aholi o‘rtasida maorif ishlarini rivojlantirish uchun Maorif nozirligini tashkil etib, barcha viloyatlarda xazina hisobidan ikki bosqichli xalq maktablari va oliy o‘quv yurtlarini ochish, bu maktablarni o‘quvchilar bilan ta’minlash, barcha turdagi

maktablar uchun dasturlar ishlab chiqish va bu maktablar ustidan nazorat olib borish ishlari mazkur nozirlikka yuklanadi.

Nozirlar Kengashi, loyihaga koʻra, quyidagi oʻnta nozirlikdan tashkil topadi:

1. Yer ishlari nozirligi.
2. Vaqf ishlari nozirligi.
3. Harbiy ishlar nozirligi.
4. Moliya nozirligi.
5. Ichki ishlar nozirligi.
6. Adliya nozirligi.
7. Militsiya nozirligi.
8. Temir yoʻl va togʻ-kon sanoati nozirligi.
9. Maorif nozirligi.
10. Tashqi ishlar nozirligi.

Loyihada qayd etilishicha, Rossiya va boshqa davlatlar bilan tashqi aloqaga doir masalalar boʻyicha Nozirlar Kengashi raisining oʻzi shaxsan shugʻullanadi.

Fitrat ushbu loyihani tuzganidan keyin koʻp oʻtmay, bolsheviklar Qoʻqonda barpo etilgan Turkiston Muxtoriyat hukumatini qonga botirdilar. Fitrat, agar Turkiston aholisi ulugʻ maqsad yoʻlida birlashmasa, uni shunday fojia kutishini bilardi. Shuning uchun ham Fitrat «Yurt qaygʻusi» deb nomlangan bir necha she’r va sochmalar yozib, vatandoshlarini istiqlol uchun kurashga chaqirdi. Agar biz bu she’riy asarlarga teran nazar tashlasak, ularda Fitratning kitobxonning, aniqrogʻi, vatandoshlarining e’tiborini quyidagi masalalarga tortmoqchi boʻlganini koʻramiz:

1. Vatanning ona kabi muqaddasligi, uni qutqarish farzandning burchi ekanligi.

Onam! Seni qutqarmoq uchun jonmi kerakdir?
Nomusmi, vijdon bila imonmi kerakdir?..[36]

[36] Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. 1-жилд. – Тошкент, 2000. – Б. 31.
Кейинги мисоллар ҳам шу нашрдан олинган.

2. Ona-Vatanning ayanchli bir ahvolda ekanligi.

«Yotsam tushumda, uyg‘onsam yonimda, ko‘z yumsam miyamda, ko‘z ochsam qarshimda mungli bir xayol kelib turadur! Bu bir xotun xayoli... Bir xotunki, egnida bir kiyim yo‘q. Bosh-ayog‘lari yalang‘och, tirsaklarigacha qop-qora loyqadan botgan, baqirurga tovushi, qutilurga kuchi qolmag‘an!..

...Oh... Bildim... bildim... Angladim!

Sen mening Vatanimsan, Vatanimning mungli xayolisan...»

3. Farzandning ona-Vatansiz yashay olmasligi.

«... Ey muqaddas Vatanimning xayoli, ketmay tur, ayrilma.

Yonimda, ko‘zlarimda, yuragimda, vijdonimda qol, ketma.

Turonim, sendan ayrilmoq – mening uchun o‘limim.

Sening uchun o‘lmoq – mening tirikligimdir».

4. Turonning bir vaqtlar ulug‘ va qudratli davlat bo‘lganligi.

«Ey Ulug‘ Turon, arslonlar o‘lkasi!..

Ey Chingizlarning, Temurlarning, O‘g‘uzlarning, Otillalarning shonli beshiklari!..

Dunyoni «urho»lari bilan titratgan yo‘lbars yurakli bolalaring qani? Yer tuprog‘ini ko‘klarga uchiratirgan tog‘ gavdali o‘g‘lonlaring qani?..»

5. Vatanni ozod qilish yo‘lida Amir Temur ruhidan madad so‘rash.

«Ulug‘ xoqonim! Turklik sharafi talandi.

Bilaman, shu chog‘da sening to‘lqunli dengizlarg‘a o‘xshagan yuraging men kabi yuraksiz bir o‘g‘lingning shu ko‘rinishidan nafrat qiladir...

Ey arslonlar arsloni!

Mening yozuqlarimdan o‘t,

Meni qo‘limni tut,

Belimni bog‘la, muqaddas fotihangni ber!»

6. Vatanni ozod etish uchun ont ichish.

«Qof tog‘lari yo‘limda tushsa,

Tamug‘ olovlari qarshumdan chiqsa, yana sen sari ketarman.

Ustimga ilonlar emas, shaytonlar qo‘shini kelsa,

Oyog‘imga zanjirlar emas, jahannam ilonlari sorilsa, yana sen sori ketarman,

Dunyoning butun balolari boshimg‘a to‘kulsa,

Zulm cho‘lining temir tikonlari ko‘zlarimga kirsa, yana seni qutqararman...»

Fitrat vatanparvarlik g‘oyalari bilan tarixning o‘zbek xalqi uchun burilish nuqtalaridan birida vatandoshlarini birlashib, ona-Vatanning hur va ozodligi uchun kurashga chaqirdi. Fitratning siyosiy-huquqiy qarashlari, jadid ma’rifatparvarlarining ijtimoiy qarashlari zaminida xalq va Vatan ozodligi hamda milliy taraqqiyot g‘oyalari yotadi, desak, adolatdan bo‘ladi.

XULOSA

Jadidlarning davrning eng muhim ijtimoiy-siyosiy voqealariga munosabati, albatta, matbuot orqali, ularning turli xil nashrlarda bildirilgan fikr-mulohazalari asosida kechgan. Shunday ekan, davr matbuoti nafaqat jadid adabiyotining oynasi yoki adabiy manbai, balki mamlakatda kechgan katta-kichik voqealarga munosabat bildirish minbariga ham aylandi.

Jadidlar XIX asrning ikkinchi yarmida Turkistonning Chor mustamlakasiga aylanishi va Turkiston xalqlari achinarli ahvolining ijtimoiy ildizlarini tahlil etib, birinchi navbatda ta’lim tizimini isloh etish va xalq ommasini ma’rifatlashtirish lozim, degan qarorga keldilar. Ular nazarida, Turkistondagi mavjud tarixiy sharoitni o‘zgartirishning birdan-bir yo‘li ma’rifat o‘choqlarini barpo etish va xalq ommasining ko‘zini ma’rifat nurlari bilan yuvish edi. Xalqni jaholat botqog‘idan qutqarishning birdan-bir yo‘li ma’rifat edi. Shuning uchun rus-tuzem maktablariga qarshi «usuli jadida» maktablarini yo‘lga qo‘ydilar va boshlang‘ich maktabdan oliy madrasaga qadar ta’lim tizimini isloh qilmoqchi bo‘ldilar.

Maktab, madrasa tizimi uchun yangi o‘quv dasturlari, darslik va qo‘llanmalar, badiiy asarlarga juda katta ehtiyoj tug‘ildi. Shuning uchun ham jadid adabiyoti, birinchi navbatda, ma’rifatchilik g‘oyalarini o‘z zimmasiga oldi. Ma’rifat o‘zbek xalqi va madaniyati tarixining avvalgi davrlarida xalq ommasini bilimli qilish vositasi bo‘lib xizmat qilgan bo‘lsa, jadidlar ma’rifatdan ijtimoiy qurol sifatida ham foydalanmoqchi bo‘ldilar. Ularning fikriga ko‘ra, ma’rifatlashgan xalq yaqin kelajakda o‘z haq-huquqlari uchun, Vatan hurligi va mustaqilligi uchun kurashishi ham lozim edi.

Usuli jadid maktablari uchun o‘quv dasturlari, darslik va qo‘llanmalarni tuzishda mualliflar o‘quvchilarni qisqa muddatda savodli qilishdan tashqari, sharqona axloq va odob ruhida tarbiyalash, fanning turli sohalari, jumladan, tabiiy fanlar bo‘yicha bilim berish, ayniqsa, yer yuzidagi boshqa mamlakatlarning tabiati, davlat qurilishi, madaniyati, shuningdek, bu mamlakatlarda yashovchi xalqlar to‘g‘risida tasavvur berishni o‘z oldilariga maqsad qilib qo‘ydilar.

Jadid adabiyoti eski mumtoz janr va turlar orqali jahon bilan barobar odim tashlashi mumkin emas edi. Ayniqsa, XX asr boshlarida vujudga kelgan jadid matbuoti jadidlar uchun ham targ‘ibot minbari, ham anglatish vositasi, ham yangi shakl va janrlarni barqaror qilish omiliga aylandi. Jadid adabiyoti adabiy turlarning deyarli barchasida yangilik tarafdori bo‘lib chiqdilar. Turkiston adabiyoti tarixida avvaldan mavjud bo‘lmagan dramaturgiya adabiy tur sifatida vujudga keldi va teatr jadid adabiyotining ma’naviyat maskaniga aylandi.

Jadid shoirlari mumtoz she’riyat uchun asos hisoblangan aruz vaznini isloh qilish orqali barmoq va erkin vaznlarda she’r tartib berishni adabiy rusumga kiritdilar. Natijada, butun XX asr o‘zbek she’riyatining taraqqiyotiga sabab bo‘lgan milliy vazn – barmoq tizimi shakllandi. Jadid adabiyoti nasrda yangilik axtardi, Yevropa tipidagi romanlarni adabiyotga olib kirish orqali realistik nasr an’analarini shakllantirishga erishildi.

Turkiston jadidchilik harakatining shakllanishida xalqaro aloqalar muhim ahamiyatga molik bo‘ldi. Behbudiyning Yaqin Sharq mamlakatlariga qilgan safari, Qozon, Nijniy Novgorod, Moskva, Peterburg singari Rossiyaning markaziy shaharlariga borishi, Fitratning Turkiyada bir necha yil bo‘lishi nafaqat bu yozuvchilar, balki umuman o‘zbek jadidlari ijtimoiy-siyosiy va ma’rifiy qarashlarining shakllanishiga katta ta’sir o‘tkazdi.

O‘zbek jadidchiligi o‘z tarixining birinchi bosqichida asosan ma’rifiy oqim sifatida namoyon bo‘lgan va bu davrda jadidlarning ta’lim islohoti bilan bog‘liq qarashlari to‘la shakllangan bo‘lsa, keyingi davrda ularning ma’rifiy g‘oyalari milliy taraqqiyotning boshqa muhim va dolzarb masalalari bilan boyidi.

Jadidlar millatning ma’naviy yuksalishida oilaning muhim taraqqiyot maskani, deb bildilar va farzand tarbiyasiga dastlabki mas’ul shaxs ota-ona bo‘lib, ularning vazifasi sifatida nafaqat o‘z oilalari oldidagi, balki jamiyat oldidagi mas’ul vazifa ekanini anglatmoqchi bo‘ldilar.

Fitrat «Oila va oilani boshqarish tartiblari» asarida musulmon oilasi asoslanadigan ma’naviy omillar, oila a’zolarining oila oldidagi burchlari, farzandning ota-ona va ota-onaning farzand oldidagi huququ burchlarini ko‘rsatib bera oldi. Said Ahroriyning risolasi bir qancha maqolalardan tashkil topgan bo‘lib, muallif har bir maqolada oiladagi ilk tarbiyaning ahamiyatini bosqichma-bosqich anglatib berdi. Oila tarbiyasi jamiyat tarbiyasi, balki millat va xalq tarbiyasi ekanligi butun jadid adabiyotida alohida mavzu sifatida ishlandi. Oilaning ijtimoiy, huquqiy va ma’naviy asoslari jadidchilar tomonidan qanchalik izchil belgilangan bo‘lsa-da, keyingi asrlarda o‘zbek xalqining ijtimoiy va ma’rifiy yuksalishi uchun dunyoviy bilimlarni egallash bilan birga oila ma’naviyatini shakllantirish ijtimoiy zaruratga aylandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Аъзамхўжаев С. Туркистон мухторияти. – Т.: Маънавият, 2000.

2. Алимова Д. Джадидизм в Средней Азии. Пути обновления, реформы, борьба за независимость. – Т.: Ўзбекистон, 2000.

3. Балдауф И. XX аср ўзбек адабиётига қарашлар // Масъул маҳаррир Н.Каримов. – Т.: Маънавият, 2001.

4. Беҳбудий М. Танланган асарлар. Тўпловчи, сўзбоши ва изоҳлар: Б.Қосимов. – Т.: Маънавият, 1999.

5. Болтабоев Ҳ. Қатағон қилинган илм. –Т.: Хазина, 1996.

6. Болтабоев Ҳ. Фитратнинг илмий мероси. – Т.: Фан, 1996.

7. Болтабоев Ҳ. Фитрат – адабиётшунос. – Т.: Ёзувчи, 1996.

8. Жадидчилик: ислоҳот, янгиланиш, мустақиллик ва тараққиёт учун кураш. Даврий тўплам. №1. – Т.: Университет, 1999.

9. Зиёев Х. Туркистонда Россия тажовузи ва ҳукмронлигига қарши кураш. - Т.: Шарқ, 1998.

10. Зиёева Д. Туркистон миллий озодлик ҳаракати. - Т.: Адабиёт ва санъат, 2000.

11. Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. – Т.: Ўзбекистон, 2008.

12. Мамажонов С. Бизнинг Чўлпон. – Т.: Фан, 1997.

13. Мўминов И. Ўзбекистон ижтимоий-фалсафий тафаккури тарихидан. – Т., 1960.

14. Togan Zeki Velidi. Bugünkü Türkeli (Türküstan) ve yakın tarixi. – Istanbul, 1981 (2-baski).

15. Фитрат Абдурауф. Оила ёки оила бошқариш тартиблари. – Т.: Маънавият, 2000.

16. Шарафиддинов О. Чўлпонни англаш.– Т.: Ёзувчи, 1994.

17. Шарафиддинов О. Истиқлол фидойилари. –Т.:Шарқ, 1993.

18. Қосимов Б. Исмоилбек Гаспирали.– Т.: Мерос, 1992.

19. Қосимов Б. Миллий уйғониш. – Т.: Маънавият, 2002.

20. Ғаниев И. Фитратшунослик. – Т.: Фан, 2005.

M U N D A R I J A

Kirish 3

Turkiston jadidlarining ijtimoiy-siyosiy voqelikka munosabati .. 5

Jadid adabiyotida e’tiqod va ijod uyg‘unligi masalasiga doir ayrim mulohazalar ……. 23

Jadid adabiyotida oilaviy qadriyatlar ……..... 47

Mahmudxo‘ja Behbudiy va Abdurauf Fitrat tomonidan tayyorlangan siyosiy-huquqiy hujjatlar …… 63

Abdurauf Fitratning milliy uyg‘onish va istiqlol haqidagi qarashlari 81

Xulosa ……. 114

Foydalanilgan adabiyotlar ……. 117